

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSYS TA'LIM
VAZIRLIGI

BUXORO OZIQ-OVQAT VA YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI
INSTITYTI

«IJTIMOIY FANLAR» KAFEDRASI

**«HUQUQSHUNOSLIK» FANIDAN
MA'RUZALAR MATNI**



Buxoro – 2007yil

Ushbu ma'ruzalar matni 2005 yilda O'zbekiston Milliy Universiteti 3huquqshunoslik fakulteti tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy dastur asosida tayorlandi. Unda davlat va huquq nazariyasi, ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi, oila huquqi, mehnat huquqi, iste'molchilar huquqi, jinoyat huquqi masalalari yangi adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar asosida yoritilgan. Ma'ruzalar matni barcha yo'nalishdagi bakalavriat mutaxassisliklar talabalariga mo'ljallangan.

Buxoro oziq –ovqat va yengil sanoat texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası yig'ilishida muhokama qilindi va qo'llanma sifatida institut uslubiy kengashi muhokamasiga tavsiya etildi.

Bayonnoma № 12 2006 yil 13 - yanvar

Bux OO va ESTI uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlangan

N..... sonli majlis bayoni, 2006 yil

Tuzuvchi: Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi
instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi,
Beshim Tangriyevich Mirzaqulov

Taqrizchi: Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi
instituti katta o'qituvchisi Latofat Saydullayevna
Sultonova

Buxoro Davlat Universiteti katta o'qituvchisi
Madina Qurbonovna Janobilova

K I R I SH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin oldimizda iqtisodiy taraqqiyotning qaysi yo'lini tanlash masalasi turgan edi. Bu masalada hech qanday ikkilanishlarsiz yurtboshimiz O'zbekistonning o'ziga mos, o'ziga xos ravishda bozor munosabatlari tizimini qaror toptirish yo'lini e'lon qildi. Bu borada eng muhim vazifalardan biri –bu bozor munosabatlarining huquqiy asosini yaratish edi. Chunki bozor tizimi nafaqat iqtisodiy munosabatlar, balki bu munosabatlar sub'yektlari hatti harakatlarini tartibga soluvchi yuridik me'yorlar ham hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 53-moddasida bozor munosabatlarini rivojlantirish iqtisodiyotning asosiy yo'nalishi sifatida belgilab qo'yildi va uni huquqiy ta'minlash tamoyillari ham o'z ifodasini topdi. Binobarin, Asosiy Qonunimiz bu borada yetakchi manba hisoblanadi.

Demokratik huquqiy davlatni vujudga keltirishning asosiy shartlaridan biri jamiyat a'zolarida zarur darajadagi huquqiy madaniyatni shakllantirishdir. Ayniqsa, talaba yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish bu borada o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Talaba yoshlarning huquqiy madaniyati haqida gap borganda, birinchidan, uning o'z huquq va majburiyatlarini bilishi, tushunishi va to'g'ri anglashi, ikkinchidan, bulardan amaliy faoliyatida foydalanish haqida fikr yuritmoq lozim. Talabalar huquqiy madaniyatining asosiy elementlaridan biri-bu huquqiy faollikdir. Huquqiy faoliyat yoshlarning huquqiy savodxonlik, huquq va qonunlarga bo'lgan hurmatiga tayanadi. Huquq jamiyatdagi barcha munosabatlarni tartibga solar ekan, huquqiy hulq-atvor va faoliyat kelajakda respublikamizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. U yoshlarimizga o'zlarining mehnat, dam olish, siyosiy va madaniy hayotdagi shaxsiy huquqlari, qiziqishlarini qondirishda qonunlardan foydalanishga imkon yaratadi.

Oliy maqsadimiz adolatli demokratik jamiyat barpo etish ekan, eng avvalo, har bir fuqaro o'z huquq va burchlarining mazmun-mohiyatini, qonunlarning

manfaatimizga xizmat qilishini chuqur anglab olib, haq-huquqlarimizdan to'g'ri va odilona foydalana bilishimiz kerak.

Prezidentimiz I.Karimov "O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat" asarida shunday yozgan: "Endilikda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqi hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlatni barpo etish, fuqarolar jamiyatini shakllantirish siyosatimizning oliy maqsadidir". Demak, bunday davlatni vujudga keltirish uchun butun aholini huquqiy ongini yanada yuksaltirish, huquqiy madaniyatni har tomonlama rivojlantirish, huquqiy faollikni oshirish lozim. Zero, demokratiyaning eng muhim tamoyillaridan biri qonuniy-huquqiy zamin yaratilishidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, huquqni o'rganish, uning turli sohalarini chuqur tahlil eta bilish va huquqiy xulosa chiqara olish bugunning muhim vazifalaridan biridir. Huquqshunoslik fanini o'rganish bu vazifani ado etishda talaba-yoshlarga yaqindan yordam beradi degan umiddamiz.

1 -MAVZU. DAVLATNING KELIB CHIQISHI MOHIYATI, BELGILARI, SHAKLLARI.

Reja:

1. Davlat va huquq fanining predmeti va vazifalari.
2. Fuqarolik jamiyati va davlat tushunchasi.
3. Davlatning kelib shiqishi, unga doir nazariyalar.
4. Davlatning belgilari, shakllari va funksiyalari.
5. Huquqiy davlat tushunchasi.

Tayanch iboralar;

Davlat, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, davlatning belgilari, davlatning shakllari, davlatning funksiyalari, davlat mexanizmi, davlatning kelib chiqishiga oid nazariyalar.

Davlat va huquq nazariyasining predmeti va metodlari. Davlat va huquq nazariyasi – davlat va huquqqa tegishli bilimlar tizimidir. Uning predmeti davlat va huquqqa tegishli hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi va o'zgarishi to'g'risidagi qonuniyatlarni o'rganishdir. Davlat va huquq nazariyasining ob'yektini o'rganish ibtidoiy jamoa tuzumining inqirozga yuz tutishi jarayonlarini tahlil etish hamda davlat va huquq to'g'risidagi hodisalarning vujudga kelishidan boshlanadi, so'ngra davlat va huquq asosida yotuvchi mukammalroq munosabatlar o'rganiladi.

Davlat va huquq nazariyasining universal metodlari – bu tarixiylik va mantiqiylik prinsiplaridir. Ushbu prinsiplarning uyg'unlikda amalga oshirilishi davlat va huquqqa oid hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi va o'zgarishiga doir jarayonlarni asl holda aks ettirishni talab qiladi.

Davlat va huquq nazariyasining xususiy ilmiy metodlari:

- 1) Sotsiologik usul – so'rovnoma, kuzatishlar olib borish orqali hodisa va jarayon o'rganiladi.
- 2) Statistik usul – statistik(hisob-kitob) ma'lumot asosida o'rganiladi.
- 3) Kibernetik usul – matematik-modellashtirish, algoritmlar, kompyuterdan foydalanib o'rganiladi.
- 4) Qiyosiy-huquqiy usul-qiyoslash, solishtirish orqali o'rganiladi.
- 5) Rasmiy-yuridik usul-yuridik tushunchalarga ta'rif va tasnif beriladi, sharhlanadi.

Fuqarolik jamiyati va davlat tushunchasi. Fuqarolik jamiyati – haqiqiy fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir. Fuqarolik jamiyati nafaqat davlatning majburlov kuchi bilan, balki uning a'zolari bo'lmish fuqarolarning o'zlari orqali saqlab turiladigan va qat'iy tartib qaror topgan jamiyatdir. Bunday jamiyat o'zini o'zi yuksak darajada tashkil etishi bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyatiga davlatning kuchli ta'siri talab etilmaydi. Davlat bunday jamiyatning nazoratida bo'lishi kerak, chunki davlat – fuqarolik jamiyatning “yollanma xizmatkori”. Zero, u fuqarolar, korxona va muassasalardan

olinadigan soliqlar hisobiga mavjud bo`ladi. Mazkur jamiyat nafaqat o`zining siyosiy, madaniy hayotini, balki iqtisodiy, ijtimoiy hayotini ham boshqarib turadi. Hamma jamiyatni ham fuqarolik jamiyati deb bo`lmaydi. Fuqarolik jamiyati ancha yuksak darajadagi ijtimoiy rivojlanish ko`rsatkichidir.

I.A.Karimov ta`biri bilan aytganda, davlat boshqa narsa, fuqarolar jamiyati boshqa narsa. Bunday jamiyatda davlat tashkilotlaridan ko`ra jamoat tashkilotlarining qadri balandroq turadi. Bizning asosiy maqsadimiz – bir kishi yoki jamoat tashkilotlarining fikri davlat tuzilmalarining fikridan ustunroq bo`ladigan fuqarolar jamiyati qurishdan iborat.(Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`lidan. T. 4.Toshkent, 1996, 90- bet.)

Ma`lumki, davlat, huquq va jamiyat bir- biriga bog`liq tushunchalardir. Bularning ichida jamiyat eng keng ma`noga ega tushuncha. Davlat hokimiyatning ichida mavjud bo`lib huquqni keltirib chiqaradi. O`z o`rnida huquq ham davlatni shakllantiradi va yo`naltiradi. Davlat va huquq ta`siri bilan jamiyat o`zgaradi. Huquq davlat uchun ham jamiyat uchun ham muhim bo`lgani holda hamma uchun majburiy hisoblanadi.

Jamiyat va davlat o`zaro aloqador, ammo teng ahamiyatga ega emas. Mohiyati jihatidan ular aynan bir narsa emas. Mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar qanchalik mukammal bo`lsa, jamiyat va davlatning funksiyalari shunchalik aniq ajralib turadi. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat uyg`unlashgan munosabatga ega. Jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga oid ko`plab muammolarni davlatning yordamisiz hal qiladi. Huquqiy davlat jamiyatning o`zi eplaydigan masalalarda fuqarolik jamiyatiga vasiylik qilish ehtiyojiga ega emas. Demak, fuqarolik jamiyati o`zini o`zi boshqaradi va huquqiy davlat siyosatiga, undagi huquqiy tizimga hal qiluvchi ta`sir o`tkaza oladi. “Demokratik jamiyat- deydi I.Karimov –bu, eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni – shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni uyg`unlashtirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi”.

Fuqarolik jamiyati qurilishi – bu faqat siyosiy tizimni demokratlashtirish emas, balki iqtisodda huquqiy prinsiplarni tiklash, xo`jalik faoliyatini demokratik asoslarda tubdan qayta qurish hamdir.

Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo`lib, u insonning o`z-o`zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi.

Davlatning kelib chiqishi va shunga doir nazariyalar. Davlat birdaniga yuzaga kelmadi, balki asta-sekin, vujudga kelayotgan sinflar o`rtasidagi ziddiyatlar kuchayishi davomida paydo bo`ldi. Insoniyat davlat paydo bo`lguniga qadar o`z taraqqiyotida uzoq yo`lni bosib o`tgan. Davlat ham, huquq ham bo`lmagan ibtidoiy jamiyat bir-biridan asosan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi bilan farq qiladigan yovvoyillik, varvarlik va sivilizatsiya kabi uch bosqichni o`tgan. Davlat hali urug`chilik tizimi ishidayoq shakllangan boshqaruv organlarini qisman o`zgartirib qisman yangi organlarni joriy etgan holda siqib chiqarib yuzaga keladi va nihoyat, ularni haqiqiy davlat hokimiyati bilan almashtiradi. Mehnat qurollarining rivojlanishi va takomillashishi, yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti mehnat unumdorligi oshib, ortiqcha mahsulot hosil bo`lgan, bu esa xususiy mulkshillikka va jamiyatning mulkiy jihatdan qatlamlarga ajralishiga olib kelgan. Shu tariqa, asosiy mashg`uloti xususiy mulkchilik munosabatlarini va mulkdorlar manfaatini muhofaza qilishdan iborat bo`lgan maxsus guruhlar vujudga kelgan . Ibtidoiy jamiyatda oqsoqollar, urug` va qabila boshliqlari hamda diniy hokimiyat sohiblariga tegishli bo`lgan ijtimoiy hokimiyat asta-sekin davlat hokimiyatiga aylangan. Agar davlat paydo bo`lgunicha mavjud bo`lgan jamiyatda ijtimoiy hokimiyatni saqlashning asosiy vositasi oliy ruhoniylarning shaxsiy obro`si bo`lsa, davlat hokimiyatining mohiyatini majburlash tashkil eta boshlagan. Insonning jamiyatdagi mavqei o`zgargan. Oldin uning mavqei alohida shaxsning oilaga, uruqqa yoki qabilaga mansubligi bilan belgilansa, endilikda uning mavqei mulkiy holatiga va davlat hokimiyati egalariga shaxsiy yaqinligiga qarab belgilangan. Davlatning paydo bo`lishi turli xalqlarda turlicha yuz berdi. U o`zining shakllanishi va rivojlanishida uzoq va murakkab yo`lni bosib o`tgan. Eng avvalo

majburlashga asoslangan davlat dastlabki bosqichlarida yetarlicha rivojlanmagan siyosiy hosila bo'lgan.

Davlatning kelib chiqishi to'g'risida quyidagicha nazariyalar mavjud:

1) Teologik nazariya – davlatni xudo yaratgan degan g'oyani ilgari suradi, teokratik davlat tarafdorlari fikrini aks ettiradi.

2) Patriarxal nazariya – davlat kattalashib ketgan oiladan kelib chiqqan deb hisoblaydi. Nazariya dastlab Yunonistonda paydo bo'lgan va Aristotel asarlarida asoslab berilgan. XVII asrga kelib ingliz olimi Fil'merning "Patriarx" asarida rivojlantirilgan.

3) Shartnoma nazariyasi – XVII- XVIII asrlarda tarqalgan bo'lib, unga ko'ra davlat-o'zaro kelishuv asosida va ongli tarzda birlashgan kishilar tashkiloti bo'lib, ana shu shartnoma asosida ular o'zlarining erkinliklari va hokimiyatning bir qismini davlatga beradilar. Nazariyani Grotsiy, Spinoza, Lokk, Gobbs, Russo, Radishshev rivojlantirgan.

4) Zo'rlik nazariyasi – davlatning kelib chiqishi zo'rlikka asoslanadi, bir xalqning boshqa xalqni bosib olishi bilan davlat tashkil topgan deb tushuntiriladi. Uning asoschilari – Gumplovish, Kautskiy.

5) Irrigatsiya nazariyasi – Qadimgi Sharqda yirik irrigatsiya inshootlari qurilishi jarayonida davlat paydo bo'lgan deb tushuntiradi. Nemis olimi Vittfogelning "Sharq istibdodi" asarida bayon etilgan.

6) Sinfylik nazariyasi – davlat jamiyatning qarama-qarshi iqtisodiy manfaatlarga ega sinflarga ajralishi tufayli kelib chiqqan deb tushuntiradi. Asoschilari – K.Marks, F.Engels, V.I.Lenin.

Davlat va uning belgilari, shakllari. Davlatning mohiyatini tushunishda uch asosiy nazariy yondashuv mavjud: 1) Ijtimoiy yondashuv; 2) Sinfy yondashuv; 3) Siyosiy-huquqiy yondashuv. Demak, davlat-umumiy muammolar va ishlarni hal etish vositasi, u hukmdorlar va xalqning o'zaro munosabatini tartibga soladi – ijtimoiy yondashuv. Davlat sinflarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan, sinfy kurash bir sinfning boshqasini bostirish quroli bo'lib xizmat

qiladi – sinfiy yondashuv. Davlat jamiyatning va davlatning o'zining hayotini tashkil etuvchi huquq manbaidir – siyosiy-huquqiy yondashuv.

Davlat butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan yagona siyosiy tashkilotdir.

Davlat-jamiyat siyosiy tizimining odamlar, guruhlar, sinf, tashkilot, hamkorlikdagi faoliyatini va o'zaro munosabatini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va nazorat qiluvchi asosiy institutdir.

Davlat-hokimiyatning bosh institutidir. Hokimiyat davlat orqali o'z siyosatini amalga oshiradi.

Davlatning asosiy belgilari:

1. Davlat hokimiyatining, ya'ni hokimiyat va boshqaruv apparatining, majburlash apparatining mavjudligi.

2. Aholining hududlar bo'yicha uyushganligi. Ma'muriy-hududiy birliklarda yashash.

3. Suverenitet-ishki va tashqi siyosatda to'la mustaqil bo'lish.

4. Huquqiy ijodkorlik. Bu ijtimoiy tuzumning mohiyatidan kelib chiqadigan va davlat tomonidan mustahkamlangan, ijro etilishi umumiy majburiy bo'lgan normalar, hulq-atvor qoidalari.

5. Soliqlarning mavjudligi. Aholidan davlat apparatini saqlash hamda aholining kam ta'minlangan qismiga yordam berishga sarflanadigan soliqlarni to'plash.

6. Umuminsoniy funksiyalarni bajarish. Hududni qo'riqlash, jinoyatshilikka qarshi kurash, umumiy farovonlik maqsadlarini amalga oshirish.

Davlatning asosiy funksiyalari:

1) Ichki funksiyalar-davlat ichki hayotini boshqarishga qaratilgan faoliyatning asosiy yo'nalishlari:

a) regulativ (tartibga solish, boshqarish);

b) qo'riqlash (saqlash, muhofaza qilish).

2) Tashqi funksiyalar – davlatning xalqaro maydondagi faoliyatining asosiy yo`nalishlari;

- a) Xalqaro hamkorlik-tashqi siyosiy faoliyat, tashqi iqtisodiy faoliyat;
- b) Mudofaa va xavfsizlik.

Davlatning shakllari:

I. Boshqaruv shakli: monarxiya va respublika. Monarxiya mutlaq va cheklangan shakllarda bo`ladi (absolyut va konstitutsion). Respublika prezidentlik va parlamentar respublika ko`rinishida bo`ladi. Masalan, Saudiya Arabistoni (mutlaq monarxiya) Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Shvetsiya (cheklangan monarxiya, konstitutsion). AQSH, O`zbekiston Respublikasi (Prezidentlik) Avstriya, Italiya, Germaniya (Parlamentar).

II. Davlat tuzumi shakli:

- unitar; oddiy, yaxlit davlat.
- federativ, murakkab, ittifoqdosh davlat.
- konfederativ; ma`lum bir maqsad yo`lida birlashgan davlatlar ittifoqi.

Masalan, AQSH, GFR, RF, Braziliya, Hindiston davlatlari – federativdir.

Shveysariya (1848 yilgacha), Evropa Ittifoqi – konfederativ.

O`zbekiston – unitar davlat.

III. Siyosiy rejimga ko`ra davlat shakllari.

- Demokratik (vakillik demokratiyasi, bevosita demokratiya).
- Antidemokratik (fashistik, totalitar).

Davlat mexanizmi. Jamiyatni boshqarish va xalq manfaatlarini himoya qilishni amalga oshiradigan davlat idoralari va muassasalari tizimi. Davlat idorasi (organi) – davlat mexanizmining qonunga muvofiq ravishda o`z tuzilishiga, ijtimoiy hayotning muayyan sohasini boshqarish bo`yisha aniq belgilangan vakolatiga ega bo`lgan hamda davlat mexanizmining boshqa qismlari bilan uzviy aloqadorlikda bo`lgan va yaxlit birlik hosil qiladigan tarkibiy qismidir.

Davlat idoralari 3 turga bo`linadi.

1. Vakillik idoralari:

- a) Qonun shiqaruvchi;

b) Mahalliy hokimiyat va o'zini o'zi boshqarish idoralari.

2. Ijroiya idoralari:

a) Markaziy idoralar;

b) Davlat boshlig'i (monarx, prezident);

v) Hukumat;

g) Vazirlik va davlat qo'mitalari;

d) Mahalliy idoralar.

3. Sud, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va konstitutsiyaviy nazorat idoralari:

a) sudlar;

b) prokuratura;

v) ichki ishlar vazirligi va uning organlari;

g) adliya vazirligi;

d) milliy xavfsizlik xizmati

Huquqiy davlat va uning belgilari. Huquqiy davlat – huquqning hukmronligi, qonunning ustuvorligi, barchaning qonun va mustaqil sud oldida tengligi ta'minlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanadigan, hokimiyat vakolatlarining bo'linish prinsipi asosida tashkil etilgan demokratik davlat. Huquqiy davlat g'oyalarining ildizi juda chuqur. Uning boshida xalq hokimiyati tashkil etilishining nazariy asoslarini ko'rgan Salon, Aristotel, Sitseron turgan edi. XVII asrning mutafakkiri D. Lokk huquqning hukmronligi qonun hukmronlik qiladigan davlat ko'rinishida tasavvur qildi. Huquqiy davlat nazariyasining falsafiy asosini I.Kant ifodalab berdi. "Davlat- bu huquqiy qonunlarga bo'ysundirilgan juda ko'p odamlarning birlashuvidir" (I.Kant.Asarlar, 4-tom,233-bet). Huquqiy davlat g'oyasining mohiyati-ijtimoiy va siyosiy hayotda huquqning ustun bo'lishidadir. Huquqiy davlat belgilari:

1) Huquqning hukmronligi;

2) Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi;

3) Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, ularni himoya qilish, ta'minlash;

- 4) Davlat va fuqaroning o`zaro mas`uliyati;
- 5) Hokimiyat vakolatlarining bo`linishi;
- 6) Sudning mustaqilligi;
- 7) Huquqni muhofaza qilish organlarining samarali ishlashi;
- 8) Huquqiy madaniyatning yuqori ekanligi;
- 9) Demokratiyaning rivojlanishi va takomillashuvi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar.

1. Fuqarolik jamiyatining mohiyatini tushuntirib bering
2. Davlat va huquq asoslari fanining predmeti va vazifalarini aytib bering
3. Fuqarolik jamiyati va davlat tushunchalarining o`zaro aloqadorligini izohlang
4. Davlatning mohiyati nimada?
5. Davlatning kelib chiqishiga oid nazariyalarni tushuntirib bering
6. Davlatning belgilarini ko`rsating?
7. Davlatning shakllarini sharhlang
8. Davlat mexanizmi nima?
9. Huquqiy davlat tushunchasini izohlang
10. Huquqiy davlat belgilarini ayting

Adabiyotlar.

- Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3.Toshkent,1996. 6- 363-betlar.
- Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`lidan. T.4.Toshkent, 1996. 80-bet.
- Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.Toshkent,1997. 173 bet
- Davlat va huquq asoslari. Toshkent, 1995yil.
- Saidov A, Tadjixanov U. Davlat va huquq asoslari. Toshkent, 1999 yil
- Huquqshunoslik. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2002 yil

2- MAVZU. HUQUQNING PAYDO BO`LISHI, MOHIYATI BELGILARI, TIZIMI VA MANBALARI.

Reja:

1. Huquqning belgilari, vazifalari.
2. Huquqning kelib chiqishiga doir nazariyalar.
3. Huquq va axloq. Huquq normalari, tizimi.
4. Huquq manbalari.
5. Huquqbuzarlik, belgilari, turlari.

Tayanch iboralar;

Huquq, huquq va axloq, huquqqa amal qilish, huquqiy munosabatlar, huquqiy normalar, huquq tizimi, huquq manbasi, huquqbuzarlik.

Huquq, uning belgilari va vazifalari. Huquq – butun jamiyatning umummajburiy xulq-atvor qoidalari tizimida ifodalangan irodasidir. Huquq atamasi bir tomondan ijtimoiy mazmunga, ikkinchi tomondan yuridik mazmunga egadir. Shaxsning xulq-atvori axloq, urf-odatlar, an`analar nuqtai nazaridan asoslangan hollarda umumijtimoiy ma`nodagi huquq to`g`risida so`z boradi. Huquq to`g`risida yuridik hodisa sifatida so`z borganda erkinlik, shuningdek xulq-atvor majburiyati davlat hokimiyatining kuchi bilan mustahkamlanishi, normativ ahamiyatga ega bo`lishi, qonunlar, boshqa davlat-hokimiyat hujjatlari bilan mustahkamlanishi nazarda tutiladi.

Yuridik tushuncha sifatida huquq ob`yektiv va sub`yektiv huquqlarga bo`linadi. Ob`yektiv huquq-umummajburiy xulq-atvor qoidalarining yig`indisi. Sub`yektiv huquq-muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli bo`lgan huquq.

Huquq normalari yuridik kuchga ega bo`ladi, doimo tegishli normativ aktda mujassamlashadi va umummajburiy xulq-atvor qoidalari hisoblanadi. Lekin bu o`xshashlik tashqi tomondan, ya`ni hodisalar yuzasida qalqib turgan va ko`zga tashlanadigan holatlardir. Ularning bir butun birlashtiruvchi ichki bog`liqligi davlatning huquq normalari tizimida taqdim etilgan va ifodalangan butun

jamiyatning irodasi hisoblanadi. Bu iroda huquqning mohiyatini tashkil etadi. Demak, davlat irodasi huquqning mohiyatini tashkil etadi va hodisalar yuzasida yuridik normalar tizimi ko`rinishida taqdim etiladi.

Huquq davlat bilan chambarshas bog`langan. Davlatsiz huquq bo`lishi mumkin emas, chunki aynan davlat huquqni keltirib chiqaradi va huquqiy normalarning amalga oshirilishini kafolatlaydi, huquqni muhofaza qiladi. Davlat ham huquqsiz mavjud bo`lishi mumkin emas.

Huquqning asosiy belgilari:

- 1) barcha uchun majburligi;
- 2) huquq normalarining qonunlar va boshqa manbalarda ifodalanishi;
- 3) sub`yektiv huquqlar orqali harakat qilish;
- 4) davlat tomonidan ta`minlanganligi.

Huquqning asosiy funksiyalari:

1) tartibga solish funksiyasi – amaldagi ijtimoiy aloqalar va tartibni mustahkamlash orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va u yoki bu sub`yektning faol xulqini ta`minlash.

2) muhofaza qilish funksiyasi – huquqiy himoya va yuridik javobgarlik choralarini belgilash, shaxslarning zimmasiga mas`uliyat yuklash tartibini o`rnatish.

Huquqning kelib chiqishiga doir nazariyalar.

1. Tabiiy huquq nazariyasi – huquq tabiatan mavjud, uni hech kim o`ylab topmagan, u xuddi insonning o`zi kabi tabiiydir deb hisoblaydi. Tabiiy huquq – davlatning huquq ijodkorligi intilishi zarur bo`lgan o`ziga xos ideal.

2. Huquqning tarixiy nazariyasi – huquq tarixan paydo bo`lgan va rivojlanadi deb hisoblaydi. Huquq tabiatdan kelib chiqmaydi. U yoki bu xalqning tarixiy hayoti huquqni qanday ko`rinishga keltirsa, u shunday bo`lib qoladi.

3. Huquqning psixologik nazariyasi – huquqning kelib chiqishi va rivojlanishini shaxs yoki shaxslar guruhining psixologiyasi bilan izohlaydi. Bunda, huquq psixologik yo`nalishlar, turli kechinmalar, hissiyotlar va institutlarning mahsuli, deb qaraladi.

4. Huquqning ijtimoiy nazariyasi-huquqning kelib chiqishini jamiyatda turli xil ijtimoiy qatlamlarning shakllanishi bilan bog'laydi.

5. Huquqning sinfiylik nazariyasi – huquqning kelib chiqishini jamiyatdagi hukmron sinf irodasining qonun darajasiga ko'tarilishi bilan izohlaydi. Bu iroda mazkur sinf hayotining moddiy sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Ijtimoiy normalar tizimida huquqning o'rni.

Jamiyatda normalarning ikki tizimi mavjud: 1) texnikaviy; 2) ijtimoiy.

Texnikaviy normalar “ inson-mashina” munosabatlarini tartibga soladi. Ijtimoiy normalar-odamlar va ularning birlashmalari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy xulq-atvor qoidalari bo'lib, ular “ inson-inson” munosabatlarini tartibga soladi.

Axloq normalari – ezgulik va yovuzlik, qadr-qimmat, adolat va nohaqlik haqidagi axloqiy tushunchalarga mos ravishda jamiyatda o'rnatilgan xulq-atvor qoidalaridir.

Jamoat birlashmalari normalari – jamoat birlashmalarining o'z faoliyatini tartibga solish uchun va tashkilotlarning a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun o'rnatgan xulq-atvor qoidalaridir.

Odat normalari – kishilarning ko'p marta takrorlanganligi uchun odatga aylangan va shu tariqa avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xulq-atvor qoidalaridir. An'ana normalari-ilg'or an'analarni asrash munosabati bilan yuzaga kelgan umumlashgan va barqaror xulq-atvor qoidasi.

Marosim normalari – kishilarning ma'lum rasm-rusmlarni bajarishdagi xulq-atvor qoidalaridir. Diniy normalar. Siyosiy normalar – alohida shaxslar va siyosiy birlashmalarining hokimiyatga munosabati masalalarini tartibga soluvchi xulq-atvor qoidalari. Huquq normalari-umummajburiy xulq-atvor qoidalari.

Axloq va huquq. Axloq-kishining jamiyatdagi xulqini normativ tartibga soluvchi usullardan biridir. Axloq-ijtimoiy ong shakllaridan biri, shu bois butun ijtimoiy ong singari uning ham tuzilishi bir xil emas. Axloqning alohida xususiyati shundan iboratki, axloq normalariga amal qilish jamoatshilik fikri orqali ta'minlanadi. Huquq – ma'lum yuridik shakllar, ya'ni manbalarda-qonun, farmon,

qaror va huquqda namoyon bo'luvchi ijtimoiy xulq-atvor qoidalarining qat'iy ifodalangan tizimidir. Axloq yozilmagan xulq-atvor qoidalari majmuidan, huquq normalari yozilgan xulq-atvor qoidalari yig'indisidan iborat. Axloq va huquq o'rtasidagi asosiy farq:

- 1) Huquq normalari davlat tomonidan belgilangan va ruxsat etilgan bo'ladi, axloq normalari esa davlatning yordamisiz o'z-o'zidan shakllanadi;
- 2) Huquq normalarida davlat irodasi, axloq normalarida esa jamoatchilik fikri ifodalanadi;
- 3) Huquq normalari davlatning majburlov kuchi bilan, axloq normalari esa jamoatshilik fikri orqali amalga oshiriladi;
- 4) Axloq normalari keng doirani, huquq normalari esa tor doirani qamrab oladi.
- 5) Huquqda xulq-atvorni baholash mezoni “ qonuniy-noqonuniy”, axloqda “halol-nohalol” deb qabul qilingan.
- 6) Huquq normalari aniq ko'rinishga ega.

Huquq normalarining tuzilishi. Huquq normasi –davlat tomonidan belgilanadigan, kafolatlanadigan va bu muhofaza qilinadigan barcha uchun majburiy xulq-atvor qoidalaridir. Huquq normasi tuzilishiga ko'ra ush tarkibiy qismdan tashkil topgan.

1. Gipoteza – huquq normasining tarkibiy qismi bo'lib, unda norma amal qila boshlaydigan, ijro etiladigan sharoitlar bayon etiladi. Masalan, sudning fuqarolik ishlari bo'yicha arizalarni qabul qilishni rad etishga asos bo'luvchi gipotezali huquq normalari: da'vogarning bahslarni qonunda belgilangan tartiblarga rioya etib, dastlab suddan tashqari hal etishi, ishning ushbu sudga dahldor emasligi, layoqatsiz shaxs tomonidan ariza berilishi.

2. Dispozisiya – huquq sub'yektining yuridik muhim ahamiyatga ega bo'lgan hatti-harakati mazmunini ochib beradigan huquq normasining tarkibiy qismi. Agar gipoteza hokimiyat ko'rsatmasini qo'llashga farmon bersa, dispozisiya o'zida yuridik normalarning asosini aks ettiradi.

3. Sanksiya – huquq normasini bajarmaganlik uchun davlat organlari qoʻllaydigan majburlov chorasi. Uning turlari: hayfsan, jarima, ozodlikdan mahrum etish. Huquq normasi quyidagilarni belgilab beradi: 1) kim, nimani va qashon qilishi kerak-dispozisiya; 2) bu harakatni qaysi sharoitlarda amalga oshirish kerak-gipoteza; 3) huquq normasi bajarilmasligining oqibatlari qanday – sanksiya.

Huquq manbai va uning turlari. Huquqni obʼyektiv ifodalash usullariga huquq manbai deyiladi. Huquq manbalarini 4ga boʻlish mumkin:

1) Huquqiy odat-uzoq davr mobaynida amalda boʻlishi natijasida shakllangan va davlat tomonidan umummajburiy deb tan olingan yurish-turish qoidasi;

2) Yuridik presedent-bu sud yoki maʼmuriy organning yozma yoki ogʻzaki qarori, kelgusida barcha shunga oʻxshash ishlarni koʻrib chiqish va hal qilishga asos boʻladigan namuna, etalon, norma sifatida qabul qilinadi;

3) Normativ huquqiy hujjat – davlat vakolatli organlari tomonidan oʻrnatiladigan yoki maʼqullanadigan huquqiy hujjat;

4) Normativ shartnoma-ikki yoki undan ortiq subʼyektlar oʻrtasida tuziladigan, ularning huquq va majburiyatlarni oʻrnatadigan, oʻzgartiradigan yoki qiladigan bitim.

Huquqiy odat va yuridik presedent bir qator xorijiy mamlakatlarning huquq tizimida katta ahamiyatga ega, lekin Oʻzbekistonning huquq tizimida qoʻllanilmaydi. Sud presedenti Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Avstriyada huquq manbai hisoblanadi. Bu mamlakatlarda sud hisobotlari chop etiladi.

Huquq tizimi, tarmoqlari va institutlari. Huquq tizimi –turli-tuman, lekin oʻzaro mustahkam aloqada boʻlgan yuridik normalar yigʻindisidir. Huquq tarmogʻi – ijtimoiy munosabatlar sohasini tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuidan iborat huquq tizimining yirik tarkibiy qismidir.

Barcha tarmoqlari oʻzining xususiyati boʻyicha ikki turga tasniflanadi: 1) moddiy huquq tarmogʻi (maʼmuriy, mehnat, fuqarolik, ekologik va h.k); 2) prosessual huquq tarmogʻi. Unga davlat organlari, mansabdor shaxslar tomonidan qoʻllanadigan moddiy huquq normalaridan iborat qoidalar kiradi. Masalan: fuqarolik-prosessual, jinoyat-prosessual, xoʻjalik-prosessual.

Huquq instituti-tegishli huquq tarmog`iga kiruvchi jamiyat umummajburiy irodasining o`ziga xos tarzda yuridik normalarda aks etishi.

Huquq instituti quyidagicha turlarga tasniflanadi:

- 1) Huquqni muhofaza qiluvchi;
- 2) Funksional (vazifaga ko`ra);
- 3) Umumiy .

Huquqni muhofaza qilish institutlari qonuniylik, huquq-tartibot, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta`minlashga qaratilgan yuridik normalardan iborat. Masalan, mehnat huquqidagi moddiy javobgarlik. Funksional institutlar huquqiy tasnifga ega bo`lgan tartiblar, qoidalarga oid masalalarni hal etishni tartibga soluvchi huquq normalarini o`z ichiga oladi. Masalan, fuqarolik prosessual kodeksining da`volarga oid ishlarni yuritish instituti, huquqning umumiy institutlari prinsiplari, umumiy qoidalarni mustahkamlovchi huquq normalaridan tashkil topgan. Masalan, fuqarolik kodeksining “Umumiy qoidalar” bo`limi.

O`zbekiston huquq tizimi huquqning quyidagi asosiy tarmoqlarini o`z ichiga oladi:

- 1) konstitusiyaviy huquq ;
- 2) ma`muriy huquq ;
- 3) fuqarolik huquqi ;
- 4) jinoyat huquqi;
- 5) yer huquqi;
- 6) agrar huquq;
- 7) mehnat huquqi;
- 8) ijtimoiy ta`minot huquqi;
- 9) ekologik huquq;
- 10)moliyaviy huquq;
- 11)fuqarolik-prosessual huquq;
- 12)jinoyat-prosessual huquq;
- 13)ho`jalik-prosessual huquq;
- 14)xalqaro huquq.

Normativ huquqiy hujjatlarning turlari. Normativ-huquqiy hujjatlarning Davlatning qaysi organlari tomonidan qabul qilinganligiga hamda ularning yuridik kushiga qarab ajratiladi.

1.Qonun– umumxalq ovoz berishi orqali yoki mamlakatning oliy vakillik organi tomonidan qabul qilingan normativ huquqiy hujjat. Konstitutsiya-oliy yuridik kuchga egadir.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.– Konstitutsiyaning 94-moddasiga asosan Prezident tomonidan chiqariladigan normativ – huquqiy hujjat.

3.Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari.-O'zbekiston Respublikasi ijro etuvchi hokimiyatining oliy organi o'z vakolati doirasida chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlardir.

4.O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining buyruq va yo'riqnomalari – davlat boshqaruvi organlarining normativ-huquqiy hujjatlari.

5.Qoraqalpog'iston Respublikasining normativ huquqiy hujjatlari.

6.Davlat hokimiyati mahalliy ijroiya organlarining qarorlari.

Quyi organlar qabul qilgan qarorlari yuqori organlar qabul qilgan qarorlarga muvofiq kelishi kerak.

Huquqiy munosabatlar va ularning tuzilishi. Huquq ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan va huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatga huquqiy munosabatlar deyiladi.

Huquqiy munosabatlar 3ta elementdan tashkil topadi: ob'yekt, sub'yekt va mazmun.

Ob'yekt-huquqiy munosabat ishtirokchilarining sub'yektiv huquq va majburiyatlari.

Sub'yekt-huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari, ya'ni huquq va majburiyat egalari.

Mazmun-sub'yektlarning o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish bo'yicha huquqiy harakatlari.

Huquqiy munosabatlar sub'yektlari:1) jismoniy shaxslar; 2)yuridik shaxslar.

Jismoniy shaxslar-ushbu davlat fuqarolari, boshqa davlat fuqarolari, fuqaroligi yo`q shaxslar (apatridlar). Yuridik-shaxslar tashkilotlar, muassasalar, davlat organlari, davlat, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari.

Huquqiy layoqat-huquqlarga ega bo`la olish va yuridik majburiyatlarni zimmaga olish qobiliyatidir. Muomala layoqati-o`z harakatlari asosida huquqlarni amalga oshirish va yuridik majburiyatlarni bajarish qobiliyatidir.

Huquqbuzarlik, uning belgilari va turlari. Huquqbuzarlik – jamiyat uchun xavfli bo`lgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik). Bunday qilmish qonun bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar etkazishi yoki zarar etkazish xavfini tug`dirishi mumkin. Huquqbuzarlikning asosiy belgilari:

1) Ijtimoiy xavflilik-huquqbuzarlik jamiyatning qadriyatlariga tajovuz qiladi, xususiy va ijtimoiy manfaatlarni poymol etadi, jamiyat hayotining maromiga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

2) Huquqqa ziddlik-huquqbuzar qonunda yoki huquq normasida belgilab qo`yilgan taqiqni buzadi.

3) Ayblik-huquq normasini yuridik javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo`lgan shaxs buzadi va shaxs bu harakatni qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etadi.

4) Jazolanish-ma`lum huquqbuzarlik uchun uni sodir etgan shaxsning vakolatli davlat organi tomonidan javobgarlikka tortilishi.

Huquqbuzarlik turlari:

- 1) Fuqarolik-huquqiy (majburiyatni bajarmaslik, moddiy zarar yetkazish);
- 2) Ma`muriy (mayda bezorlik) ;
- 3) Intizomiy (ishga kelmaslik, kech qolish);
- 4) Jinoiy (odam o`ldirish, o`g`irlik).

Mavzuni takrorlash uchun savollar.

1. Huquq tushunchasini izohlang
2. Huquqning belgilarini ko`rsatib bering

3. Huquqning vazifalari nimadan iborat?
4. Huquqning kelib chiqishi to'g'risida qanday nazariyalar mavjud?
5. Axloq va huquqning o'zaro munosabatini tushuntiring
6. Huquq normalariga nimalar kiradi?
7. Huquq tizimini izohlang
8. Huquq manbalariga nimalar kiradi?
9. Huquqiy munosabatlar nima?
10. Huquqbuzarlik tushunchasini sharhlang

Adabiyotlar:

- Saidov A., Tadjihanov U. Davlat va huquq asoslari. Toshkent, 1999 yil
- Saidov A., Tadjihanov U., Odilqoriev H. Davlat va huquq asoslari. Toshkent, 2002 yil
- Islomov Z., Mirhamidov M. Huquqshunoslik. Toshkent, 2002 yil
- Tadjihanov U., Odilqoriev H. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent, 2002 yil.

3- MAVZU: MA'MURIY HUQUQ ASOSLARI.

Reja:

1. Ma'muriy huquq tushunchasi.
2. Ma'muriy huquq tizimi va manbalari.
3. Ma'muriy huquqiy munosabatlar.
4. Ma'muriy huquqbuzarlik va ma'muriy jazo.

Tayanch iboralar;

Ma'muriy huquq, ma'muriy javobgarlik, ma'muriy huquq munosabatlari, ma'muriy huquq me'yorlari, ma'muriy huquqbuzarlik, ma'muriy jazo, davlat boshqaruv organlari.

Ma'muriy huquq tushunchasi. Ma'muriy huquq – bu davlat organlarining ijro etuvshi va farmoyish beruvchi faoliyatini tashkil etish hamda amalga

oshirishda paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuidir.

Har qanday boshqaruv jamiyatda yuzaga keladigan turli munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Jamiyatda mavjud bo'lgan boshqaruv ijtimoiy boshqaruv hisoblanib, davlat boshqaruvi uning asosiy turlaridan biri sanaladi. Jamiyatda davlat boshqaruvidan tashqari ham boshqaruv mavjud bo'lsada, ma'muriy huquq faqat davlat boshqaruvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Davlat boshqaruvi jamiyat a'zolarining birgalikdagi harakatlarning bir-biriga mosligini va intizomini ham ta'minlaydi. Davlat boshqaruvi davlat boshqaruv organlarining amaliy faoliyati kabi belgilash mumkin, u davlat faoliyati ko'rinishida namoyon bo'ladi, uning o'ziga xosligi davlat funksiyalarini amalga oshirishga oid kundalik amaliy ishlarni tashkil etishdan iboratdir.

Davlat boshqaruvi – bu tashkil etuvchi faoliyatdir. Turli darajadagi ijro etuvchi va boshqaruvchi faoliyat davomida xo'jalik yuritish, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy qurilish sohasidagi vazifalarni bajaruvchi kishilarning birgalikdagi faoliyati tashkil etiladi. Bu maqsadda davlat boshqaruv organlari boshqarish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni amalga oshiradilar, boshqariladigan tizimlarning faoliyat ko'rsatish bilan bog'liq umumiy masalalarni hal qiladilar, boshqarish munosabatlari qatnashchilarining faoliyatlarini birlashtiradilar va muvofiqlashtiradilar.

Davlat boshqaruvi jamiyat turmushining qandaydir alohida elementini emas, balki uning barcha sohasini qamrab oladi. Davlat boshqaruvi organlarining funksiyalari quyidagilar:

- istiqbolni belgilash;
- rejalashtirish;
- tashkil etish;
- tartibga solish;
- umumiy rahbarlik;
- tezkor (operativ) farmoyish berish;

- muvofiqlashtirish;
- kuzatuvlar va nazoratni amalga oshirish.

Ma'muriy huquq tizimi. U ma'muriy-huquqiy normalar va institutlardan tashkil topgan. Shu kungacha amalda bo'lgan ma'muriy huquq tizimiga muvofiq umumiy va maxsus qismlardan iborat.

Umumiy qism-bunda umumiy tushunchalar, ya'ni davlat boshqaruvi tushunchasi va tamoyillari, ma'muriy huquqning predmeti, tizimi, manbalari, uning huquq sohasida tutgan o'rnini, ma'muriy huquq sub'yektlari va ularning huquqiy maqomi o'rganiladi.

Maxsus qism-bunda har bir sohada tatbiq qilinadigan huquq normalari o'rganiladi. Ma'muriy huquqning maxsus 4 yo'nalishi bo'yicha o'rganiladi:

- 1) iqtisodiy soha;
- 2) ijtimoiy-madaniy soha;
- 3) ma'muriy-siyosiy faoliyat;
- 4) tarmoqlararo boshqaruvlar.

Ma'muriy huquq predmeti. Uni davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Ma'muriy huquq manbalari. O'zlarida ma'muriy huquq normalari bo'lgan davlat hokimiyat organlari va davlat boshqaruv organlarining huquqiy aktlari ma'muriy huquq manbalari hisoblanadi.

1. Davlat boshqaruv organlarining huquqiy maqomlarini va ularning faoliyatini tashkil etish asoslarini, fuqarolarning asosiy huquq va majburiyatlarini belgilovchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bosh manba hisoblanadi.

2. Ma'muriy-huquqiy me'yorlarni o'zida aks ettirgan qonunlar.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'muriy boshqarish predmetiga taalluqli farmonlari.

4. O'zbekiston Respublikasi hukumatining davlat boshqaruvi masalalariga doir qarorlari.

5. O'zbekiston Respublikasining qonunlar majmualari, ya'ni O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi, Soliq Kodeksi, Bojxona Kodeksi.

6. Vazirliklar va idoralarning buyruq va qarorlari.

7. Mahalliy boshqaruv organlarining farmoyish va qarorlari.

8. Davlat korhonalari, muassasalari va tashkilotlari mansabdor shaxslarning boshqaruv hujjatlari (buyruq, yozma va og'zaki ko'rinishdagi farmoyish).

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar, ma'muriy-huquqiy normalar.

Ma'muriy huquq normalari-bu qonunga tayangan davlat hokimiyati qoidalarini vositalari orqali belgilangan va ta'minlangan, davlat boshqaruvi sohasidagi munosabatlarni boshqarishga da'vat etilgan ijtimoiy tuzumning tabiatidan kelib chiqadi.

Ma'muriy huquq normalarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

1. Ushbu normalar ikkiyoqlama vazifaga ega. Bir tomondan ular ijro etish va amalda qo'llanish uchun chop etiladi; ikkinchi tomondan, huquqiy ijodkorlik jarayonining o'zini boshqarish va reglamentlash uchun nashr etiladi.

2. Ushbu normalar, odatda to'g'ridan-to'g'ri amal qilmaydi, ya'ni ular qat'iy tavsifdagi xulq-atvor umumiy qoidalaridan iborat bo'ladi.

3. Ushbu normalar eng avvalo ijroiya hokimiyati sub'yektlariga qaratilgan hatti-harakatlar qoidalarini o'zida aks ettiradi.

Ma'muriy-huquqiy normalarning turlari:

1. Maqsadli vazifasi bo'yicha: boshqaruvchi va muhofaza etuvchi normalar.

2. Ta'sir etish usuli bo'yicha: majburlovchi va ta'qiqlovchi normalar.

3. Amal qilishi chegaralari bo'yicha:

a) muayyan hududda amal qiluvchi normalar;

b) faqat muayyan shaxslar doirasi uchun majburiy normalar;

v) mahkamaning ichki normalari;

g) umummajburiy normalar .

4. Yuridik kuchi bo'yicha:

a) ko'proq yuridik kuchga ega bo'lgan normalar;

b) kamroq yuridik kuchga ega bo'lgan normalar.

5. Ahamiyatlilik darajasi bo'yicha: qonuniy va qonunga qo'shimcha normalar.

6. Umumlashtirilganlik darajasi bo'yicha: umumiy va maxsus normalar.

7. Huquqiy rejim bo'yicha: moddiy va prosessual normalar.

Ma'muriy huquq normalarining amalga oshirilish usullari:

1. Ijro.

2. Rioya etish.

3. Foydalanish.

4. Qo'llanish.

Ma'muriy huquqning asosiy tamoyillari:

1. Qonuniylik, adolat.

2. Davlat boshqaruvida fuqarolarning ishtiroki.

3. Fuqarolarning tengligi, erkinligi.

4. Davlat boshqaruvida sohaviylik va hududiylikni hisobga olish.

5. Vakolat doirasida javobgarlik.

6. Davlat boshqaruvida jamoaviylik.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlar-bu ma'muriy huquq normalariga asoslangan munosabatlardir. Ularning mazmuni sub'yektlarning huquq va majburiyatlari hisoblanadi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari:

1. Agar fuqarolardan biri ikkinchisiga nisbatan huquqli vakolatga ega bo'lmasa, ular o'rtasida ma'muriy munosabatlar vujudga kelishi mumkin emas. Bunda boshqa tomonning roziligi shart emas.

2. Tomonlar tengsizligi boshqaruv hamda birgalikdagi faoliyat ishtirokchilari irodasining yagona boshqarish irodasiga bo'ysunishini taqozo etadi.

3. Ma'muriy munosabatlarning paydo bo'lishi ushun tomonlardan birining irodasi kifoya qiladi.

4.O'z mohiyat-e'tibori bilan ma'muriy munosabatlar tashkiliy munosabatlardan iborat, ya'ni eng avvalo huquqni bajarish jarayonini tashkil etishga yo'naltirilgandir.

5.Fuqarolik-huquqiy, mehnat yoki oilaviy-huquqiy munosabatlardan farqli ravishda, ma'muriy-huquqiy munosabatlarda yuzaga kelgan nizolar, odatda, suddan tashqari tartibda hal etiladi.

6. Agar tomonlardan biri huquqiy munosabatlar bo'yicha ikkinchi tomonga zarar yetkazgan holda ma'muriy norma talabalarini buzsa, u boshqa tomon oldida emas, balki bevosita davlat oldida javob beradi.

Ma'muriy huquqda sub'yektlar 3ga bo'linadi;

1) Ma'muriy huquq sub'yekti:

- davlat boshqaruv organlari;
- davlat xizmatchilari;
- jamoat birlashmalari;
- fuqarolar.

2) Ma'muriy-huquqiy munosabatlar sub'yekti. Bu konkret munosabatning konkret ishtirokchisi hisoblanadi.

3) Boshqaruv sub'yekti.

Boshqaruv sub'yekti, ma'muriy huquq sub'yekti va ma'muriy-huquqiy munosabatlar sub'yekti tushunchalarini farqlash kerak. Ma'muriy huquq sub'yekti umumiy tarzda (fuqaro, davlat boshqaruv organi), huquqiy munosabatlar sub'yekti-aniq tarzda belgilanadi.

Boshqaruv sub'yekti ostida ma'muriy huquq normalari, boshqariladigan ob'yektlar faoliyatini tashkil etish vazifasini yuklaydigan organlar va mansabdor shaxslar tushuniladi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi, o'zgarishi, to'xtatilishi ko'pincha boshqaruvning huquqiy hujjatlari nashr etilishi bilan bog'liq bo'ladi. Biroq ular boshqariladigan ob'yektlar va fuqarolar tashabbusi (ariza, shikoyat, taklif) bilan ham paydo bo'lishi mumkin. Ma'muriy-huquqiy munosabatlar faqat

odamlarning hatti-harakati natijalari bilan emas, balki hodisalar natijasida ham(bola tug`ilishi bilan uni rasmiylashtirish) paydo bo`ladi.

Davlat boshqaruv organlari - bular qonun bilan belgilangan tartibda tashkil topgan va uning funksiyalari hamda vazifalarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan vakolat berilgan, bu maqsadda davlat-hokimiyat vakolati bilan ta`minlangan va belgilangan tartibda ish ko`ruvchi fuqarolar guruhidir.

Davlat boshqaruv organlari belgilangan tartibda tashkil topadi. Uning funksiyalari va vazifalarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan vakil qilingan. Bu bilan ular funksiyalarning bir qismini va umuman barcha funksiyalarni bajarishlari mumkin. Masalan, Vazirlar Mahkamasi barcha funksiyalarni, vazirliklar esa ayrim yoki bir guruh funksiyalarni bajaradi.

Boshqaruv organlarining eng muhim belgilari: ularda o`zlariga berilgan huquqlar doirasiga ma`lum masalalar yechish, boshqa davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi uchun majburiy bo`lgan normativ hujjatlar chiqarish, ularni ishontirish va majbur qilish yo`li bilan bajarilishini ta`minlash imkonini beradigan davlat-hokimiyat vakolatlarining borligidir: ular bilan belgilangan tartibda harakat qiladilar va yagona tizimni tashkil etadilar; ular ijtimoiy mohiyati, maqsad, vazifalar, funksiyalari jihatidan o`zaro aloqada va bir-biriga bog`langandir.

Davlat boshqaruvi organlari yagona tizimni tashkil etadilar. U Respublika miqyosida xo`jalikka, ijtimoiy-madaniy va ma`muriy-siyosiy qurilishga kundalik har tomonlama rahbarlik qilishni ta`minlash zarurligidan kelib chiqadi. Davlat boshqaruv organlari tuzilishi umumrespublika, markaziy va mahalliy organlarni qamrab oladi.

1. Umumrespublika organlari:

- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Uning tarkibi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. Vazirlar Mahkamasi o`z huquq doirasida O`zbekiston Respublikasini boshqarishga tegishli barsha masalalarni hal etishga vakolatlidir;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi. U Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan tuziladi. U o'z huquq doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasiga tegishli masalalarni hal etish uchun vakolatlidir.

2. Markaziy boshqaruv organlari:

- O'zbekiston Respublikasi vazirliklari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari;
- Davlat qo'mitalari.

3. Mahalliy boshqaruv organlari:

- Hokimlar;
- Joylarda xo'jalik, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy qurilishning ayrim tarmoqlarini boshqarish uchun hokimlar tomonidan tuziladigan hokimliklarning bo'limlari, boshqarmalari va xizmatlari.

Davlat boshqaruvining shakllari va usullari. Boshqaruv faoliyatining asosiy shakllari:

- davlat boshqaruvi hujjatlarini nashr etish;
- ma'muriy shartnomalar tuzish;
- fuqarolarning shikoyatlari, arizalari va takliflarini ko'rib chiqish va ularga javob qaytarish.

Davlat boshqaruvi usullari:

- kuzatish;
- nazorat qilish;
- ma'muriy va iqtisodiy boshqarish;
- umumiy rahbarlik qilish hamda bevosita boshqarish;
- rag'batlantirish;
- majbur qilish.

Ma'muriy javobgarlik va ma'muriy jazo. Ma'muriy javobgarlik-bu yuridik javobgarlikning bir turidir. Unga ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etishda (hatti-harakat qilgan) aybdor bo'lgan shaxslar tortiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik deganda qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va

erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayriqonuniy, aybli qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi (ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeks, 10-modda).

Ma'muriy huquqbuzarlikning eng muhim belgilaridan biri g'ayriqonuniylikdir. Bu g'ayriqonuniy harakat kabi g'ayriqonuniy harakatsiz bo'lishi mumkin. Masalan, ko'chadan o'tish qoidasining piyoda tomonidan buzilishi – g'ayriqonuniy harakatdir. Harbiy xizmatga chaqiriluvshi uzrli sabablarsiz mudofaa ishlari vazirligi organlariga kelmasa – bu g'ayriqonuniy harakatsizlikdir.

Ma'muriy huquqbuzarlik qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladi. Qasddan qilingan huquqbuzarlikka mayda bezorilik, ta'qiqlangan usul bilan ov qilish kiradi. Ehtiyotsizlik bilan sodir etilganlarga – yong'in xavfsizligi, mehnat muhofazasi qoidalarini buzishlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasida ma'muriy javobgarlik fuqarolarga nisbatan 16 yoshga to'lgandan boshlab kuchga kiradi (13-modda).

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarga voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar to'g'risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi. 16-yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun huquqbuzarning ota-onasi yoki vasiysi javobgarlikka tortiladi.

Harbiy xizmatchilar va IIV xodimlari ma'muriy huquqbuzarliklar uchun intizom ustaviga ko'ra javobgar bo'ladilar. Faqat yo'l harakati, ov qilish, baliq tutish, bojxona qoidalarini buzganlik uchun ular umumiy asoslarda javobgarlikka tortiladilar.

Qonun ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish asosini nazarda tutadi. Bunga:

- zaruriy mudofaa;
- oxirgi zarurat;
- aqli norasolik;
- zararli oqibatning arziemasligi (yoki umuman zarar etmagan bo'lsa). Kabi

holatlar kiradi.

Ma'muriy jazo ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik mezonini chorasini hisoblanadi. Ma'muriy jazo javobgarlikka tortish chorasini bo'lib, u ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Ma'muriy jazo turlari:

1. Jarima-ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdir. Uning miqdori eng kam oylik ish haqidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Eng kam miqdori eng kam ish haqining ellikdan bir qismidan, mansabdor shaxslarga esa, o'ndan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak. Eng ko'p miqdori eng kam ish haqining besh baravaridan, mansabdor shaxslarga esa, o'n baravaridan oshmasligi kerak.

2. Haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish –huquqbuzarlik quroli bo'lgan ashyoni majburiy ravishda olib qo'yishdan iborat bo'lgan ma'muriy jazo chorasini. Olib qo'yilgan ashyo sotilib, undan tushgan pul sotish uchun ketgan harajatlarni chegirib tashlagan holda egasiga qaytariladi.

3. Musodara qilish – ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli bo'lgan ashyoni majburiy tarzda pulini to'lamay davlat mulkiga aylantirishdan iborat. Ushbu jazo chorasini tuman (shaxar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan qo'llaniladi. Bunda faqat huquqbuzarning mulki bo'lgan ashyogina musodara qilinishi mumkin.

4. Maxsus huquqdan mahrum qilish (transport vositasini boshqarish huquqidan ov qilish huquqidan mahrum qilish) tuman (shaxar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan uch yilgacha muddatga qo'llaniladi va bu muddat 15 kundan kam bo'lishi mumkin emas.

5. Ma'muriy qamoqqa olish-jinoyatlarga yaqin huquqbuzarliklarga yoki takroriy qo'pol ma'muriy huquqbuzarliklarga nisbatan qo'llaniladi. Eng ko'p muddat – o'n besh sutkagacha, lekin favqulodda holat tartibi sharoitida jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun o'ttiz sutkagacha muddatga qo'llaniladi.

Ma'muriy qamoqqa olish tuman(shaxar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan tayinlanadi. Quyidagilarga nisbatan ma'muriy qamoq chorasini qo'llanilmaydi;

- a) homilador ayollarga;
- b) uch yoshgacha bolasi bo'lgan yoki bolasini 14 yoshgacha yolg'iz tarbiyalayotgan ayollarga;
- v) 18 yoshga to'lmagan shaxslarga;
- g) I va II guruh nogironlariga.

Mavzuni takrorlash uchun savollar:

1. Ma'muriy huquq tushunchasini izohlab bering.
2. Davlat boshqaruvi nima?
3. Ma'muriy huquq tizimini tushuntiring
4. Ma'muriy huquq predmetini ayting
5. Ma'muriy huquq manbalariga nimalar kiradi?
6. Ma'muriy huquq normalariga nimalar kiradi?
7. Ma'muriy-huquqiy munosabatlar deganda nimani tushunasiz
8. Ma'muriy huquqning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
9. Ma'muriy huquqning sub'yektlariga nimalar kiradi?
10. Davlat boshqaruvi organlari tushunchasini izohlab bering
11. Davlat boshqaruvi organlari tizimini tasniflab bering
12. Ma'muriy javobgarlik nima?
13. Ma'muriy jazo tushunchasi.
14. Ma'muriy jazo turlarini ko'rsating

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2003 yil
- O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi. Toshkent, 1999y

- O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga sharhlar. Toshkent, 1999 yil
- Huquqshunoslik. O'quv qo'llanmasi. Toshkent, 2002 yil.
- O.Husanov. Davlat organlari. Toshkent, 1996 yil

4- MAVZU. FUQAROLIK HUQUQI ASOSLARI.

Reja:

1. Fuqarolik huquqi tushunchasi, tamoyillari va tizimi.
2. Fuqarolarning huquq layoqati va muomala layoqati.
3. Yuridik shaxslar, ularning turlari.
4. Mulk huquqi, vorislik huquqi va mualliflik huquqi.

Tayanch iboralar:

Fuqarolik huquqi tushunchasi, fuqarolik huquqiy munosabatlar, huquqiy layoqat, muomala layoqati, jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, bitimlar, mulk huquqi, vorislik huquqi, mualliflik huquqi.

Fuqarolik huquqi tushunchasi. Fuqarolik huquqi-huquqiy munosabatlar sub'yektlari o'rtasida tenglik, xohish-iroda muxtoriyligi va mulkiy mustaqillik asoslarida yuzaga keladigan mulkiy munosabatlar hamda ular bilan bog'liq bo'lgan yohud bog'liq bo'lmagan shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Fuqarolik huquqi-insonning kundalik hayoti va faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquq sohalaridan biridir. U fuqaroga mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlar sohasida katta huquqlar beradi va bu huquqlarni boshqa fuqarolar tomonidan buzilishidan muhofaza qiladi. Har bir fuqaro qonunga binoan xususiy mulkka ega bo'lish, mulkni meros qilib olish va vasiyat qilib qoldirish, ijodiy faoliyati va hokazolar bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan huquqlarni qo'lga kiritishga haqlidir.

Fuqarolik huquqining predmeti – huquq subyektining muayyan bir mol-mulkka aloqasi mohiyatini aniqlovchi, ashyoning (mulkning) bir xil shaxslardan

boshqalarga o'tishini tartibga soluvchi, fuqarolik-huquqiy shartnomalarini tuzish va ular bo'yicha olingan majburiyatlarni bajarish qoidalarini belgilovchi, shuningdek, yetkazilgan mulkiy va ma'naviy zararni qoplash tartibini ko'rsatib beruvchi ijtimoiy munosabatlarning keng doirasidan iborat.

Fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar:

1. Mulkiy munosabatlar. Mulkning muayyan shaxslarga tegishliligi yoki mulkning bir shaxsdan boshqasiga o'tishi yoxud ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlar.

2. Shaxsiy huquqiy munosabatlar. Nomulkiy xarakterga ega bo'lgan, mulk, qiymat, ekvivalent bilan bog'liq bo'lmagan, shaxslardan boshqa shaxslarga "o'tkazib va berib bo'lmaydigan" munosabatlar.

Mulkiy munosabatlar mol-mulkning muayyan shaxslarga tegishli ekanligi, mol-mulkning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi bilan bog'liq bo'ladi. Mulkiy munosabatlarning birinchi guruhiga mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf etish sohasidagi munosabatlar kiradi. Mulkiy munosabatlarning ikkinchi guruhiga, avvalo, ko'pdan ko'p shartnoma munosabatlari (mol yetkazib berish shartnomasi, pudrat shartnomasi, yuklarni tashish shartnomasi munosabatlari) kiradi. Biroq bu munosabatlar shartnoma asosida paydo bo'lmasligi ham mumkin. Xususan, yetkazilgan zararning o'rnini qoplashda, asossiz ravishda qo'lga kiritilgan yoki saqlangan mol-mulkni qaytarib berishda, meros mulkning merosxo'rga o'tishida shunday bo'ladi.

Ishtirokchilari sub'yektiv huquq va majburiyatlar sohiblari bo'lgan hamda fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarga fuqarolik-huquqiy munosabatlar deyiladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasidagi nizolar xo'jalik sudi yoxud hakamlik sudi tomonidan da'vogarlik tartibida hal etiladi, bunda fuqarolik prosessual qonunlar belgilangan alohida qoidalariga rioya qilinadi. Qonunda maxsus ko'zda tutilgan hollarda fuqarolik huquqlarini himoya qilish ma'muriy tartibda amalga oshiriladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarining asosiy xususiyati uning ishtirokchilarining yuridik tengligidan iborat. Fuqarolik-huquqiy munosabat tarkibi quyidagilardan iborat:

- a) huquqiy munosabat ishtirokchilari sub'yektiv huquq va majburiyatlari;
- b) huquqiy munosabat ob'yektlari;
- v) huquqiy munosabat sub'yektlari.

Sub'yektiv huquqlar-fuqarolik-huquqiy munosabati sub'yektining ijozat berilgan hatti-harakati ko'lamidir.

Sub'yektiv majburiyatlar-muayyan hatti-harakatlarni sodir etish shartligi yoki qandaydir hatti-harakatlarni sodir etishdan tiyilib turish shartligidir.

Majburiyatlarning ikki turi mavjud:

1. Passiv xildagi majburiyatlar. Ular fuqarolik-huquqiy taqiqlardan vujudga keladi va qonuniy huquqli taraf yoki davlat manfaatlariga zarar keltiruv harakatlarni sodir etishning yuridik mumkin emasligini bildiradi.

2. Faol xildagi majburiyatlar. Uning mazmuni ijtimoiy foydali hatti-harakatlarni sodir etishga undashdan iborat. Odatda ularda mulkni topshirish yoki muayyan ishlarni bajarish va hokazolarni sodir etish talabi o'z ifodasini topadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ob'yektlari. Bular mazkur huquqiy munosabatlar vujudga kelishiga sabab bo'lgan, ushbu huquqiy munosabatlar sub'yektlarining huquq va majburiyatlari yo'naltirilgan narsalardir yoki harakat nimaga qaratilgan bo'lsa hamda nimalar asosida vujudga kelgan bo'lsa, bu munosabatlar ob'yekt deb ataladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ob'yektlari 2 guruhga bo'linadi:

1. Nomulkiy ob'yektlar-ijodiy faoliyat natijalari, axborotlar, shuningdek, shaxsiy nomulkiy ne'matlar.

- Intellektual mehnat natijalari;
- Kompyuterlarni dasturiy ta'minlash;
- Ixtirolarga mualliflik;
- San'at asarlariga mualliflik huquqi kabilar ijodiy faoliyatga kiradi.

2. Mulkiy ob`yektlar – konkret ashyolar, pullar, qimmatli qog`ozlar, ishlar, xizmatlar, shuningdek, mulkiy huquq va majburiyatlar.

Ashyolarning quyidagi turlari mavjud:

1. Xususiy alomatlari va o`ziga xos turlari bilan belgilangan ashyolar;
2. Bo`linadigan va bo`linmaydigan ashyolar;
3. Iste`mol qilinadigan va iste`mol qilinmaydigan ashyolar.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlari sub`yektlari – bular huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslar bo`lib quyidagilardan iborat:

- jismoniy shaxslar;
- yuridik shaxslar;
- o`z organlari va mahalliy o`zini –o`zi boshqarish organlari timsolida davlat.

Jismoniy shaxslar – O`zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, fuqaroligi bo`lmagan shaxslar. Fuqarolik-huquqiy munosabati sub`yekti bo`lish uchun huquqiy sub`yektlikka ega bo`lish kerak. Uning mazmuni huquq layoqati va muomala layoqati tushunchalari orqali ochiladi.

Fuqarolik-huquqiy layoqati. Fuqarolik huquq va majburiyatlarga ega bo`lish layoqatiga fuqarolik-huquqiy layoqati deyiladi. Bu layoqat inson tug`ilgan paytdan vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

Fuqarolik muomala layoqati. Fuqaroning o`z harakatlari bilan fuqarolik huquqlarini egallash va amalga oshirish, o`zi uchun fuqarolik majburiyatlarini yaratish va ularni bajarish layoqatiga fuqarolik muomala layoqati deyiladi. Bu layoqat inson balog`at yoshiga to`lgandan keyin, ya`ni o`n sakkiz yoshga to`lgandan keyin to`la hajmda vujudga keladi. O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ko`ra muomala layoqatining quyidagi turlari belgilanadi:

1. to`la hajmdagi muomala layoqati;
2. balog`at yoshiga etmaganlar muomala layoqati;
3. kichik yoshdagi bolalar layoqati.

Emansipatsiya –fuqaroning o`n sakkiz yoshga etmasdan to`la muomala layoqatiga ega bo`lishidir. U fuqaro 16 yoshga to`lgan kundan boshlanadi.

Fuqaroning muomalaga layoqatsiz deb topilishi. Fuqarolik kodeksining 30-moddasiga binoan quyidagi hollarda bunga yo'l qo'yiladi: ruhiy kasalligi yoki aqliy zaifligi oqibatida o'zini boshqara olmaydigan va o'z harakatiga javob berolmaydigan fuqarolar sudning hukmi bilan muomalaga layoqatsiz deb topilishi mumkin. Bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi.

Vasiylik - u kichik yoshdagi bolalar, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar ustidan o'rnatiladi.

Homiylik – u 14 yoshdan 18 yoshgacha, balog'at yoshiga yetmaganlar ustidan, shuningdek, muomala layoqati sheklangan fuqarolar ustidan o'rnatiladi. Vasiydan homiyni farqi nima? Vasiydan farqli o'laroq, homiy fuqarolik huquqiy munosabatlarga kirishmaydi, balki faqat fuqaroning o'z huquqlarini amalga oshirishiga ko'maklashadi.

Yuridik shaxslar. Ularning turlari. Yuridik shaxs o'z mulkida, xo'jalik yuritishda yoki operativ boshqaruvda alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotdir.

Yuridik shaxsning huquq layoqati. Bu layoqat u tashkil topgan paytdan boshlanib, yuridik shaxsni tugatish tamomlangan paytdan to'xtaladi.

Yuridik shaxsning muomala layoqati. Bu yuridik shaxsning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquq va majburiyatlarni yaratish, egallash va bajarish layoqatidir. Jismoniy shaxslardan farqli o'laroq, yuridik shaxsning muomala layoqati uning huquq layoqati bilan bir vaqtda boshlanadi va tugaydi.

Yuridik shaxs faoliyati – uning muassislari va ishtirokchilarining ongli irodali harakatlaridan iborat.

Muassislar – yuridik shaxsni tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilgan shaxslar.

Ishtirokchilar- muassislarni ham qo'shgan holda yuridik shaxs tarkibiga kiruvchi barcha shaxslar.

Yuridik shaxslar ikki turga bo'linadi.

1. Tijoratchi yuridik shaxs-asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan tashkilotlar.

Ularning turlari quyidagilar:

1. Xo'jalik shirkatlari;
 - a) to'liq shirkat; b) kommandit shirkat.
2. Xo'jalik jamiyatlari:
 - a) mas'uliyati cheklangan jamiyat;
 - b) qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat;
 - v) aksiyadorlar jamiyati: oshiq va yopiq;
 - g) sho'ba jamiyat;

3. Ishlab chiqarish kooperativlari;

4. Unitar korxona:

- a) xo'jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korhona;
- b) tezkor boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korhonasi.

2. Tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslar –foyda olishni asosiy maqsad qilib qo'ymaydigan va o'z ishtirokchilari o'rtasida foydani taqsimlamaydigan, ijtimoiy, xayriya, madaniy-ma'rifiy va boshqa faoliyat yuritish maqsadida tuzilgan tashkilotlardir.

Tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslarning turlari quyidagilardan iborat:

- 1) matlubot kooperativi;
- 2) jamoat birlashmalari;
- 3) ijtimoiy fondlar;
- 4) muassasalar;
- 5) yuridik shaxslar birlashmalari;
- 6) fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari.

Yuridik shaxsni tashkil etish usullari:

- 1) farmoyish berish usuli;
- 2) ruhsat etish usuli;
- 3) murojaat qilish usuli:

Yuridik shaxsni qayta tashkil etish shakllari:

- 1) ikki va undan ortiq yuridik shaxsning qo`shilishi;
- 2) qo`shib olish;
- 3) bo`linish;
- 4) ajralib chiqish;
- 5) bir shakldan ikkinchi shaklga aylantirish.

Yuridik shaxsni tugatish – bu yuridik shaxs faoliyatini, uning huquq va majburiyatlarini fuqarolik huquqiy munosabatlarning boshqa sub`yektlariga o`tkazmagan holda to`xtatish harakatlaridir.

Yuridik shaxsni tugatish ikki usulda amalga oshiriladi. Ihtiyoriy-yuridik shaxs tashkil etilgan faoliyat muddatining o`tib bo`lishi, uning faoliyat maqsadiga erishilgani, ustavsiz(nizom) maqsadlariga erishib bo`lmasligi asos qilib olingan usul.

Majburiy tugatish – yuridik shaxsning tegishli ruxsatnomasiz (litsenziyasiz) faoliyat yuritishi, nizom maqsadlariga zid faoliyat yoki faoliyatning ta`qiqlangan turlari bilan shug`ullanish, shuningdek, qonunni qo`pol ravishda buzgan holda faoliyat yuritish asos qilib olingan usul.

Nochorlik(bankrotlik) tugatishning maxsus holatiga kiradi. Yuridik shaxsning bankrot (nochor) deb e`tirof etilishi uni tugatilishiga olib keladi.

Bitimlar, ularning turlari, shakllari. Bitim- fuqarolar va tashkilotlarning fuqarolik huquqlari va vazifalarini belgilash, o`zgartirish, to`htatishga qaratilgan harakatlardir. Lekin har qanday harakat ham bitim bo`lavermaydi. Qonun doirasida amalga oshirilishi lozim bo`lgan, ya`ni huquqiy harakat bitim bo`ladi. Ashyoni sotib olish, sotish, xizmat ko`rsatish, ashyoni vaqtincha foydalanish uchun topshirish, hadya qilish kabi harakatlar bitimlar mezonini tashkil etadi.

Bitimlarning turlari:

- 1) Bir tomonlama, ikki tomonlama va ko`p tomonlama bitimlar;
- 2) Haq baravariga va tekin bitimlar;
- 3) Real va konsensual bitimlar;
- 4) Shartli va shartsiz bitimlar;

5) Muddatli va muddatsiz bitimlar;

6) Birja bitimlar.

Bitimlarning shakllari:

1) og`zaki bitimlar-shaxs xohish irodasini og`zaki ifodalash yo`li bilan tuziladi.

2) konklyudent bitimlar-so`zsiz harakatlar, imo-ishoralar, mimika yo`li bilan tuziladigan shartnomalar. Bu bitimlar ham og`zaki bitimlarga tenglashtiriladi.

3) yozma bitimlar-yozma hujjat ko`rinishida tuziladi va agar ish muomalasi odatlaridan boshqacha tartib kelib chiqmasa, taraflar yoki ularning vakillari imzolashi kerak.

4) notarial tasdiqlangan bitimlar-notarius yoki bunday notarial harakatni amalga oshirish huquqiga ega bo`lgan boshqa mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlovchi ust xat yozib qo`yish yo`li bilan amalga oshiriladi.

5) bahsli bitimlar-tan olinishi uchun sud qarori kerak bo`ladigan bitimlar.

6) ahamiyatsiz bitimlar-haqiqiy emasligi sud orqali tasdiqlanishi talab yetilmaydigan bitimlar.

7) asoratga soluvchi bitimlar-juda og`ir holatlar oqibatida o`zi uchun g`oyat noqulay shartlarga ko`nishga majbur bo`lgan shaxs tuzgan bitimlar.

Restitutsiya-bitimni haqiqiy emas deb topish paytida taraflarning bitim tuzishdan oldinga qaytishi.

Mulk huquqi – o`z egasiga unga tegishli mulkka nisbatan egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish bo`yisha vakolatlar beruvchi ashyoviy huquqdir.

Mulk huquqi uch tarkibiy qismdan iborat:

1. mulkka egalik qilish;

2. undan foydalanish;

3. mulkni tasarruf etish.

Egalik qilish huquqi – bu amalda ashyoga ega bo`lish, unga bevosita ta`sir o`tkazish imkoniyati. Egalik qilish huquqi qonuniy va noqonuniy bo`lishi mumkin.

Foydalanish huquqi – bu ashyolar vositasida u yoki bu ehtiyojlarni qondirish, ashyodan uning foydali xususiyatlarni hamda daromadni olish huquqidir.

Tasarruf etish huquqi- yuridik hujjatlar asosida ashyoning taqdirini tasarruf etish yo`lidagi qonuniy huquqlikdan foydalanish bo`lib ifodalanadi.

Birgalikdagi mulk. Bunda birgalikdagi mulk ishtirokchilari mulkdorlari ulushlarini aniqlamagan holda birgalikda egalik qiladilar va foydalanadilar. Er-xotinlar mulki va dehqon fermer xo`jaligi mulki shunday mulk hisoblanadi.

Mulk huquqi vujudga kelishining boshlang`ich usullari:

- 1) mulkni yaratish va ko`paytirish;
- 2) ko`char va ko`chmas mulkka ochiq, uzoq va uzluksiz egalik qilish natijasida mulkni egallash;
- 3) hamma yig`ib olishi mumkin bo`lgan ashyolarni mulkka aylantirish;
- 4) egasiz ashyolar, topilma, qarovsiz hayvonlar va xazinaga mulk huquqini egallash.

Mulk huquqi vujudga kelishining hosila usullariga quyidagilar kiradi:

1. Shartnoma asosida (oldi-sotdi, almashish, hadya qilish va h.k.)
2. Meros qilib qoldirish asosida.
3. Natsionalizatsiya (milliylashtirish) asosida.
4. Xususiyashtirish asosida.
5. Rekvizatsiya asosida.
6. Musodara asosida.

Mulk huquqining bekor bo`lishi. Mulk huquqi mulkdorning ixtiyoriy suratda majburiyatni bajarishi, mulkdorning mol-mulk taqdirini hal qiladigan bir tomonlama qaror qilishi, sud qarori asosida mol-mulkni olib qo`yish (sotib olish) yo`li bilan, shuningdek, mulk huquqini bekor qiluvchi qonun hujjatlariga asosan bekor bo`ladi.

Mulk huquqini muhofaza etish usullari. Vindikatsiya da`vosi-bu mulkdorning o`z mol-mulkini boshqa har qanday shaxsning qonunsiz egaligidan qaytarishni sud orqali talab qilib olish huquqi. Vindikatsiya da`vosi bilan chiqish uchun quyidagi shartlar bo`lishi kerak:

- talab qilinayotgan mulk amalda boshqa shaxsning egaligida bo`lishi kerak;

- faqat boshqasiga almashtirib bo'lmaydigan ashyolar va turga xos alomatlari bo'lgan ashyolar da'vo predmeti bo'lishi mumkin;

- mulkdor mahrum bo'lgan mulk o'zining asosiy xususiyatlarini va sifat belgilarini yo'qotmagan bo'lishi lozim;

- mulkiga ega bo'lmagan mulkdor va uni qonunsiz egallovshi shaxs da'vo qilina yotgan mol-mulk bo'yisha bir-birlari bilan shartnoma yoki boshqa majburiyatli huquqiy munosabat bilan bog'lanmagan bo'lishlari kerak.

Vindikatsiya da'vosini qondirishda tegishli hisob-kitoblar amalga oshirilishi kerak. Da'vog ar mol-mulkni asli hoida qaytarish bilan birga, agar javobgar shu mol-mulkni insofsiz egallab turgan bo'lsa, undan mol-mulkka egalik qilgan butun vaqti davomida olgan foydalari (hosil-daraht)ni qaytarishni yoki to'lashni talab qilishga haqlidir. Ayni paytda insofli egallovshi ham, insofsiz egallovshi ham mol-mulkdan qancha vaqt davomida olingan daromad mulkdorga qaytarilishi kerak bo'lsa, shuncha vaqt davomida mol-mulkka qilingan zaruriy harajatlarni to'lashni mulkdordan talab qilishga haqlidir.

Negator da'vo – o'z mulkiga qilayotgan mulkdorning shu mulkdan foydalanishi va uni tasarruf etishdagi qonuniy huquqlarini amalga oshirishdagi to'sqinliklarni bartaraf etish talabidir. Negator da'vosi bo'yicha da'vog ar mol-mulkning amaldagi va qonuniy egasi bo'lgan, lekin undan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lgan shaxs. Negator da'vosi bo'yicha javobgar – o'zining g'ayri huquqiy hatti-harakatlari bilan mulkdorning o'z qonuniy asosda foydalanish huquqini to'la amalga oshirishiga imkon berayotgan shaxs.

Majburiyat huquqi. Bu huquqning mazmuni ashyoviy huquqlarning bir shaxsdan boshqasiga o'tishi bilan bog'liq fuqarolik huquqiy munosabatlardan iborat. Majburiyat huquqi mulkning harakati va qayta taqsimlanishi jarayonini muvofiqlashtiradi. Majburiyat huquqining asosida majburiyat tushunchasi yotadi. Majburiyat – fuqarolik huquqiy munosabat bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa, qarzdordan o'zini o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Demak,

majburiyatda ikki taraf-qarzdor va kreditor qatnashadi. Majburiyatlar quyidagi asoslarda kelib chiqadi:

- shartnomalardan;
- yetkazilgan zarar oqibatida;
- sud qarori asosida;
- fuqarolik qonunshiligi fuqarolik-huquqiy oqibatlarning vujudga kelishi bilan bog'laydigan boshqa harakatlar va hodisalar natijasida.

Fuqarolik –huquqiy shartnoma-bu ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquq va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvidir.

Shartnoma tuzishdan asossiz bo'yin tovlagan taraf shu tufayli yetkazilgan zararni boshqa tarafga to'lashi kerak.

Majburiyatlar ijrosini ta'minlash quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

1.Neustoyka – shartnoma bilan belgilangan qarzdor majburiyatni bajarmagan taqdirda kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi.

2.Garov – bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarni bajarishni ta'minlash uchun berishi.

3.Zakalot- garovga qo'yiladigan mulkni garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga o'tkazilishi.

4.Kafillik-bu kelishuv bo'lib, unga ko'ra, kafil boshqa shaxs majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi.

5.Kafolat-unga binoan bank, boshqa kredit muassasasi yoki sug'urta tashkiloti (kafil)boshqa shaxs (prinsipal)ning iltimosiga ko'ra kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benefitsar) pul summasini to'lash haqida prinsipalga yozma majburiyat beradi.

Mualliflik huquqi. Mualliflik huquqi instituti o'z ta'sir doirasiga mualliflar huquqlarini himoya qilish bilan birga, jamiyatni yetuk badiiy, adabiy, san'at va ilm-fan asarlari bilan ta'minlash vazifasini ham qamrab oladi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 42-moddasiga binoan, barcha fuqarolar uchun ilmiy va

tehnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlangan. 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to`g`risida”gi qonunda mualliflik huquqining ob`yektlari, belgilari va turlari ko`rsatilgan. Shunga ko`ra, mualliflik huquqi ob`yekti bu – aqliy mehnat natijasi bo`lmish fan, adabiyot va san`at asarlaridir.

Mualliflik huquqining ob`yekti ma`naviy boyliklar, ya`ni ma`naviy ijod predmetlaridir. Boshqacha aytganda, inson his-tuyg`ulari, aqli-zehni, bilimi, tafakkuri, dunyoqarashi, qobiliyatini ifodalovchi asarlar mualliflik huquqi ob`yektlari sirasiga kiradi.

Qonunning 5-moddasi 5-qismiga binoan:

Mualliflik huquqi e`lon qilingan asarlarga nisbatan ham, e`lon qilinmagan asarlarga nisbatan ham tadbiq qilinadi.

Asar kimning ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo`lsa, ana shu fuqaro asar muallifi deb e`tirof etiladi.

Ikki yoki undan ortiq fuqaroning birgalikdagi ijodiy mehnati natijasida yaratilgan asarga bo`lgan mualliflik huquqi, mazkur asar bo`linmas bir butun yoki har biri ham mustaqil mazmunga ega qismlardan iborat ekanligidan qat`iy nazar, hammualliflarga birgalikda tegishli bo`ladi.

Alohida mualliflik huquqining egasi o`z huquqlaridan habardor etish uchun asarning har bir nusxasida aks ettiriladigan va qo`yidagi uch unsurdan iborat mualliflik huquqining himoya belgisidan foydalanishi mumkin:

- aylana ichiga olingan lotinsha “S” harfi;
- alohida mualliflik huquqlari egasining ismi;
- asar birinchi marta e`lon qilingan yil.

Mualliflik huquqining himoya belgisida ko`rsatilgan shaxs, bashorati boshqa hol isbotlanmagan bo`lsa huquq egasi hisoblanadi.

Muallifning o`zi yaratgan asari bo`lgan mualliflik huquqi boshqa shaxslarning ayni shu asarga bo`lgan mualliflik huquqi e`tirof qilinishini istisno etadi.

Ixtiro, foydali model, sanoat namunasiga mualliflik huquqi va maxsus nom berish huquqi ixtiro, foydali model, sanoat namunasining muallifiga tegishlidir.

Qonunga binoan, turdosh huquqlar sahna asarlariga, ijroga, ijroning audio va videoyozuviga (ijro yozuviga), efir va kabel orqali ko`rsatuv va eshittirish beruvchi tashkilotning ko`rsatuv va eshittirishlariga tatbiq etiladi.

Ijrochi quyidagi huquqlarga egadir:

- ijro vaqtida, ijro yozuvining nusxalarida, ijro translyatsiya qilinayotganda yoki takrorlanayotganda uning ismi-sharifini ko`rsatish;
- asarni buzib ijro etishdan himoya qilish;
- ijrodan foydalanishni amalga oshirish yoki foydalanishga ruhsat berish.

Mualliflik huquqida ayrim yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud, yaqin kelajakda bu hal yetilishi kerak.

Vorislik huquqi. Vorislik huquqi deyilganda vafot etgan fuqaroning mol-mulki uning merosxo`rlariga o`tishi tushuniladi. Vorislik huquqi fuqarolar vafot etgandan keyin ularning mulkiy va ayrim nomulkiy huquqlari va majburiyatlarining boshqa shaxslarga o`tishi natijasida kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga soladi.

Fuqarolarning shaxsiy va hususiy mulkiga taaluqli bo`lgan mol-mulk meros qilib olish ob`yekti hisoblanadi. Bularga fuqarolarning daromadlari va jamg`armalari, uy-joy, xonadon, uydagi yordamshi xo`jalik, uy-ro`zg`or buyumlari va ashyolari, shaxsiy iste`mol buyumlari va jihozlar kiradi.

Quyidagilar meros bo`lib o`tadi:

- vafot etgan kishining xususiy mulk huquqi;
- ayrim majburiyat huquqlari(bankda amonatni talab qilib olish, sug`urta puli, qalam haqi olish huquqi);
- mualliflik huquqi, ixtiro qilish huquqi.

Quyidagilar meros ochilgan joy hisoblanadi:

- meros qoldiruvchining keyingi yashagan joyi;
- keyingi yashash joyi no`malum bo`lgan taqdirda meros qilib olinadigan mol-mulk yoki uning asosiy qismi joylashgan manzil.

Meros qilib olish qonun va vasiyat bo`yicha amalga oshiriladi. Qonun bo`yicha meros qilib olish vasiyat bilan almashtirilmagan holda sodir bo`ladi.

Qonun bo'yicha vorislarning ulushlari tengdir. Meros qoldiruvchi bilan birga yashovchilar (vorislar) ayrim ustunliklarga ega bo'ladi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar:

1. Fuqarolik huquqi tushunchasini izohlang
2. Fuqarolik huquqi predmeti nima?
3. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar nima?
4. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ob'yektlariga nimalar kiradi?
5. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar sub'yektlariga nimalar kiradi?
6. Jismoniy shaxslarni tushuntiring.
7. Yuridik shaxslar qanday tashkil topadi?
8. Fuqarolik muomala layoqati nima?
9. Huquqiy layoqat nima o'zi?
10. Bitimlarning turlarini ayting.
11. Mulk huquqi nima?
12. Vindikatsion da'vo nima?
13. Majburiyat huquqini tushuntiring.
14. Mualliflik huquqining mazmuni.
15. Vorislik huquqi tushunchasini izohlang.

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2003yil
- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. Toshkent., 1996 yil
- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi. Toshkent., 1996 yil
- I. Zokirov, M. Barotov. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquq va muomala layoqati. Toshkent., 1998 yil.
- B. Toshev. Mualliflik huquqi. Toshkent., 1997 yil.
- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharhlar. Toshkent., 1998 yil
- O'zbekiston Respublikasi "Mulkshilik to'g'risida"gi qonunga sharhlar. Toshkent., 1996yil

- Merosning ochilishi. //Hayot va qonun. 2004 yil, № 5.

5-MAVZU: ISTE`MOLCHILAR HUQUQINI HIMOYALASH ASOSLARI.

Reja:

1. Iste`molchilar huquqlarini himoya qilish tushunchasi.
2. Iste`molchilarning tovar to`g`risida ma`lumot olish huquqi.
3. Iste`molchilarga sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish oqibatlari.
4. Iste`molchilarning huquqlarini sud tomonidan himoya qilinishi.

Tayanch iboralar:

Iste`molchi, Iste`molchi huquqi, tovarning sifati, Iste`molchi huquqini himoya qilish, sifatsiz mahsulot chiqarish oqibati.

Iste`molchilarning tovar (ish va xizmat) to`g`risida ma`lumot olish huquqi.

1996 yil 26 aprelda O`zbekiston Respublikasining «Iste`molchilarning huquqlarini himoya qilish to`g`risida»gi qonun qabul kilindi. Xo`sh, ushbu qonunning qabul qilinishidan ko`zlangan asosiy maqsad nimadan iborat? Eng avvalo ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar tomonidan sotilayotgan tovarlarni normativ hujjatlarga asosan tayyorlanishi, tovarlarning xavfsizligini, ya`ni tovarni iste`mol qilish, undan foydalanish, saqlash, tashash yoki utilizatsiya (tovarni yaroqsiz deb topish) qilinishi, shuningdek, ish yoki xizmat natijalaridan foydalanishda Iste`molchilarning hayoti, sog`ligi yoki mol-mulkiga, atrof muhitga zarar yetkazilishi ehtimoli bilan bog`lik xavf-xatarning yo`qligini ta`minlash kabi iste`molchilarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

Iste`molchi kim, kimlarni iste`molchi deb hisoblash mumkin. Iste`molchilar – foyda chiqarib olish bilan bog`liq bo`lmagan shaxsiy iste`mol yoki xususiy xo`jalikda foydalanish maqsadida tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi, yohud shu niyatdagi fuqarolardir. Demak, biz kundalik hayotimizda ehtiyojimizni qondirish maqsadida, savdo do`konlaridan iste`mol tovarlarni sotib

olishimiz bilan Iste'molchi nomini olamiz. Boshqacha qilib aytganda ushbu jarayonni oldi-sotdi shartnomasi deb hisoblash mumkin. «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun»da belgilangan huquq va majburiyatlarga amal qilmaslik, ayrim sotib olingan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarning iste'molga yaroqsizligiga e'tibor bermaslik bir qator huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunning IV-moddasida iste'molchilarning asosiy huquqlari berilgan. Ushbu qonunga ko'ra iste'molchilar quyidagi huquqlarga ega:

- tovar va xizmatlar, shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi sotuvchi) haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish.

- Tovar va xizmatni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli va xavfsiz bo'lishi, hayoti, mol-mulki ushuni xavfi nuqsoni bo'lgan tovar, shuningdek ishlab chiqaruvchining g'ayri-qonuniy harakati yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararining to'liq hajmda qoplanishi, buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so'rab sudga boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat qilish huquqiga ega.

Qonunning 6-moddasiga ko'ra ishlab chiqaruvchi (ijrochi sotuvchi) iste'molchiga realizatsiya qilayotgan tovarlar haqida o'z vaqtida zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishi shart. Demak, tovar to'g'risidagi ma'lumotlarda quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- tovarning majburiy talablarga muvofiq kelishi shart bo'lgan normativ hujjatning nomi.

- Tovarning asosiy iste'mol xususiyatlari, shu jumladan o'ziga xos xususiyatlari ro'yxati.

- Bahosi va sotib olish shartlari.

- Ayrim turdagi tovarlarning ishlab chiqarilgan sanasi, tayyorlovchining kafillik majburiyatlari, tovardan samarali hamda xavfsiz foydalanish qoidalari va shartlari, tovarning xizmat muddati, ushbu xizmat tugagandan keyin iste'molchi nima ishlar qilishi zarurligi, shuningdek bunday ishlarni bajarmaslik natijasida

kelib chiqishi mumkin bulgan oqibatlar to'g'risidagi ma'lumotlar, ishlab chiqaruvchining nomi va mulkchilik shakli, ro'yxatga olish va litsenziya guvohnomasining raqami.

Tovarning sifati. Fuqarolik kodeksining 402-moddasiga ko'ra sotuvchi iste'molchiga sifatli oldi-sotdi shartnomasiga mos keladigan tovarni topshirishi shart. Shartnomada tovarning sifati to'g'risidagi shartlar ko'rsatilmaganda sotuvchi iste'molchiga belgilangan maqsadlar uchun yaroqli bo'lgan tovarni topshirishi shart.

Agar iste'molchi shartnoma tuzish paytida sotuvchiga qanday aniq maqsad uchun sotib olinayotganini xabar qilgan bo'lsa sotuvshi iste'molchiga ushbu maqsadlarda foydalanish uchun yaroqli bo'lgan tovarni topshirishi shart. Bundan tashqari tovar o'z namunasi yoki tarifi bo'yicha sotilganda sotuvchi iste'molchiga namuna yoki tarifga mos keladigan tovarni topshirishi lozim.

Oldi-sotdi shartnomasida sotuvchining tovar sifatiga kafolat berishi nazarda tutilgan taqdirda sotuvshi iste'molchiga shartnomada belgilangan muayyan vaqtda yoki kafolat muddatida qonunda nazarda tutilgan talablariga javob beradigan tovarni topshirishi lozim. Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa kafolat muddati tovar iste'molchiga topshirilgan paytidan o'ta boshlaydi. Biroq iste'molchiga bog'lik bo'lgan holatlar tufayli oldi-sotdi shartnomasida kafolat muddati belgilangan tovardan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lsa sotuvchi tegishli holatlarni bartaraf yetmaguncha kafolat muddatining o'tishi boshlanmaydi.

Fuqarolik Kodeksining 404-moddasiga ko'ra agar oldi-sotdi shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa butlovchi buyumning muddati asosiy buyumning kafolat muddatiga teng hisoblanadi va asosiy buyumning kafolat muddati bilan bir vaqtda o'ta boshlaydi shuni ham hisobga olish kerakki tovar yoki butlovshi buyum almashtirilganda kafolat muddati yangidan o'ta boshlaydi.

Iste'molchilar uchun tovarning sifati uning sifatiga berilgan kafolat muddati bilan bir qatorda tovarning yaroqlik muddati ham muhim kasb etadi. Sotuvchi yaroqlik muddati belgilangan tovarni iste'molchiga shunday mo'ljal bilan

topshirishi kerakki toki iste'molchi undan yaroqlilik muddati tugagunga qadar o'z vazifasi bo'yicha foydalanishi mumkin bo'lsin. Tovarining yaroqlilik muddati tovar tayyorlangan kundan boshlab foydalanish uchun yaroqli bo'lgan davr bilan yoki tovar foydalanishi uchun yaroqli bo'lib turadigan sana bilan belgilanadi. (Fuqarolik kodeksi 406-modda).

Tovarlar to'g'risida noto'g'ri ma'lumot berilganda iste'molchilarning huquqlari. Tovardar to'g'risida noto'g'ri ma'lumot berilishi oqibatida iste'molchi zarur iste'mol xossalariga ega bo'lmagan tovarni sotib olgan bo'lsa u shartnomani bekor etishi va o'ziga yetkazilgan zararni qoplanishini talab qilishga, xarid qilingan tovardan ko'zlangan maqsadda foydalana olmagan vaziyatda iste'molchi tegishli ma'lumotni oqilona qisqa muddatda berilishini talab qilishga haqlidir. Qonunga binoan ko'pi bilan uch kunlik muddat belgilanadi. Mabodo ma'lumot aytilgan muddatda berilmasa, iste'molchi shartnomani bekor qilib, zararning undirilishini talab qilishga haqlidir.

Hozirgi kunda raqobatni kuchaytirish maqsadida zo'r berib reklamalar e'lon qilinmoqda. Haqiqatdan ham ular reklamada aytilayotgan xususiyatlarga egami? Afsuski bu holatga hech qaysi iste'molchi e'tibor bermaydi.

Mazkur qonunning 7-moddasining 6-bandida bu haqida shunday deb yozib qo'yilgan: «Noto'g'ri reklama oqibatida sotib olingan tovar tufayli iste'molchiga yetkazilgan zarar ishlab shiqaruvchi tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim».

Iste'molchining nuqsonli tovar sotilgandagi huquqlari.

Qonunning 13-moddasiga muvofiq, tovarni ayni shunday markali (modelli, artikulli) maqbul, sifatli tovarga almashtirib berish, uning xarid narxini qayta hisob-kitob qilish, tovarning nuqsolarini bepul bartaraf etish yoki iste'molchining yohud uchinchi shaxsning nuqsonlarni bartaraf etishga qilgan xarajatlarini qoplash, xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirish, shartnomani bekor qilib, qurilgan zararni qoplash kabi talablarni sotuvchiga qo'yish bilan iste'molchilar o'zlarining huquqlarini himoya qila oladilar. Mabodo yuqoridagi holatlar sodir etilgan taqdirda nima qilish mumkin? Iste'molchilarning bu talablari u kassa yoki tovar chekini, kafolat muddati belgilangan tovar bo'yicha esa, tegishlicha,

rasmiylashtirilgan texnik pasport yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa hujjatni taqdim etganda ko'rib chiqiladi.

Iste'molchiga nuqsonli tovarni ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga almashtirishi qo'shimcha ravishda tekshirishi zarur bo'lganida esa, iste'molchi talab qo'ygan paytdan e'tiboran 20 kun ichida almashtirib berishi shart.

Ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar bo'lmagan takdirda, almashtirib berish xususidagi talab da'vo qilingan paytdan e'tiboran bir oy ichida qondirilishi kerak. Cho'l va olis joylarda esa bu vaqt 2 oydan oshmasligi lozim. Qonunga ko'ra, shu muddatlarning o'tkazilib yuborilgan har bir kuni uchun sotuvchi, tovarning almashtirib berilishi bilan birga tovar bahosining 1%i miqdorida iste'molchiga penya to'laydi. Qonunning 17-moddasiga ko'ra, nuqsonli tovar ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga almashtirilgan vaqtida uning narxi o'zgargan bo'lsa, qayta hisob-kitob qilinmaydi.

Nuqsonli tovar boshqa markali (modelli, artikulli) tovarga almashtirib berilayotganda, agar almashtirilishi kerak bo'lgan tovar narxi uning o'rniga berilayotgan tovar narxidan past bo'lsa, iste'molchi narlardagi qo'shimcha narxlarni to'lashi lozim, agar almashtirilishi lozim bo'lgan tovarning narxi uning o'rniga berilayotgan tovar narxidan yuqori bo'lsa, unda iste'molchiga o'rtadagi tovarning farqi qaytariladi. Bunday hisob-kitob chog'ida almashtirilishi kerak bo'lgan tovar narxi olingan taqdirda, uning talab qo'yilgan paytdagi narxi, narxi pasaygan taqdirda esa, xarid qilingan paytidagi bahosi qo'llaniladi.

Oldi-sotdi shartnomasi bekor qilinib, tovarning puli qaytarib olinayotganida esa agar tovar narx oshgan bo'lsa, iste'molchi bilan hisob-kitob tovarning tegishli talab qo'yilgan paytdagi qiymatiga qarab narxi pasaygan taqdirda esa, xarid qilingan paytdagi qiymatiga qarab amalga oshiriladi.

Iste'molchilarga sifatsiz mahsulot sotish oqibatlarini. Tovar uchun to'langan pul summasini iste'molchiga qaytarish vaqtida sotuvchi undan tovardan to'liq, qisman foydalanganligi, tovar ko'rinishi yo'qolganligi yoki boshqa shunga o'xshash xolatlar tufayli tovar qiymati qancha pasaygan bo'lsa, shunsha summani ushlab qolishga haqli emas (Fukarolik kodeksi, 434-modda..).

Tegishli darajada sifatli bo'lmagan tovarni sifati tegishli darajada bo'lgan boshqa tovarga almashtirish shog'ida sotuvchi tovarning chakana oldi-sotdi shartnomasida belgilangan bahosi bilan tovarni almashtirish yoki sud tomonidan tovarni almashtirish to'g'risidagi qaror chiqarish paytida mavjud bo'lgan tovarning bahosi o'rtasidagi farqni to'lashni talab qilishga haqli emas (Fuqarolik kodeksi 435-modda).

Tegishli darajada sifatli bo'lmagan tovarni xuddi shunday, biroq o'lchami, andazasi, navi va boshqa belgilari o'zgacha bo'lgan tegishli darajada sifatli tovarni almashtirish chog'ida almashtirilayotgan tovarning almashtirish paytidagi bahosi bilan sifati tegishli darajada bo'lmagan tovar o'niga berilayotgan tovarning bahosi o'rtasidagi farq to'lanishi lozim. Agar iste'molchining talabi sotuvchi tomonidan qondirilmasa, bu baholar sud tovarni almashtirish to'g'risida qaror chiqargan payt bo'yicha aniqlanadi.

Tovarning xarid narxini mutanosib ravishda kamaytirish to'g'risida talab qo'yilgan taqdirda tovarning bahosini pasaytirish to'g'risida talab qo'yilgan paytdagi, agar sotib oluvchining talabi ixtiyoriy suratda qondirilmagan bo'lsa, sud bahoni mutanosib ravishda kamaytirish to'g'risida qaror chiqargan paytdagi bahosi inobatga olinadi.

Sotuvchiga sifati tegishli darajada bo'lmagan tovarni qaytarib berish chog'ida iste'molchi chakana oldi-sotdi shartnomasida belgilangan tovarning bahosi bilan uning talabi ixtiyoriy suratda qondirilgan vaqtdagi, agar talab ixtiyoriy suratda qondirilmagan bo'lsa, sud qaror chiqargan paytdagi tegishli tovarning bahosi o'rtasidagi farqni to'lashni talab qilishga haqli.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar:

1. Iste'molchi kim?
2. Iste'molchi huquqlariga nimalar kiradi?
3. Iste'molchining tovar to'g'risida ma'lumot olish huquqini tushuntirib bering.
4. Iste'molchiga sifatsiz mahsulot chiqarish oqibatlarini izohlab bering
5. Iste'molchining huquqlarini sudda himoyalash qanday amalga oshiriladi?

6. Iste'molchi huquqini himoya qilishning huquqiy asoslarini tushuntiring.

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, 2003 yil.
- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Toshkent, 1996 yil.
- V. Topildiev. Iste'molchilar huquqini himoya qilish kursi bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma.
- O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonuni. 1996 yil 26 aprel, Xalq so'zi gazetasi.
- H.R. Rahmonqulov. «Oldi sotdi shartnomasi» Toshkent, 2000 yil.
- Iste'molchilar, huquqingizni bilasizmi. Qonun himoyasida. 1998 yil, 7-son

6- MAVZU. MEHNAT HUQUQI.

Reja:

1. Mehnat huquqi tushunchasi, tamoyillari, tizimi.
2. Mehnat shartnomasi tushunchasi.
3. Ish vaqti, dam olish vaqti, ta'tillar, ish haqi.
4. Mehnat muhofazasi, mehnat nizolari va ularni ko'rib chiqish tartibi.

Tayanch iboralar:

Mehnat huquqi, shartnoma va kelishuvlar, mehnat shartnomasi, mehnat intizomi, mehnat nizolari, mehnat muhofazasi, mehnat nizolari komissiyasi, ish vaqti, dam olish vaqti, mehnat ta'tili.

Mehnat huquqi tushunchasi, uning tomonlari va sub'yektlari. Mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va xususiy tadbirkorlar bilan mehnat shartnomasi (kontrakti) bo'yicha ishlayotgan barcha shaxslar mehnat munosabatlarini tartibga solib turuvchi huquq tarmog'i mehnat huquqi hisoblanadi. Mehnat huquqi mehnat munosabatlarining vujudga kelishi, amal qilishi va bekor qilinishini tartibga soladi, xodimlarning birgalikdagi

mehnatlari rejimini belgilaydi, mehnat mezonini, mehnatni muhofaza etish qoidalari va mehnat nizolarini ko'rib chiqish tartibini o'rnatadi.

Mehnat huquqi mehnatni ijtimoiy-iqtisodiy tashkil etishdagi mehnat bo'yicha munosabatlarni tartibga soladi, ya'ni jamiyatda mavjud bo'lgan birgalikdagi mehnat jarayonidagi kishilar o'rtasidagi aloqani tartibga soladi.

Mehnat huquqining asosiy mazmunini mehnatga oid munosabatlar tashkil etadi. Mehnat huquqining sub'yektlari 2ga bo'linadi: 1) Asosiy sub'yektlar; 2) Qo'shimcha sub'yektlar. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 14,15-moddalariga binoan, xodim va ish beruvchi mehnat munosabatlarining asosiy sub'yektlaridir. Mehnat jamoasi kengashi, mehnat nizolari bo'yicha komissiyalar, kasaba uyushmalari, mehnat organlari, korxonalaridagi huquqiy xizmatlar (huquqiy maslahat) va ishlab chiqarishning normal ishlashini ta'minlovchi boshqa tartibotlar qo'shimcha sub'yektlarni tashkil etadi.

Mehnat jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarda asosan, ikki tomon: xodim va ish beruvchi ishtirok etadi. Xodim sifatida mehnat qilish huquqi va muomala layoqatiga ega bo'lgan, ya'ni muayyan yoshga yetgan, o'zining jismoniy va aqliy qobiliyatiga ko'ra yollanib ishlashi mumkin bo'lgan fuqaro sub'yekt bo'lib qatnashadi. Xodimning mehnat huquqi mavqei O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Mehnat Kodeksi (14,16,20,21,23-moddalar) va boshqa qonunlar bilan belgilanadi.

Mehnat munosabatlari sub'yekti sifatida ikkinchi tomondan ish beruvchilar, ya'ni fuqarolarni ishga yollashga, ular mehnatini qonun talablari asosida tashkil etishga, mehnatga haq to'lashga layoqatli bo'lgan tijorat, tijoratga aloqasiz tashkilotlar, muayyan hollarda ayrim fuqarolar qatnashdilar. Ish beruvchining yuridik mavqei O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik Kodeksi, Mehnat Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati erkinliklarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni va qonunchilik hujjatlariga ko'ra belgilanadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, yuridik shaxs tuzmagan holda tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi yakka tadbirkorlar faoliyati o'zlarining shaxsiy mehnatlari bilan tadbirkorlik faoliyati olib borishlari mumkin,

ya'ni ular yollanma mehnatdan foydalanishlari mumkin emas va shu sababli mehnat huquqining sub'yekti bo'lmaydilar.

Mehnat huquqining manbalari. Mehnat huquqining manbalari, bu-sohadagi huquqiy munosabatlarga tadbqiq etiladigan qonunlar va boshqa qonun hujjatlaridan iborat. Shu sababli muayyan hayotiy vaziyatlarga mos keluvchi me'yoriy hujjatlarni tanlay bilish, ularni to'g'ri tadbqiq etish ko'p jihatdan ushbu mavzuni to'liq o'zlashtirishga, talaba mehnat huquqiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarning turlari, yuridik kuchi va ta'sir doirasini to'liq tushunib etganligiga bog'liqdir.

Mehnat huquqining tamoyillari. Ular ikkiga bo'linadi: a) umumhuquqiy; b) tarmoqlararo. Umumhuquqiy tamoyillar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan. Tarmoqlararo tamoyillar esa mehnat, tadbirkorlik, ijtimoiy-ta'minot, ma'muriy va boshqa huquq sohalariga oid huquq me'yorlarida aks ettirilgan.

Mehnat shartnomasi tushunchasi. Mehnat shartnomasini bekor qilish. Mamalakatimizda Fuqarolarning mehnat qilishi huquqini amalga oshirishning asosiy shakli-mehnat shartnomasi. Mehnat Kodeksining 72-moddasiga binoan mehnat shartnomasi xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida tegishli haq evaziga bajarish haqidagi kelushuvdir. Mehnat shartnomasi fuqarolarning mehnatga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishning asosiy tashkiliy-huquqiy shaklidir. Mehnat shartnomasi asosida mehnatga jalb qilishi, xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlarini ko'zlagan holda har bir kishiga erkin kasb tanlash imkonini beradi.

Mehnat shartnomasini tuzish-uning taraflari bo'lib hisoblanadigan xodim va ish beruvchi o'rtasida o'zaro huquqlar hamda majburiyatlarni belgilab olish, hujjatlashtirishdan iborat erkin, irodaviy jarayondan iboratdir.

Mehnat shartnomasini tuzish jarayoni qo'yidagicha amalga oshiriladi:

I. Bo'lg'usi ishning shart-sharoitlari haqidagi boshlang'ich muzokaralar, o'zaro tanishuv jarayoni;

II. Xodim tomonidan shaxsi, malakasi, salomatligi ahvoli va boshqa talab etiladigan hujjatlarni taqdim etish;

III.Xodim va ish beruvchi tomonidan mehnat shartnomasining zaruriy va qo`shimcha shartlarini muhokama etilishi, shu asosda yozma shaklda mehnat shartnomasi loyihasining tuzilishi;

IY.Mehnat shartnomasini xodim tomonidan ish, beruvchi (uning vakolatli vakili) tomonidan imzolash.

Mehnat shartnomasi tuzishdan ish beruvchi g`ayri qonuniy ravishda bosh tortishi mumkin emas. Ishga kiruvchi shaxs mehnat shartnomasi tuzilishidan oldin qonunda talab etiladigan hujjatlarni taqdim etishi lozim(80-modda). Qonun hujjatlarida ko`rsatilmagan hujjatlarni talab qilish taqiqlanadi.

Mehnat shartnomsida qo`shimcha shart sifatida dastlabki sinov qo`llashlik nazarda tutilgan bo`lsa, u holda bu haqda ishga qabul qilish haqidagi buyruqda ko`rsatib qo`yiladi. Sinov muddati uch oydan oshib ketmasligi kerak. Agar dastlabki sinovni o`tash haqida mehnat shartnomasida shartlashuv bo`lmasa, dastlabki sinovsiz ishga qabul qilingan, deb hisoblanadi (84-modda). Ayollarda (yoshga to`lmagan bolasi bo`lsa), homilador ayollar, korxonaning talabi bilan ishga kelganlar, 6 oylik muddatga mehnat shartnomasini tuzganlar uchun dastlabki sinov qo`llanilmaydi.

Mehnat shartnomasi uch xil muddatga tuziladi: 1) nomuayyan muddatga; 2) muayyan muddatga (5yilgasha); 3) vaqtinshalik, mavsumiy ishlar ushun.

Mehnat shartlari o`z ichiga mehnat jarayonidagi barcha ijtimoiy va ishlab chiqarish omillarini oladi. Ijtimoiy omillar: mehnat haqi miqdori, ish vaqtining, ta`tilning muddati va boshqa shartlardan iborat. Ishlab chiqarish omillariga esa texnika, sanitariya,gigiyenaga oid ishlab shiqarish, maishiy va boshqa shartlar kiradi.

Mehnat shartlarini shartnoma taraflaridan birining tashabbusi bilan o`zgartirilishiga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda yo`l qo`yiladi (89-modda). Mehnat shartlarini o`zgartirish hollarining eng muhimi boshqa ishga

ko`chirishdir. Xodimni doimiy boshqa ishga o`tkazish faqat uning roziligi bilangina amalga oshiriladi (92-modda).

Mehnat shartnomasi bekor qilinayotgan paytida xodimlarning huquqlari ustuvor himoyalaniishi tamoyillari belgilangan bo`lib, bu masalada xodimlar uchun ish beruvchilarga nisbatan kengroq huquqlar, qo`shimcha kafolatlar berilgan. Mehnat shartnomasi quyidagi asoslarda bekor qilinadi (97-modda):

- 1) Taraflarning kelishuviga ko`ra;
- 2) Taraflardan birining tashabbusi bilan;
- 3) Mehnat shartnomasi muddatining tugashi bilan;
- 4) Mehnat shartnomasi taraflari (xodim yoki ish beruvchi)ga bog`liq bo`lmagan holatlar;
- 5) Mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslarga ko`ra;
- 6) Xodimning saylovdan yoki tanlovdan o`ta olmay qolganligi yoki unda qatnashishni istamaganligi.

**Ish vaqti, dam olish vaqti, ta`tilar va ish haqi.** Ish-vaqti qonun bilan uning asosida belgilangan vaqt bo`lib, bu vaqt mobaynida xodim yoki mehnat tartibi asosida belgilangan qoidalariga muvofiq suratda, o`z mehnat vazifalariga mos ravishda xizmat burchini bajarishi lozim.

Ish vaqtining muddati muhim mehnat sharoitlaridan biri bo`lib, barcha mehant qiluvchilarga dahldor. Shuning uchun ham qonun sutka va hafta davomidagi ish vaqti muddati normasini normal, qisqartirilgan, to`liqsiz, normalanmagan va hokazo qilib belgilaydi. Ish vaqtining normal muddati haftasiga 40 soatdan oshiq bo`lishi mumkin emas. Ish haftasi bir va ikki dam olish kunlari bilan besh kunlik, olti kunlik bo`lishi mumkin. Sutka davomidagi ish vaqti muddati ish kuni deb atalib, etti soatni tashkil etadi. Besh kunlik ich haftasida esa ishning muddati sakkiz soatdan ortib ketmasligi lozim(114-modda). Bayram(ishlamaydigan) kunlari arafasida ish kuni muddati (smena) kamida bir soatga qisqartiriladi(121-modda).

Mehnat sharoiti ishlab chiqarishning zararli omillari bilan birga kechadigan ishchi va xizmatchilar uchun, oliy va o`rta o`quv yurtlarining o`qituvchilari,

muallimlari, tibbiy xodimlar, maktabgacha muassasalar xodimlari hamda katta ruhiy va aqliy mehnat sarflash talab etiladigan joylarda ishlovchilar uchun qisqartirilgan ish vaqti belgilanadi(116,117,118-modda).

Qonunga binoan tungi ish muddati bir soatga qisqartiriladi(soat 22dan ertalab 6ga qadar).

18 yoshga yetmagan shaxslarni tungi va ish vaqtidan tashqari ishlarga jalb etish taqiqlanadi.

Dam olish vaqti xodim mehnat majburiyatlarini bajarishdan ozod qilingan vaqt bo'lib, bu nafaqat xodim ushuni ahamiyatga ega bo'lgan hodisa bo'lmay, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan voqelikdir.

Dam olish vaqtining quyidagi turlari mavjud:

- 1) ish kuni davomidagi dam olish vaqti;
- 2) ish kunlari orasidagi dam olish vaqti;
- 3) ish haftalari o'rtasidagi dam olish vaqti (dam olish kuni);
- 4) bayram kunlaridagi dam olish vaqti;
- 5) yillik mehnat ta'tili.

Dam olish kunlarida ishlatish taqiqlanadi. Xodimlarni ular dam oladigan kunlari ishga jalb etish mehnat qonunchiligi yo'l bergandagina amalga oshiriladi(220,228,245-modda) va buning uchun alohida kompensatsiya va haq to'lanadi(157-modda). Ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlari va bayram kunlaridagi ishga ikki hissadan kam bo'lmagan miqdordagi haq to'lanadi. Xodimning roziligi bilan boshqa dam olish kuni (otgul berish) berish yo'li bilan ham hal qilinishi mumkin.

Yillik mehnat ta'tili xodimlar uchun kafolatlangan dam olish vaqtining asosiy shaklidir. Barcha xodimlarga ish joyi (lavozimi) saqlangan holda har yili 15 ish kunidan kam bo'lmagan miqdorda yillik mehnat ta'tili beriladi.

Mehnat sharoiti zararli yoki noqulay joylarda qo'shimcha mehnat ta'tili berish, xodimlarning ayrim toifalariga (18 yoshga to'lmaganlar, nogironlar, maorif, sog'liqni saqlash va boshqa ayrim muassasalarning xodimlari va boshqalar) uzaytirilgan mehnat ta'tili berish nazarda tutilgan.

Mehnat qonunchiligida xodimlarga oilaviy va boshqa sabablarga ko'ra ijtimoiy ta'til berish ham belgilangan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. Ish haqi saqlangan holdagi;
2. Homiladorlik va farzand ko'rish;
3. Bolani parvarishlash davri uchun;
4. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olayotgan xodimlarga beriladigan o'quv ta'tili;
5. Ijodiy ta'til.

Mehnat qonunchiligida xodimlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish maqsadida ish haqininigeng kam miqdori belgilab qo'yilgan(155-modda). Bu miqdor narx-navoning oshib borishiga qarab indeksatsiyalanib, oshirib boriladi.

Ish beruvchi o'zining moliyaviy holatidan qat'i nazar xodimga bajargan ishi uchun haqni belgilangan muddatlarda to'lashi shart. Mehnat shartnomasining taraflar kelishuvi bilan belgilangan mehnat haqi miqdori jamoa shartnomasi yoki kelishuvida o'rnatilgan miqdordan kam bo'lishi mumkin emas(154-modda).

Mehnatga haq to'lashning yakka shartlarini xodim uchun noqulay tomonga o'zgartirishga uning rozilgisiz yo'l qo'yilmaydi. Istisno tariqasida o'zgartiriladigan bo'lsa bu haqda xodim kamida ikki oy oldin ogohlantirilishi lozim(156-modda).

Mehnat muhofazasi, mehnat nizolari va ularni ko'rib chiqish tartibi. Barcha korxonalarda xavfsizlik va tozalik talablariga javob beradigan mehnat sharoitlari yaratilgan bo'lishi kerak. Bunday sharoitlarni yaratib berish ish beruvchining majburiyatiga kiradi.

Xodimlar texnika xavfsizligi , ishlab chiqarish sanitariyasi, yong'in chiqishdan saqlanish kabi qoidalar haqida yo'l-yo'riq berish hamda mehnatni muhofaza qilishning hamma talablariga rioya etilishini doimiy ravishda tekshirib borish vazifasi ish beruvshi zimmasiga yuklatiladi(215-modda). Mehnatni muhofaza qilish bo'yisha o'quvdan, yo'l-yo'riqdan o'tmagan va bilimlari tekshirilmagan xodimlarni ishga qo'yish taqiqlanadi.

Mehnat sharoiti noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlar belgilangan me'yorlar bo'yicha:

- sut (unga tenglashtirilgan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari);
- davolash-sog'lomlashtirish oziq-ovqatlari;
- gazli sho'r suv (issiq sexlarda ishlovchilar uchun);
- mahsus kiyim-bosh kiyim, maxsus poyabzal, boshqa shaxsiy gigiena va himoya vositalari bilan bepul ta'minlanadilar.

Sog'ligi holatiga ko'ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan xoli bo'lgan boshqa ishga o'tish-xodimning huquqlariga kiradi. Bunda xodim kamroq haq to'lanadigan ishga o'tkazilganda shunday ishga o'tkazilgan kundan boshlab ikki hafta davomida avvalgi o'rtacha oylik ish haqi olishi kerak(218-modda).

Xodim o'z hayoti yoki sog'ligiga tahdid solayotgan ishni bajarishni rad etish huquqiga ega. Ana shu davr mobaynida (zarur choralar ko'rilguniga qadar bo'lgan vaqt) xodimning o'rtacha ish haqi saqlanadi(219-modda).

Ish beruvchi ish o'rnida kasal bo'lib qolgan xodimlarga dastlabki tibbiy yordam ko'rsatishga qaratilgan choralar ko'rishi shart. Ish joyida og'rib qolgan xodimlarni davolash –sog'lomlashtirish muassasalariga olib borish, zarur hollarda, ish beruvchining hisobidan amalga oshiriladi.

Mehnat qonunchiligiga ko'ra xodimlar majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishlari kerak. Xodimlar tibbiy ko'rikarlardan o'tishdan bosh tortishga haqli emaslar. Xodimda kasb kasalligi belgilari aniqlangan taqdirda ma'muriyat tibbiy xulosa asosida uning ixtisosini o'zgartirgunga qadar o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda boshqa ishga o'tkazishi lozim.

Mehnat nizolari-mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy aktlar, jamoa shartnomasi va mehnat to'g'risidagi boshqa bitimlar, shuningdek mehnat shartnomasi kontrakt shartlarining qo'llanilishi yuzasidan xodimlar bilan ma'muriyat(ish beruvchi) o'rtasida yuzaga keladigan kelishmovchilik va ixtiloflardan iborat.

Mehnat sharoitlarining noqulayligi, mehnat shartlarining o'zgartirilishi, bekor qilinishi, xodimlarga qonunda nazarda tutilgan kafolatlarni bermaslik kabi qator ob'yektiv hamda sub'yektiv sabablarga ko'ra xodim va ish beruvchi o'rtasida o'zaro kelishmovchilik-mehnat nizosi yuzaga keladi. Agarda bu ixtilof tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan bartaraf etilmasa, u holda bu nizo qonunda belgilangan huquqiy vositalar yordamida hal etiladi.

Mehnat nizolarini ko'rib hal etilishi usuliga ko'ra umumiy va maxsus mehnat nizolariga, mohiyatiga ko'ra mehnat shartlarini belgilash, o'zgartirish, bekor qilishga oid mehnat nizolari hamda mehnat shartlarini qo'llash bilan bog'liq mehnat nizolariga bo'linadi. Umumiy mehnat nizolari barcha xodimlarga oid nizolar bo'lib, umumiy tartibda nizoni ko'rib chiqish komissiyasi yoki sud yo'li bilan hal etiladi. Umumiy mehnat nizolari ikki bosqishda, mehnat nizolari komissiyalari va sud tomonidan ko'rib chiqiladi, xodim bevosita sudga bimalol murojaat etish huquqiga ega.

Mehnat nizolari komissiyasi korxona, muassasa, tashkilotning bevosita o'zida faoliyat olib boradi. Mazkur komissiya ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi tomonidan tenglik asosida tuziladi(262-modda).

Mehnat nizosini hal qilishini so'rab murojaat etish muddatlari:

- ishga tiklash nizolari bo'yicha-xodimga u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqidagi buyruqning nusxasi berilgan kundan boshlab bir oy;
- xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zararni to'lash haqidagi nizolar bo'yicha zarar etkazilganligi ushuni ish beruvchiga ma'lum bo'lgan kundan boshlab bir yil;
- boshqa mehnat nizolari bo'yicha xodim o'z huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab uch oy.

Mehnat nizolari bo'yicha komissiya ariza berilganidan keyin o'n kun mobaynida mehnat nizosini ko'rib chiqishi va qaror qabul qilishi kerak. Mehnat nizolari komissiyasining qarori bu qaror ustidan shikoyat qilish uchun belgilangan

o`n kunlik muddat o`tgandan keyin uch kun ishida ish beruvchi tomonidan bajarilishi kerak.

Ishga tiklanish bo`yicha da`vo arizasiga binoan xodim quyidagilarni talab qilishga haqli:

- bevosita o`zining ishga tiklanishi;
- majburiy progul uchun haq to`lashni;
- mazkur ma`naviy zararni qoplashni.

Ishga tiklash bo`yicha sud qarorini bajarish ish beruvchi tomonidan kechiktirilganda sud xodimga o`rtacha ish haqi to`lash haqida ajrim chiqarib beradi.

Xodimning sog`ligiga yetkazilgan zararni qoplashga doir nizolar bo`yicha sudga murojaat qilish uchun muddat belgilanmaydi.

Mehnat nizolari komissiyasi o`z majlisida guvohlarni chaqirtirish, mutaxassislarni, korxonada faoliyat ko`rsatayotgan ishlab chiqarish vakillarini taklif qilish huquqiga ega.

Mavzuni takrorlash uchun savollar.

1. Mehnat huquqi nima?
2. Mehnat huquqining sub`yektlarini ayting
3. Mehnat huquqining manbalarini ayting
4. Mehnat huquqining tamoyillariga nimalar kiradi?
5. Mehnat shartnomasini tushuntiring
6. Mehnat shartnomasi qanday asoslarda bekor qilinadi?
7. Ish vaqti nima?
8. Dam olish vaqtini izohlab bering
9. Ta`tilar, ularning muddatlarini ko`rsatib bering
10. Mehnat muhofazasi nima?
11. Mehnat nizolari tushunchasini izohlang
12. Mehnat nizolari qay tartibda ko`rib chiqiladi?

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2003yil
- O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. Toshkent, Adolat, 1999yil
- Tursunov Y. "Mehnat huquqi". Toshkent, "Moliya", 1999yil
- Gasanov M., Sokolov E. O'zbekiston Respublikasida mehnat shartnomasi (kontrakt). 1- va 2-kitob. Toshkent., 1996yil. 5-52 bet.
- Trudovoe pravo. Moskva. 1998god.
- Tursunov Y., Usmonova M. Mehnat huquqi. Toshkent, "Moliya", 2001yil
- Huquqshunoslik. O'quv qo'llanmasi. Toshkent., 2002 yil.

7-MAVZU. OILA HUQUQI ASOSLARI.

Reja.

1. Oila huquqi tushunchasi.
2. Nikoh tushunchasi, uni tuzish tartibi va shartlari.
3. Nikoh shartnomasi, er va xotinning shaxsiy, mulkiy huquqlari.
4. Ota-onalik va uning huquqiy oqibatlari.

Tayanch iboralar:

Oila, ota-ona, farzandlar, oila va davlat, nikoh, nikoh tomonlarining tengligi, er-xotin, nikoh shartnomasi, aliment.

Oila huquqi tushunchasi, predmeti, tamoyillari va manbalari. Oila uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot natijasidir, jamiyat tuzilishining ob'yektiv zarur, ajralmas qismidir.

Oila eng muhim ijtimoiy vazifalarni: insonni yaratish, bolalarni tarbiyalash, odamlarni jismoniy va ma'naviy jihatdan kamol toptirish, ularni ma'naviy birlashtirish, birgalikda xo'jalik yuritishni ta'minlash, o'zaro yordam ko'rsatish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash, demografiya jarayonlarini yaxshilash vazifalarini bajaradi.

Oila bolalar to'g'risida g'amxo'rlik qilishga, ona va bola manfaatlarini muhofaza etishga, onalikni rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlar turkumini nazarda tutuvchi huquq oilaviy munosabatlarni mustahkamlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Oila davlat himoyasiga olingan bo'lib, Konstitutsiyada bu haqda shunday deyiladi:

“Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega”. Oila-kishilarning tabiiy-biologik, huquqiy va ma'naviy munosabatlariga asoslangan birlik.

Oila huquqi er-xotinlar, ota-onalar va bolalar, shuningdek oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi huquq tarmog'idir. Ammo oilaviy munosabatlarning barchasi ham huquq tomonidan tartibga solinmaydi. Bu munosabatlarning aksariyati axloqiy, ruhiy tusda bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra ularni huquq yo'li bilan tartibga solib bo'lmaydi. Oila huquqi fuqarolik huquqi bilan chambarshtas bog'liqdir. Oila huquqi fuqarolik huquqidan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

1) Oilaviy munosabatlar fuqarolik huquqiga xos bo'lmagan yuridik faktlardan vujudga keladi;

2) Oilaviy munosabatlar fuqarolik huquqidan farqli o'laroq, ko'proq shaxsiy-huquqiy mohiyatga ega;

3) Oilaviy huquq sub'yektlarining huquq va majburiyatlari begonalashtirilmaydigan, ya'ni boshqalarga topshirib bo'lmaydigan huquq va majburiyatlardan iborat.

Oila huquqi predmeti – oilaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlardan iborat. Oila huquqi normalari quyidagilardir:

- nikohdan o'tish tartibini va shartlarini belgilaydi;
- oilada er-xotin o'rtasida, ota-onalar va bolalar, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida paydo bo'ladigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga solib turadi;

- boshqalarning bolalarini o'ziga bola qilib olish, vasiylikka olish, homiylik qilish, bolalarni o'z tarbiyasiga olish munosabati bilan vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solib turadi;

- nikohni bekor qilish tartibi va shartlarini belgilaydi;

- fuqarolik holati to'g'risidagi hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgilaydi.

Oila huquqining manbasi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

- 1998 yil 30 aprelda qabul qilinib, 1998 yil 1 sentyabridan kushga kiritilgan.

Oila Kodeksi; -O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ayrim moddalari;

- Oila to'g'risidagi qonunlar.

Oila huquqining asosiy qoidalar:

- oilada barsha masalalarni hal qilishda er-xotinning teng huquqligi;

- onalikni muhofaza qilish va rag'batlantirish;

- balog'atga yetmagan bolalarni tarbiyalash to'g'risida g'amxo'rlik qilish;

- bir nikohlik;

- nikoh ittifoqining erkinligi va ixtiyoriyligi;

- oilaviy munosabatlar qatnashchilarining bir-birini ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab –quvvatlashi hamda bir-biri to'g'risida g'amxo'rlik qilishi.

Nikoh tushunchasi. Bu tushuncha oila huquqining asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Nikohning ta'riflari xilma-xil bo'lib, ulardan eng maqbuli quyidagishadir: “Nikoh-bir-birini sevgan va nikoh yoshiga yetgan erkak va ayolning umuminsoniy qadriyatlar va Sharq an'analariga asoslangan oilada bolalarni tarbiyalashga yo'naltirilgan, o'zaro shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradigan qonun asosidagi oilani yaratish maqsadidagi o'zaro kelishilgan, butun umrga mo'ljallangan ittifoqdir”.

Nikoh va oila bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalar. Shu jihatdan, oila-eng avvalo jamiyat asosini tashkil etuvchi, bolalarni tarbiyalash va ularni shaxs sifatida

shakllantirish muhiti bo'lgan birlamchi yacheykadir. Yoki boshqacha qilib aytganda, oila jamiyatning ilk bo'g'inidir.

Oila muqaddasdir. Jamiyat unga g'amho'rlik qiladi. Oilaning muqaddasligiga yondashuv turlicha bo'lishi mumkin. Bugungi kunda ayrim mutaxassislar, masalan, sotsiologlar oila bo'lishi uchun erkak va ayolning o'zaro munosabati yetarli asos deb hisoblamogchi bo'ladilar. Ularning fikricha farzandlar bu yerda rol o'ynamaydi. Yuristlar esa oila bo'lishi uchun, albatta qonuniy nikoh bo'lishi, ya'ni erkak va ayolning o'zaro ittifoqi tegishli organlar ro'yxatidan o'tishi kerak, aks holda erkak va ayolning birga yashashi (necha yilligidan qat'iy nazar) nikohni keltirib chiqarmaydi deb hisoblaydilar. Shundan kelib chiqib diniy rasm-rusmga asoslangan nikohni huquqiy ahamiyatga ega emas deb e'tirof etiladi.

Nikoh shartlari:

- 1) o'zaro nikoh tuzishni istagan shaxsning nikoh yoshiga yetishi;
- 2) nikohdan o'tuvchilarning o'zaro roziliklari.

Bundan boshqa shartlar ham mavjud, ya'ni muhabbat bo'lishi, biri-birisi bilan bog'lanib qolishi, bir-birini yoqtirishi kabi. Bunday shartlarni ayrim huquqshunoslar tan olsa, ayrimlari rad etishadi.

Nikoh yoshi. Oila kodeksining 15-moddasiga binoan O'zbekistonda erkaklar uchun o'n sakkiz yosh, ayollar uchun o'n etti yosh yetib belgilangan. Nikoh yoshi uzrli sababalarga ko'ra, mahalliy hokimiyat organlarining ruxsati bilan, ko'pi bilan bir yilga kamaytirilishi mumkin. Nikoh yoshi har bir mamlakatning o'z shart-sharoitidan kelib chiqadi va u hamma joyda bir xil qilib belgilangan emas.

Quyidagi holatlar nikoh tuzishga qarshilik qilishi mumkin:

- nikohga kiruvchilardan birining boshqa nikohda bo'lishi;
- nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;
- nikohga kiruvchilardan birining ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilishi.

Tibbiy ko'rikdan o'tish. Oila Kodeksining 17-moddasi "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish" deb nomlangan. Unga binoan, nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shuningdek, tibbiy-irsiy hamda oilani rejalashtirish masalalari bo'yicha maslahatlar berish nikohlanuvchi shaxslar roziligi bilan davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Nikoh tuzish tartibi. Qonunga ko'ra, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi.

Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza bergan kundan boshlab bir oy o'tganidan keyin, ularning shaxsan o'zlari ishtirokida amalga oshiriladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi nikohni ro'yxatga olishni rad etganda, shikoyat bilan sudga yoki bo'ysunishiga ko'ra yuqori turuvchi organga murojaat qilinishi mumkin.

Quyidagi holatlarda nikoh tugatilishi mumkin:

- er-xotindan birining vafoti yoki ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilinishi oqibatida;
- er-xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq nikohdan ajratish oqibatida;
- sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er-xotinning vasiysi bergan ariza natijasida.

Nikohni ajratish. U ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi.

1) Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohni ajratish.

Bu balog'atga yetmagan bolalari bo'lmagan er-xotinning o'zaro roziligi asosida amalga oshiriladi. Quyidagi holatlarda nikohdan ajratish er-xotinning arizasiga binoan balog'atga yetmagan bolalarining borligidan qat'iy nazar amalga oshiriladi:

- sud tomonidan bedarak deb topilgan bo'lsa;
- sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa (ruhiy kasalligi yoki aqliy zaifligi sababli);

- sodir etgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etilgan bo'lsa.

2) Sud tartibida nikohdan ajratish. U quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- nikohdan ajratishda er-xotindan birining yo'qligi sababli;
- umumiy balog'atga yetmagan bolalari bo'lgan er-xotinning o'zaro roziligi bilan.

Nikohdan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ajratilganda ajratilganlik ro'yxatga olingan kundan, nikohdan sudda ajratilganda esa, sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab nikoh tugatiladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish. U sud tartibida amalga oshirilib, quyidagilar asos deb olinadi:

- nikohni tuzish shartlarining buzilishi;
- nikohni tuzishga halaqit beruvchi holatlarning mavjudligi;
- er-xotin yoki ulardan biri oila qurishni maqsad qilmagan, ya'ni sohta nikoh,
- nikohlanuvchi shaxslardan birining tanosil kasalligi yoki odam immuniteti taqchilligi virusi borligini yashirishi.

Nikoh shartnomasi. Er va xotinning shaxsiy, mulkiy huquq va majburiyatlari.

Nikoh ro'yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e'tiboran ular o'rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi. Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik va Oila Kodekslari normalari bilan tartibga solinadi. Er-xotinning mulkiy munosabatlari ikki xil usul bilan tartibga solinadi:

- 1) Er-xotin mulkining qonuniy tartibi;
- 2) Er-xotin mulkining shartnomaviy tartibi.

1. Er-xotin mulkining qonuniy tartibi.- Er-xotin nikoh davomida birgalikda orttirgan mol-mulklariga egalik qiladilar, undan foydalanadilar va bu mulkni tasarruf etadilar.

Er-xotin nikoh davomida orttirgan mol-mulklarni, shuningdek nikoh qayd etilunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari umumiy mulki hisoblanadi.

Er va xotinning har birining mulki. Bu er va xotinning nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek, ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulkidir.

Qimmatbaho buyumlar va zebu ziynatlardan boshqa shaxsiy foydalanishdagi buyumlar (kiyim-bosh, poyabzal va h), garshi nikoh davomida er va xotinning umumiy mablag'i hisobiga olingan bo'lsa ham, ulardan foydalanib kelgan er va xotinning xususiy mulki hisoblanadi.

Nikoh bekor qilinganda faqat birgalikdagi mol-mulkni bo'lish masalasi qo'yiladi. Er va xotinning har birining mulki o'zaro bo'linmaydi. Balog'atga yetmagan bolalar uchun sotib olingan narsa-ashyolar ham bo'linmaydi. U bolalar bilan birga yashaydigan er yoki xotinga berilishi kerak.

2. Er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi. U nikoh shartnomasini tuzish orqali rasmiylashtiriladi. Nikoh – nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvidir (Oila kodeksining 29-moddasi).

Nikoh shartnomasi nikohgasha ham (u davlat ro'yxatiga olinguniga qadar), nikoh davrida ham tuzilishi mumkin. Faqat nikoh ro'yhatga olinishidan oldin tuzilgan nikoh shartnomasi u davlat ro'yxatiga olingan kundan e'tiboran huquqiy kuchga kiradi. Qoida tariqasida nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tasdiqdan o'tkaziladi.

Nikohga kirishda nikoh shartnomasi er-xotining ikkalovining o'zaro roziligi bilangina tuzilishi mumkin. Nikoh davomida taraflarning kelishuviga binoan nikoh shartnomasi o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Nikoh shartnomasining mavjudligi nikohning majburiy shartlariga kirmaydi. Nikoh shartnomasining bekor qilinishi nikohni ajratishga olib kelmaydi, lekin nikohning ajratilishi nikoh shartnomasining bekor qilinishiga sabab bo'ladi.

Nikoh shartnomasining mazmuni. Nikoh shartnomasiga ko'ra er va xotin birgalikdagi umumiy mulkning qonunda belgilangan tartibini o'zgartirishga, er va xotinning barcha mol-mulkiga, uning ayrim turlariga yohud er va xotindan har birining mol-mulkiga nisbatan birgalikdagi, ulushli yoki alohida egalik qilish tartibini o'rnatishga haqlidir. Shartnoma er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lg'usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin (OK,23-modda).

Nikoh shartnomasiga muvofiq er va xotin:

- o'zaro moddiy ta'minot berish;
- oila xarajatlarini ko'tarish;
- bir-birining daromadida ishtirok etish;
- boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish;
- birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olish;
- nikohdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mulkni aniqlab olish;
- nikoh shartnomasiga er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqa qoidalarini kiritishga haqlidir.

Ota-onalik va uning huquqiy oqibatlar. Bolalar muayyan ota-onalardan tug'ilganligining belgilangan tartibda tasdiqlanishi ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar vujudga kelishining negizini tashkil etadi. Nikohda bo'lgan ota-onadan tug'ilgan bolaning paydo bo'lishi ota-onaning nikohi bilan bog'liq hujjatlarda qayd etiladi va tasdiqlanadi. Bunda er-xotinning birga yoki alohida yashashining ahamiyati yo'q. Bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi unda nomlari ko'rsatilgan ota-onadan yoki onadan tug'ilganligiga dalildir, Ona tibbiyot muassasida bolaning shu onadan tug'ilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida aniqlanadi. Ota, erkakning bolaning onasi bilan nikohda turganligi dalili aniqlanadi. Bolaning onasi bilan nikohda turmagan otaning otalik huquqi ota va onaning birgalikda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida arizalari bilan yohud er va xotindan birining arizasiga binoan sud taribida

belgilanadi. Ota-onalarning yozma qaydi ota yoki ona sifatida yozib qo'yilgan shaxs yohud bolaning haqiqiy otasi yoki onasining talabi bilan faqat sud tartibida rad etilishi mumkin. Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi. Mobodo bolaning ota-onasi turli familiyalarda bo'lsa, o'zaro kelishuvga ko'ra, bolaga otasining yoki onasining familiyasi beriladi.

Bolaning asosiy huquqlari quyidagilar:

1. Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega (OKning 65-moddasi).

2. Ota-onasining nikohi bekor qilinganda yoki sud tomonidan haqiqiy emas deb topilganda ham, ota-onalar alohida-alohida yashaganlarida ham bola o'z ota-onasi bilan ko'rishish huquqiga ega (ota-onalik huquqidan mahrum etilgan ota-onalar bundan mustasno), (Oila Kodeksining 66-moddasi).

3. Bobo, buvi, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqin qarindoshlar bola bilan ko'rishib turish huquqiga ega (OKning 77-moddasi).

4. Ota-ona (ulardan biri) bolani tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda yohud o'z huquqlarini suiste'mol qilganda bola o'zini himoya qilinishini so'rab vasiylik va homiylik organiga, o'n to'rt yoshga to'lgash, mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqiga ega (OKning 67-moddasi).

5. Oilada bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda bola o'z fikrini ifodalashga, har qanday sud yoki ma'muriy muhokoma davrida so'zlashga haqli (OKning 68-moddasi).

6. Bola ismi va familiyasini o'zgartirish huquqiga ega (OKning 70-moddasi).

Voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlari:

- Ota-ona hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo'lish huquqiga ega emas.

- Voyaga yetmagan bolalar o'z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta'minot olish huquqiga ega.

- Ota-ona va bolalarning alohida-alohida mulki bo'lishi mumkin va birga yashab turganda ular bir-birlarining roziligi bilan bunday mulkka egalik qilishlari va undan foydalanishlari mumkin.

- Voyaga yetmagan bolalar qonunda belgilangan tartibda xususiy mulk egasi bo'lishga haqlidirlar.

- Ota-ona farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar voyaga yetmagan bolalarning xususiy mulkini fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqaradilar va tasarruf etadilar.

- Ota-ona farzandlariga nisbatan teng huquq va teng majburiyatlarga ega.

- Ota-ona o'z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar, hamda har qanday yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, sudda alohida vakolatsiz ularning huquqlarini va manfaatlarini himoya qiladilar.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish. Ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlagan hollarda ota-ona sud hukmiga ko'ra ota-onalik huquqidan mahrum qilinish yohud ularning ota-onalik huquqlari cheklanishi mumkin. Bunga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

1) Ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan, aliment to'lashdan bo'yin tovlasa;

2) Uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona, davolash, tarbiyalash muassasasidan olishdan bosh tortsa;

3) Ota-onalik huquqini suiste'mol qilsa, shafqatsiz muomala qilsa, jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir etsa;

4) Muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka mubtalo bo'lgan bo'lsa;

5) O'z bolalarining hayoti yoki sog'ligiga yohud eri(xotini)ning hayoti yoki sog'ligiga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa.

Ota-onalik huquqidan mahrum etilgan ota-ona bolalarga nisbatan barcha huquqlardan mahrum bo'ladi. Biroq, bu ota-onani o'z bolasiga ta'minot berish majburiyatidan xalos etmaydi.

Quyidagi holatlarda ota-onalik huquqidan cheklanishga yo'l qo'yiladi:

1) bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish ota-onaga (ulardan biriga) bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra bola ushuni xavfli bo'lganda;

2) bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish oqibatida ota-onaning xulq-atvori bola uchun xavf tug'dirsa, ota-onani (ulardan birini) ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun esa, yetarli aniqlanmagan taqdirda.

Aliment majburiyatlari – oilaning mehnatga layoqatsiz a'zolarining ishlab topgan mablag'larining bir qismini oilaning mehnatga layoqatsiz a'zolarini ta'minlashga ajratish majburiyatlaridan iborat. Ta'minot bo'yicha majburiyatlarga quyidagilar ega bo'ladi:

1) Voyaga yetmagan bolalariga nisbatan, shuningdek, yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz voyaga yetgan bolalariga nisbatan ota-onalar.

2) Yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz ota-onasiga nisbatan voyaga yetgan farzandlar.

3) Mehnatga layoqatsiz yordamga muhtoj eri(xotiniga nisbatan xotin (er).

4) Voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz yordamga muhtoj aka-ukalari va opa-singillariga nisbatan aka-ukalar va opa-singillar.

5) Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj nevaralarning ota-onasi, eri yoki xotini va voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo'lmasa yohud ulardan ta'minot uchun mablag' ololmasa, ularga nisbatan bu majburiyat bobo va buvining zimmasiga yuklatilishi mumkin.

6) O'zlarining voyaga yetgan bolalaridan yohud eri yoki (xotinidan) (sobiq eri xotinidan) ta'minot olmaydigan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bobo va buviga ta'minot berish majburiyati yetarli mablag'ga ega bo'lgan voyaga yetgan mehnatga layoqatli nabiralar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

7) Agar o'gay ota va o'gay ona o'zlarining mehnatga layoqatli bolalaridan ta'minot ololmagan hollarda mehnatga layoqatsiz o'gay ota va o'gay onaga nisbatan sudning hal qiluv qarori asosida ta'minlash majburiyati o'gay o'g'il yoki qizga yuklatilishi mumkin.

Oila Kodeksining 99-moddasiga binoan, voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti

uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola-uchun to'rtidan bir qismi, ikki bola uchun-uchdan bir qismi, uch va undan ortiq bola uchun- yarmisi miqdorida undiriladi. To'lovlar miqdori sud tomonidan kamaytirilishi mumkin. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori eng kam ish haqining ushdan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak.

Sudga murojaat etmay, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga kelgan er-xotin ushbu kelishuvni notarial tasdiqlab olishlari kerak. Bu – kelishuv ijro varaqasi kuchini beradi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar.

1. Oila huquqi tushunchasini tushuntiring
2. Oila huquqi predmeti nimadan iborat?
3. Oila huquqining manbalariga nimalar kiradi?
4. Nikoh tushunchasini izohlab bering
5. Nikoh shartlariga nimalar kiradi?
6. Nikoh tuzish tartibini tushuntiring
7. Nikoh shartnomasi nima?
8. Er va xotinning umumiy mulki.
9. Er va xotinning har birining mulki nimalardan iborat?
10. Nikohni bekor qilish asoslarini ayting
11. Ota-onalik nima?
12. Bolaning asosiy huquqlarini ayting?
13. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish nimani anglatadi?
14. Aliment majburiyatlari nima?

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent., 2003 yil
- I. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. Toshkent., 1996 yil
- Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. Toshkent., 2001 yil

- O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. Toshkent., 1998 yil
- F.Otaxo'jaev. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. Toshkent., 1995 yil
- G.Abdumajidov. Fuqarolik va Oila munosabatlari.
- Huquqshunoslik. O'quv qo'llanmasi. Toshkent., 2002 yil.

8-MAVZU: EKOLOGIYA HUQUQLARI ASOSLARI.

Reja:

1. Ekologiya huquqi tushunchasi va uning mohiyati.
2. Ekologiya huquqi ob'yektlari
3. Ekologik huquqiy javobgarlik
4. Yerdan, suvdan, yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni huquqiy muhofaza qilish

Tayanch iboralar:

Ekologiya huquqi, ekologik huquq ob'yektlari, ekologik huquqbuzarlik, ekologik huquqiy javobgarlik, tabiatni muhofaza qilish.

Ekologik, huquq uning tashkiliy asoslari . BMT nizomi va xalqaro inson huquqlari prinsiplariga mos keluvchi «XXI asr kun tartibi» strategik dasturining 3-tamoyilida «Rivojlanish huquqiga shunday rioya qilinishi lozimki, bu hozirgi va kelajak avlodlarning qulay atrof-muhitga ega bo'lishi huquqi va taraqqiyot sohasidagi ehtiyojlarini teng ravishda ta'minlab bersin» deyiladi. Fuqarolar ekologik huquqlarining tamoiлий-huquqiy asosi deganda fuqarolarni xavfsiz va qulay tabiat muhitga bo'lgan talabini qondirish borasida davlat, jamoa va mansabdor shaxslarning ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi yuridik jihatdan mustahkamlangan harakatlari majmuasini tushunamiz. Ushbu harakatlar tizimining nazariy asosi prezidentimizning asarlarida xususan, «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot omillari» nomli asarida atrofийsha yoritib berilgan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining mahsus qarorlari bilan tasdiqlangan «1999-2005 yillarda O'zbekiston

Respublikasining atrof-muhitini muhofaza qilish dasturi»da, «O'zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishini Ekologik ta'minlashning Milliy harakatlar rejasi»da, «O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit gigienasi bo'yicha milliy harakatlar dasturi»da, «Biologik rang-baranglikni saqlash bo'yicha milliy strategiya va harakatlar rejasi»da ifoda etilgan.

Tabiatni muhofaza qilish organlari, shuningdek, tabiatdan foydalanuvchilar zimmasiga ikkilamshi hom ashyo hamda tabiiy resurslarning hisob-kitobini yuritish vazifasi yuklatilgan. Zero, atrof-muhit tozaligini samarali boshqarish, tabiat resurslarining barcha turlari miqdori va sifat ko'rsatgishlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishni taqozo etadi. Qonunga binoan, tabiatni muhofaza qilish davlat idoralari oldiga yagona davlat kadastrlarini ishlab chiqish va yuritish vazifasi qo'yilgan.

Davlat ekologik ekspertizasi, jamiyatning ekologik xavfsizligini ta'minlash huquqiy ta'minlashning alohida shakli. Ekologik ekspertiza to'g'risidagi qonunga binoan, smeta bahosi va tegishliligi, shuningdek, lisenziyalar va sertifikatlarining ekologik asoslaridan qat'iy nazar, O'zbekiston hududida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan barcha reja va loyihalar davlat ekostik ekspertizasidan o'tkazilishi lozim. Bu ishni o'tkazilishining majburiyligi tamoyili falokatlar va tabiiy ofatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimining muhim elementi sifatida qaralishi kerak.

Ekologik sug'urta tizimi tabiiy falokatlar oqibatida fuqarolar sog'ligi yoki mulkiga yetadigan zararni qoplashni kafolatlashga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, fuqarolar sog'ligi majburiy va ixtiyoriy sug'urta ob'yektidir. «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun»ning 23-moddasiga ko'ra, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, shuningdek, fuqarolar, ularning mulklari va foydalari, ekologik, tabiiy ofatlardan, ixtiyoriy yoki majburiy ravishda davlat ekologik sug'urtasi bilan kafolatlanib qo'yiladi.

Fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlashning kompleks chora-tadbirlaridan biri sifatida meditsina xizmati samaradorligini

oshirish maqsadga muvofiq bo'lishi uchun esa Ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasidagi qonun va me'yorlarni, sanitariya-gigiena me'yorlarining amaldagi tizimini yanada takomillashtirmish lozim.

Aholiga ekologik ta'lim-tarbiya berish fuqarolarning ekologik huquqini aniq ta'minlashning ishonchli kafolatlarini yaratishda muhim imkoniyatdir.

Fuqarolarning ekologik huquqi tegishli ekologik talab va qonunlarga rioya etish, atrof-muhitni muhofoza qilish bo'yicha huquqiy majburiyatlarni ijro etish hamda toza atrof muhitga ega bo'lish sub'yektiv huquqidan foydalanish kabi yo'llar bilan amalga oshiriladi.

Ekologik huquq ob'yektlari. O'zbekiston qonunshiligiga ko'ra, tabiatning huquqiy muhofaza ob'yekti tabiiy muhit, ya'ni tabiatdir. U ob'yektiv tarzda, insondan tashqarida mavjuddir, uning ongiga bog'lik emasdir. U inson yashaydigan makon, uning hayotining shart-sharoitlari va vositasidir. Xo'sh, ekologik huquq ob'yektlariga nimalar kiradi? Bularga yer usti va yer osti suvlari, atmosfera havosi, nodir va qimmatbaho mineral konlari, baliq xo'jaligi, o'rmonlarning qo'riqlanadigan mintaqalari, tarixiy-tabiiy va yodgorlik bog'lari, botanika va hayvonot bog'lari, o'simlik va hayvonot dunyosi, dendrariylar hamda O'zbekiston Respublikasi qonunlari va xalqaro shartnomalar bilan belgilab qo'yiladigan tartib asosidagi boshqa hududlar hamda alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar kiradi.

Ushbu ob'yektlar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) tabiat resurslari; 2) tabiiy muhitning tarkibiy qismi.

Iste'mol manbai bo'lgan va inson tomonidan foydalaniladigan tabiat unsurlariga tabiat resurslari deyiladi.

Davlat milliy tabiat bog'lari tabiatni muhofaza qilish muassasalari bo'lib, ularning hududlari alohida ekologik, tarixiy va estetik qimmatga ega bo'lgan, madaniy maqsadlarda foydalanishga mo'ljallangan tabiat majmui.

Davlat tabiat yodgorliklari deb, ekologik, ilmiy, estetik, madaniy jihatdan noyob, o'rnini to'ldirib bulmas, qimmatli, kelib chiqishi tabiiy bo'lgan ob'yektlarga aytiladi.

O'z navbatida tabiiy resurslar ham ikki xil bo'ladi: tugaydigan va tugamaydigan. Tugaydigan tabiiy resurslar qayta tiklanmaydigan va tiklanadigan turlarga bo'linadi. Birinchisiga neft, ikkinchisiga torf qatlamini kiritish mumkin.

Tugamaydigan tabiiy resurslarga suv, iqlim, fazo kiradi. Biroq bu nisbiy baho. Atrofimiydagi tabiiy muhitda bunga misollar ko'p. Masalan Orol, Amudaryo, Sirdaryo, Dneprning suvining kamayishi.

Ekologik me'yorlash tizimi. Ekologik me'yor biz tomondan iqtisodiy rivojlantirish maqsadida tabiiy resurslardan foydalanish va atrof muhitga ko'rsatiladigan salbiy ta'sirlarni tartibga solsa, ikkinchi tomondan insonning qulay yashash sharoitini ta'minlaydigan tabiat boyliklarini asrashdir.

Ekologik me'yor tabiiy muhit va uning ob'yektlariga ko'rsatiladigan zararli ta'sirlarning oldini olish hamda qulay atrof muhitga bo'lgan inson huquqini amalga oshirish imkonini yaratadi. Atrof tabiiy muhit tozaligini belgilovshi vakolatli davlat organlari tomonidan ta'qiqlanadigan texnik me'yorlardir.

Odatda ekologik me'yorlar alohida tabiiy resurslar va ularga ta'sir ko'rsatish turlariga qarab belgilanadi. Ushbu me'yorlar quyidagicha ko'rsatgichlardan iborat bo'lishi mumkin:

- Tabiiy resurslardan foydalanish hajmini belgilash.
- Tabiiy ob'yektlarning umumiy sifat ko'rsatkislari.
- Tabiiy ob'yektlarga zararli ta'sir ko'rsatish miqdorlari.

Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunni buzganligi uchun huquqiy javobgarlik. Tabiatni muhofaza qilish huquqiy javobgarligi – bu huquqiy javobgarlikning tarkibiy qismi bo'lib, huquqiy javobgarlik uchun mansub barcha shakllar, usullar va shartlar ham unga xosdir. Shuning bilan birga uning o'ziga xos jihatlari ham mavjud.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga doir qonunni buzganlik uchun huquqiy javobgarlik quyidagi holatlarda amal qiladi:

- tabiat qo'riqxonasi fondi hududlari va ob'yektlaridan o'z o'rnida foydalanmaslikda, muhofaza etiladigan hududlarni barpo etish va ularning ishini yo'lga qo'yish loyihalari talablari buzilganda;

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, ularning muhofaza etiladigan chegaralari doirasida man etilgan xo`jalik faoliyati bilan shug`ullanganda;

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ob`yektlari va muhofaza etiladigan chegaralarida oldindan ekologik ekspertiza o`tkazmay turib yoki bunday ekspertiza xulosalarini buzganda xo`jalik faoliyati yo`lga qo`yilganda;

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda faoliyatlarning ekologik oqibatlarini va boshqa zararli ta`sirlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari ko`rilganda;

- tabiatni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirayotgan idoralarning ko`rsatmalari bajarilmaganda;

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlar barpo etish to`g`risidagi iltimosnomalarni qarab chiqish muddatlari va tartibi buzilganda;

- muhofaza etiladigan hududlardan foydalanish tartiblari buzilganda; tabiiy boyliklardan o`zboshimchalik bilan foydalanishda, davlat ekologiya ekspertizasi talablarini bajarilmaganda, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan foydalanishda ashyoviy, fizik, biologik va boshqa ta`sirlar yo`l qo`yiladigan me`yordan oshib ketganda, bunday hududlarni istifoda etish uchun berilgan ruxsatnomalarning talablari buzilganda;

- muhofaza etiladigan tabiiy ob`yektlarning tabiiy majmualari hamda ularning tarkibiga kiritishni mo`ljallab asrab qo`yilgan joylar buzilganda ularga shikast yetkazilganda yoki ular yo`q qilinganda;

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning chegarasi o`zboshimchalik bilan o`zgartirilganda, bunday hududlarni o`z bilganicha boshqa ehtiyojlar uchun ajratib berganlikda aybdor bo`lgan shaxslar ma`muriy, jinoiy, moddiy va javobgarlikka tortiladilar.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga doir qonunni buzgaligi uchun quyidagi ma`muriy javobgarlik turlari qo`llaniladi:

1. jarima solish;

2. ma`muriy tartibni buzishga sababchi bo`lgan qurollarni olib ko`yish;

3. Qonunga xilof ravishda ma'muriy tartib buzish sababchisi bo'lgan qurollarni musodara qilish;

4. ma'muriy qamoqqa olish.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 8-bobida javobgarlik turlari aniq ko'rsatilib berilgan. 82-moddada shunday deyiladi: Davlat qo'riqxonasi tartibini buzish fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan ush baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa uch baravaridan besh baravarigacha jarima solishga sabab bo'ladi.

74-moddada suvdan foydalanish qoidalarini buzish – fuqarolarga eng kam ish haqining 3/1 qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan uch baravarigacha miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi deb yozib qo'yilgan. Yer osti boyliklaridan foydalanish talablarini buzish fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Tabiatni muhofaza qilishda intizomiy javobgarlik ham qo'llaniladi. Bunda aybdor xulqida noo'rin hatti-harakat mavjudligi inobatga olinadi.

Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunni buzganlik uchun intizomiy, ma'muriy, jinoiy, moddiy javobgarliklar quyidagi holatlarda sodir bo'ladi:

- davlatning tabiat manbalariga nisbatan egalik huquqi buzilganda;
- tabiiy boyliklardan o'zboshimchalik bilan foydalanilganda;
- davlat ekologiya ekspertizasi talablari bajarilmaganda;
- atrof muhitni ifloslagani uchun belgilangan haqni to'lashdan bosh tortganda;
- alohida muhofaza qilinadigan hududlar va ob'yektlarning huquqiy tartiboti buzilganda;
- atrof muhitga zararli ta'sirni hisobga olish qoidalarini buzilganda;
- atrof muhit holati va uning resurslaridan foydalanish to'g'risida o'z vaqtida va to'g'ri axborot berishdan bosh tortganda.

Yer qonunchiligi. Yerdan foydalanishni huquqiy tartibga solish.

Qonunlar yerga oqilona munosabatda bo'lish, asrab avaylash, qadrlash, doimo tuproq unumdorligini oshirib borish talabini qo'yadi, yerdan foydalanish qoidalarini

buzilganda uni himoya qiladi. Mazkur huquqiy chora-tadbirlar jinoyat, fuqarolik, mehnat, yer kodekslari me'yorlarida uz ifodasini topgan. Jumladan, «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi kodeksning 60-moddasida yerdan o'z boshimchalik bilan foydalanish yoki yerga egalik huquqiga zid bitimlar tuzish, yerdan foydalanish huquqini boshqalarga berish, yer uchastkalarini o'z boshimchalik bilan egallab olish, eng kam ish haqining besh baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima yoki 15 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoq bilan jazolanadi. Ushbu kodeksning 65-moddasida ko'rsatilishicha yerdan xo'jasizlarcha foydalangan fuqarolarga eng kam ish haqining bir baravaridan ush baravarigacha jarima solinadi. Mansabdor shaxslarga esa uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solinadi. Yer berish tartibini buzgan mansabdor shaxsga eng kam ish haqining uch baravaridan etti baravarigacha miqdorida jarima solinadi.

Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldagi 66-sonli qaroridan:

- Yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlarining funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari.

- yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradigan davlat organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

- yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni belgilangan tartibda tekshirish;

- yerga oid qonun hujjatlari buzilishini bartaraf etishga va yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

- aybdor mansabdor shaxslarni va fuqarolarni belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish, yerga oid qonun hujjatlari buzilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplash haqida da'volar kiritish, yerga oid qonun hujjatlari buzilishida aybdor shaxsni javobgarlikka tortish uchun tegishli korxona, muassasa, tashkilotga taqdimnomalar yo'llash va materiallarni huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etish.

2002 yil 13 dekabrda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Yer osti boyliklari to'g'risida» gi Qonuni qabul qilindi.

Qonunning 32-moddasida yer qa'ridan foydalanuvchilarning huquqlari, 33-moddasida esa yer qa'ridan foydalanuvchilarning majburiyatlari ko'rsatib berilgan. Qonunning 34- moddasiga binoan yer osti uchastkalaridan foydalanish huquqi cheklanishi to'xtatib turilishi yoki muddatdan ilgari tugatilishi mumkin.

- Hammasi yer osti uchastkalaridan foydalanish bilan bog'lik ishlar ta'siri doirasidagi aholi hayotiga, sog'ligiga yoki atrof muhitga ta'ziq yuzaga kelganda.

- Agar yer ostidan foydalanuvchi bir yil mobaynida yer usti uchastkasidan foydalanishga kirishmagan bo'lsa.

- Yer ostidan foydalanganlik uchun to'lovlar muntazam ravishda to'lanmagan taqdirda.

- Yer ostidan foydalanuvchi litsenziyaning asosiy shartnomalarini buzganda.

Mavzuni takrorlash uchun savollar:

1. Ekologiya huquqi tushunchasini izohlang
2. Ekologiya huquqi manbalariga nimalar kiradi?
3. Ekologik huquq ob'yektlarini ko'rsating
4. Ekologik huquqiy javobgarlikni tushuntirib bering
5. Ekologik jinoyatlarni boshqa huquqbuzarliklardan farqi nimada?
6. Yerdan foydalanish huquqi nima?
7. Yerni muhofaza qilishning huquqiy tamoyillari
8. Tabiatni muhofaza qilish tushunchasini izohlab bering.

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 8-2003 yil
- O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni. Toshkent., 1992 yil.
- O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonun. Toshkent., 1993 yil 6 may

- O`zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi». Toshkent, 1991 yil.
- Xolmo`minov J.T. Ekologiya va qonun. Toshkent, 2000 yil.
- Hayitboev E.R. Ekologiya huquqi o`quv qo`llanmasi. Toshkent, 2001 yil.

9-MAVZU: JINOYAT HUQUQI ASOSLARI.

Reja:

1. Jinoyat huquqi tushunchasi, vazifalari va tamoyillari.
2. Jinoiy javobgarlik, jinoyatchilik tushunchasi.
3. Jinoyatning tarkibiy unsurlari.
4. Jazo tushunchasi, jazo turlari, jinoiy javobgarlikdan va jinoiy jazodan ozod qilish asoslari.

Tayanch iboralar:

Jinoyat huquqi, jinoyat belgilari, jinoyat tarkibi, jinoyat unsurlari, jinoiy javobgarlik, jinoiy jazo.

Jinoyat huquqi tushunchasi. Jinoyat huquqi – qilmishning jinoiyligini va jazolanishni belgilovchi normalarni, jinoiy javobgarlik asoslarini, jazo tizimini, ularni tayinlash tartibi va shartlarini, shuningdek, jinoiy javobgarlikdan va jazolanishdan ozod qilish asoslarini aks ettiruvchi huquq tarmog`idir.

Jinoyat huquqi deganda hozirgi vaqtda jamiyatda qabul qilingan me`yorlarni qo`pol ravishda buzganligi uchun fuqarolarni jazolovshi (qoralovchi) huquq tushuniladi.

Jinoyat huquqi boshqa huquq sohalaridan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

Birinchidan: jinoyat sodir etilishi munosabati bilan vujudga kelgan jinoiy-huquqiy munosabatlarda, bir tomondan, jamiyat, davlat, ikkinchi tomondan esa jinoyat sodir etgan shaxs sub`yekt bo`ladi; Ikkinchidan, jinoiy-huquqiy norma bilan belgilab qo`yilgan ta`qiqlarni buzganlik uchun, odatda, sud davlat nomidan qo`llaydigan jinoiy jazo beriladi.

Jinoyat huquqi jinoyat-huquqiy munosabatlar doirasida vujudga keladigan ijtimoiy aloqalarni tartibga soladi. Jinoyat huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, u faqat jinoyat qonunni buzgan fuqarolar bilan davlat o'rtasida yuzaga keladi.

Jinoyat huquqi predmeti. Jinoyat alomatlarini aks ettiruvchi ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat huquqining predmetini tashkil etadi. Bu ijtimoiy xavfli qilmishlarga quyidagilar kiradi:

- shaxsga qarshi jinoyatlar;
- jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar;
- iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar;
- jinoyat qonuni bilan ta'qiqlangan huquqqa xilof ijtimoiy xavfli qilmishlar.

Jinoyat huquqining vazifalari:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumini saqlash va himoya qilish.
2. Shaxs, uning huquq va erkinliklarini, jamoat tartibi va ijtimoiy xavfsizlikni muhofaza etish.
3. Jinoyat tajovuzlardan fuqarolar hayoti va sog'ligini saqlash.
4. Insoniyatning tinchligi va xavfsizligini ta'minlash.
5. Jinoyatlarning oldini olish.
6. Fuqarolarni O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash.

Jinoyat huquqining funksiyalari:

1. Himoyalovchi funksiya.
2. Oldini oluvchi funksiya (preventiv).
3. Tarbiyaviy (axloq tuzatish) funksiya.
4. Rag'batlantiruvchi funksiya.

Jinoyat huquqining tamoyillari:

1. Qonuniylik tamoyili.
2. Fuqarolarning qonun oldida tengligi tamoyili.
3. Demokratizm tamoyili.

4. Insonparvarlik tamoyili.
5. Odillik tamoyili.
6. Ayb uchun javobgarlik tamoyili.
7. Javobgarlikning muqarrarligi tamoyili.

Jinoyat huquqi huquqning bir qancha boshqa sohalari, jumladan, jinoyat-prosessual huquqi, axloq tuzatish, mehnat huquqi, ma'muriy huquq bilan uzviy bog'liqdir.

Jinoyat qonunlari. O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunlari Jinoyat Kodeksi hamda ayrim jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qonunlardan iboratdir. Jinoyat kodeksi ko'p qirrali qonun bo'lib, unda jinoyat huquqining barcha masalalari tartibga solingan.

Moddada jinoyatning alomatlari ko'rsatiladigan qismi dispozitsiya deb, jazolar ko'rsatiladigan qismi esa sanksiya deb yuritiladi. Dispozitsiyalar tavsifiy, oddiy, blanketiy, daliliy bo'ladi. Jinoyatni eng muhim belgilarining keng tavsifi berilgan dispozitsiya tavsifiy dispozitsiya deyiladi. Sanksiya (ruxsat)lar 3 turga bo'linadi:

1) nisbiy-aniq; 2) muqobil; 3) mutlaq-aniq . Nisbiy aniq sanksiyalar jazo chorasini muayyan chegaralarda belgilaydi. Muqobil sanksiya jazolarning bir necha turlaridan birini imkonini beradi. Mutlaq-aniq sanksiya jazoning faqat bitta turini va bitta chorasini belgilaydi. Bu sanksiya hozir amalda bo'lgan Jinoyat Kodeksda aks etmagan.

Jinoiy javobgarlik. Jinoyat tushunchasi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 14-moddasida "Aybli ijtimoiy xavfli qilmish(harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat" deb belgilangan. Bu esa jinoyat-ijtimoiy xavfli qilmish ekanligini anglatadi, chunki u sodir etilganda (yoki sodir etilishi mumkin bo'lganda) ijtimoiy munosabatlarga jiddiy putur yetkaziladi. Qilmish jinoyat deb topilishi uchun uning ijtimoiy xavfli bo'lishi va qonun bilan qo'riqlanadigan ob'yektlarga zarar yetkaziladigan yoki shunday zarar yetkazishi real bo'lishi shart.

Jinoyatning belgilari:

1. Ijtimoiy xavflilik. Bu belgining o'zi 4ga bo'linadi:
 - a) Ijtimoiy xavf katta bo'lmagan;
 - b) Uncha og'ir bo'lmagan;
 - v) Og'ir;
 - g) O'ta og'ir.
2. Huquqqa xiloflik.
3. Aybning mavjudligi.

Jinoiy javobgarlik. Jinoiy javobgarlik deyilganda jinoyat qonunida muayyan qilmishning jinoyat sifatida ifodalangan baholanishini va aybdorning uni sodir qilganlik uchun jamiyat oldida javob berishini tushunish kerak. Jinoiy javobgarlik jinoyat oqibati bo'lgan jazo bilan uzviy bog'liqdir. Jinoiy javobgarlik jinoyat qonunining buzilichidan boshlanadiki, bu esa davlatning qonun buzuvchini sodir qilingan qilmishi uchun javobgarlikka tortish, unga jinoyat qonunida ko'zda tutilgan jazoni tayinlash huquqi va burshini vujudga keltiradi. Jinoiy javobgarlik qonun bilan qat'iy belgilangan vaqt chegaralarida mavjuddir. U muayyan shaxs jinoyat sodir qilgan fursatdan boshlanadi va jinoiy javobgarlikka tortish davrining muddati tugagani, yo bu avf umumiy yoki gunohidan o'tish aktlari munosabati bilan to'xtaydi.

Jinoyat tarkibi- bu qonun tomonidan aniqlangan alomatlar yig'indisi bo'lib, ularning mavjudligi jinoyat sifatini tavsiflaydi. Jinoyat tarkibi – bu ijtimoiy xavfli qilmishning ob'yektiv va sub'yektiv unsurlari yig'indisidan iborat.

Jinoyat tarkibining elementlari:

1. Jinoyat ob'yekti-jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardan iborat. Uning 3 turi mavjud:
 - a) umumiy ob'yekti;
 - b) maxsus ob'yekti;
 - v) jinoyatning bevosita ob'yektlari.
2. Ob'yektiv tomon – bu ob'yektiv voqelikda qilmishni amalga oshiruvchi shaxsning ongli irodali harakati bo'lib, atrof dunyoda muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Uning belgilari quyidagilar:

- a) ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik;
- b) jinoiy oqibat;
- v) sababiy bog`lanish;
- g) jinoyat sodir etilgan vaqt;
- d) jinoyat sodir etilgan joy;
- e) jinoyat sodir etilgan muhit;
- yo) jinoyatni sodir etish usuli;
- j) jinoyatni sodir etish quroli;
- z) jinoyatni sodir etish vositasi.

3. Jinoyat sub`yekti – jinoyat qonuni bilan belgilangan muayyan yoshga yetgan va jinoyat kodeksi Maxsus qismining konkret normalarida mustahkamlangan alomatlarga ega bo`lgan, o`z qilmishiga o`zi javob bera oladigan jismoniy shaxs.

Jinoyat sub`yektining belgilari:

- a) jismoniy shaxs;
- b) aqli rasolik;
- v) jinoiy javobgarlik yoshiga yetganlik (16 yosh-barcha jinoyatlar uchun javobgarlik,
- 14 yosh-o`ta og`ir jinoyat uchun javobgarlik, 13 yosh-aybni og`irlashtiruvchi holatlarda
- odam o`ldirganlik uchun javobgarlik).

4. Jinoyatning sub`yektiv tomoni. Uning belgilariga quyidagilar kiradi:

- a) ayb;
- b) ayb shakllari;
- v) sabab;
- g) maqsad.

Jinoyatlar tarkiblari. Ijtimoiy xavflilik darajasiga bog`liq ravishda jinoyat tarkiblari quyidagi turlarga bo`linadi:

- 1) Jinoyatning asosiy tarkibi;

2) Yengillashtiruvchi holatlari bo'lgan jinoyat tarkibi (imtiyozli);
3) Og'irlashtiruvchi holatlari bo'lgan jinoyat tarkibi (kvalifikatsiyalashtirilgan);

4) Alohida kvalifikatsiyalashtirilgan jinoyat tarkibi.

Bayon etish usuliga ko'ra jinoyat tarkiblari 3ga bo'linadi:

1) oddiy; 2) murakkab; 3) muqobil.

Tuzilishiga ko'ra jinoyat tarkiblari quyidagilarga bo'linadi;

a) moddiy tarkib jinoyati

b) formal tarkib jinoyati

v) kesik tarkibli jinoyatlar

Jinoyatda ishtirokchilik. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 27-moddasiga muvofiq ikki yoki undan ortiq shaxsning jinoyat sodir etishda birgalashib qasddan jinoyat sodir etishi ishtirokchilik deb topiladi. Yosh va aqlirasolik ishtirokchilikning muqarar shartidir. Ishtirokchilikning shakllari quyidagilar:

1.Oddiy ishtirokchilik –ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirmay jinoyatni sodir etishda qatnashishi.

2.Murakkab ishtirokchilik – ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib jinoyat sodir etilishida ishtirok etishi.

3.Uyushgan guruh –ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishi.

4.Jinoiy uyushma – ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun oldindan birlashishi.

Jinoyatda ishtirokchilarning turlari:

1. Bajaruvchi-jinoyatni bevosita, to'la, qisman sodir etgan shaxs. Bosh rolni o'ynaydi.

2.Tashkilotchi-jinoyatga tayyorgarlik ko'rilishiga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs.

3. Dalolatchi-qiziqtiruvchi yoki boshqa usul bilan jinoyatga undovchi shaxsdir.

4. Yordamshi-jinoyat sodir qilishga maslahatlar, yo'l-yo'riqlar, vositalar berish yoki to'siqlarni bartaraf etish bilan ko'maklashadigan shaxs.

Jinoiy jazo tushunchasi va turlari. Jinoiy jazo-bu jinoyat sodir qilishda aybdor deb topilgan shaxsga sud hukmiga ko'ra davlat nomidan qo'llanadigan hamda qonun tomonidan mahkumni muayyan huquq va erkinliklardan mahrum etish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir (jinoyat kodeksining 42-moddasi).

Jazolash mahkumlarni tuzatish, shuningdek ham mahkumlar, ham boshqa shaxslar tomonidan qilinishi mumkin bo'lgan yangi jinoyatlarning oldini olish uchun qo'llaniladi. Jazolash odamga jismoniy azob berish yoki insonlik qadrigimmatini tushirishni maqsad qilib qo'ymaydi.

Jinoiy jazolarning sakkiz turi mavjud bo'lib ular quyidagilardir;

- jarima;
- muayyan huquqdan mahrum etish;
- axloq tuzatish ishlari;
- xizmat bo'yicha cheklashlar;
- hibsga olish;
- harbiy-ijroiya qismida tutish;
- ozodlikdan mahrum etish;
- o'lim jazosi.

O'zbekistonda demokratik, huquqiy davlatni shakllantirish uchun bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda. Sud huquq tizimini yanada demokratlashtirish munosabati bilan Jinoyat kodeksining bir qator moddalariga o'zgartirishlar kiritildi, jazolar liberallashtirildi, 2008 yildan boshlab o'lim jazosi ham bekor qilinadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin 1994 yilda yangi Jinoyat Kodeksi qabul qilindi. Bu kodeksda o'lim jazosi jazoning umumiy tizimiga kiritildi. Jinoyat Kodeksning 51-moddasida dastlab 13ta jinoyat uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan edi.

2001 yil 29 avgustda O'zbekistonning Jinoyat, Jinoyat-prosessual Kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga o'zgartirish va qo'chimshalar kiritildi. Unga muvofiq, Jinoyat Kodeksida o'lim jazosi qo'llanadigan moddalar 4taga, 2003 yilga kelib esa 2taga qisqardi. Voyaga yetmaganlarga, oltmish yoshdan oshgan fuqaroqalar va ayollarga bu jazo qo'llanilmaydi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslari quyidagilardir:

1.Shaxs javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilinadi. (Jinoyat Kodeksining 69-moddasi).

2.Ishni tergov qilish yoki sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli sodir etilgan qilmish o'zining xavfliligini yo'qotgan deb topilsa, jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin (Jinoyat kodeksining 65-moddasi).

3.Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar jinoyat sodir qilingandan keyin jinoyat tufayli keltirilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilib, aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin

(JKning 66-moddasi).

4.Jinoyat sodir etgan shaxs hukm chiqarilgunga qadar o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va o'z harakatlarini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalinib qolgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi(JKning 67-moddasi).

5.Jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. (JKning 68-moddasi).

Jinoiy jazodan ozod qilish asoslariga quyidagilar kiradi;

1.Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan sud ayblov hukmini ijrosi o'tib ketganligi munosabati bilan jazoni o'tashdan ozod qilishi mumkin (JKning 69-moddasi).

2.Ozodlikdan mahrum qilish muddatini o'tayotgan shaxslar sud hukmi bo'yicha muddatidan ilgari-shartli ozod qilinishlari mumkin (JKning 73-moddasi).

3. Jinoyat sodir etgan shaxs agar ish sudda ko`rilayotgan vaqtgacha sharoit o`zgarib yoki shaxs namunali xulqi, mehnatga yoki o`qishga halol munosabati bilan o`zini ko`rsatib, ijtimoiy xavfliligini yo`qotdi deb e`tirof etilsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkin (JKning 70-moddasi).

4. Ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan yoki uncha og`ir bo`lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u jinoyat sodir etganidan keyin yetkazilgan zararni bartaraf etib, o`z ixtiyori bilan aybini bo`yniga olish to`g`risida arz qilgan bo`lsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkin (JKning 71-moddasi).

5. Agar shaxs ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan yoki og`ir bo`lmagan jinoyatni sodir etgan bo`lsa, sud jazoning o`tmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishi mumkin. Bunday almashtirish hukm qilingan shaxs jazoning kamida uchdan bir qismini o`taganidan keyin ro`y beradi (JKning 74-moddasi, Sh qism, "a" bandi)

Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar;

- qilmishning kam ahamiyatligi;
- zaruriy mudofaa;
- oxirgi zarurat;
- ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar etkazish;
- buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish;
- kasbni xo`jalik faoliyatiga oid tavakkalshilik.

Mavzuni takrorlash uchun savollar:

1. Jinoyat huquqi tushunchasini izohlab bering.
2. Jinoyat huquqi predmeti nima?
3. Jinoyat huquqining vazifalariga nimalar kiradi?
4. Jinoyat huquqining funksiyalarini aytib bering
5. Jinoyat tushunchasi nima?
6. Jinoyatning belgilarini ayting
7. Jinoiy javobgarlik nima?
8. Jinoyatning tarkibiga nimalar kiradi?

9. Jinoyatda ishtirokchilik nima?
10. Jinoiy jazo tushunchasini izohlang
11. Jinoiy jazo turlarini ko'rsating
12. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslariga nimalar kiradi?
13. Qanday asoslarda jinoiy jazodan ozod qilinish mumkin?

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. Toshkent., 1994 yil.
- Jinoyat Kodeksiga sharhlar. Toshkent., 1996 yil.
- Bag'rikenglik demokratiyasi. Hayot va qonun, 2005yil, 2-son
- Jazoni liberallashtirish. Hayoi va qonun, 2004yil, 5-son
- O'lim jazosi kerakmi? Hayot va qonun, 2005yil, 4-son
- Huquqshunoslik. Toshkent., 2002yil. O'quv qo'llanmasi.

10- MAVZU: XALQARO HUQUQ ASOSLARI REJA

1. Xalqaro huquq tushunchasi, ob'yektlari, tamoyillari va funktsiyalari.
2. Xalqaro huquqiy me'yorlar. Xalqaro huquqiy tizimi.
3. Xalqaro huquqiy munosabatlar. Xalqaro huquq manbalari, sub'yektlari.
Xalqaro huquq sohalari.
4. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatining asosiy printsiplari va diplomatiya.

Tayanch iboralar:

Xalqaro huquq, xalqaro huquqiy munosabatlar, xalqaro shartnoma, xalqaro huquq me'yorlari; Xalqaro huquqbuzarlik, xalqaro huquq manbalari, xalqaro huquq tizimi, xalqarol huquq soxasi.

Xalqaro huquq-tushunchasi. Xalqaro huquq tushunchasi xalqaro ommaviy huquqni bildiradi. Albatta, undan xalqaro xususiy huquqni ajrata bilish kerak.

Xalqaro ommaviy huquq-xalqaro munosabatlarda qatnashadigan va ishtirok etadigan davlatlar (sub'yektlar)ning yuridik munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga soladi. Xalqaro ommaviy huquq-davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlarning bazaviy xalqaro printsiplarini belgilab beradi. Xalqaro ommaviy huquq davlatlararo milliy munosabatlarni, davlatlar bilan xalqaro tashkilotlar, xalqaro miqiyosda fuqarolarning asosiy huquq, burch va erkinliklarini, xalqaro huquq doirasida xalqaro nizo va kelishmovchiliklarni hal qilish bilan bog'liq hamda boshqa munosabatlarni o'zida ifodalaydi.

Xalqaro huquq soxalari. Eng qadimgi ko'rinishi – “elchilik huquq” deb atalgan. XX asr o'rtalaridan esa “Diplomatiya (va konsullik) huquqi” deb yuritila boshlangan.

Keyingi vujudga kelgan soha – “urush va tinchlik huquqi” deb ataladi.

XX asrning 2 yarmida yangi soha vujudga keladi – “Xalqar xavfsizlik huquqi”.

O'rta asrlarda “Dengiz huquqi” sohasi vujudga kelgan.

XX asrda fan va texnika taraqqiyoti munosabati bilan mutlaqo yangi soxalar vujudga keldi: “Havo huquq”, “Kosmos huquqi”, “Tibbiyot huquqi”, “Iqtisodiy huquq”, “Ekologiya huquqi”, “Xalqar tashkilotlar huquqi”, “Individlar va xalqlar huquqi”.

Xalqaro huquq institutlariga quyidagilar kiradi:

- xalqaro huquq sub'yektlari;
- Xalqaro huquqda e'tirof etish;
- Xalqaro huquqda huquqiy vorislik;
- Xalqaro huquqda xalqaro bahslarni hal etishda tinch vositalarni qo'llash.

Xalqaro huquqiy munosabatlarning o'zi nima? Bu- xalqaro huquq normalari asosida amalga oshiriladigan huquqiy munosabatlarni muvofiqlashtirish demakdir. Bunday xalqaro munosabatlarning sub'yektlari davlatlar, xalqlar, millatlar, xalqaro tashkilotlar bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro huquqning asosiy printsiplari nimalardan iborat? Ma'lum tarixiy bosqichda xalqaro hayotning eng asosiy masalalari bo'yicha xalqaro munosabatlar

sub'yektlarining umum qabul qilgan va mujassamlashtirilgan axloq normalari. Xalqaro huquqning asosiy printsiplari BMTning Nizomida mavjud. Bu printsiplarga quyidagilar kiradi:

- BMT a'zolarining suveren tengligi;
- Nizom bo'yicha majburiyatlarning vijdonan bajarilishi;
- BMT a'zolarining o'z bahslarini xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolatga xavf solmagan holda hal qilish;
- Hududiy daxlsizlik va siyosiy mustaqillikka qarshi kuch ishlatish yoki kuch ishlatib tahdid qilish hamda BMT qoidalariga xilof hatti-harakatlardan tiyilishi.

Xalqaro huquqning xalqaro shartnomalarni tuzish, amalga oshirish va to'xtatish shartini belgilab beruvchi tarmog'iga xalqaro shartnoma huquqi deyiladi. Hozirgi vaqtda BMT doirasida 1969 yilgi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konventsiyasi amal qilmoqda. Ushbu konventsiya 1980 yilda kodifikatsiyalandi va qabul qilindi. (Kodifikatsiya-normativ-huquqiy aktlarni qayta ishlash yo'li bilan ularning yagonaligiga olib boruvchi protsess. Kodifikatsiya jarayonida huquqiy normalarning eskirgan qismi olib tashlanadi, normativ-huquqiy aktlarning qismi boblarga bo'linadi va bog'lanadi, kodifikatsiya qilingan aktlarni o'zining ixtisoslashgan mazmunli strukturasi shakllantiriladi). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida xalqaro shartnomalarni tuzish, tasdiqlash, ratifikatsiyalash va denonsatsiya qilish to'g'risida alohida moddalar borligini qayd etish lozim. Bundan tashqari, 1995 yilning 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi qonun ham qabul qilingan. Ushbu qonunda xalqaro huquq sub'yekti sifatida O'zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomalarga rioya qilishi aniq ko'rsatib berilgan. Shartnomalarda davlatlar asosiy tomonlar hisoblanadi. Davlatlararo shartnomalar xalqaro munosabatlarni tartibga solishda asosiy o'rin tutadi va shu tariqa xalqaro huquq normalarini yaratadi. Har bir davlat shartnomada qatnashish uchun teng huquqqa ega.

Xalqaro shartnomalarni tuzish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- 1) Davlatlar yoki xalqaro huquqning boshqa sub'yektlari hatti-harakat qoidalariga nisbatan, ya'ni irodani kelishtirib olish;
- 2) Shartnoma normalarining majburiyligini tan olishga nisbatan irodalarni kelishib olish;

Xalqaro shartnomalarning ikki asosiy shakli mavjud: yozma va og'zaki shakl. Yozma shakllarning afzalligi xalqaro tajribada yetakchi o'rin egallaganligi bilan belgilanadi. Ko'pdan-ko'p qarorlarni o'z ichiga olgan ko'pgina shartnomalar faqat yozma ravishda tuziladi. Biroq hozirgi kunda ham ayrim paytlarda og'zaki shakldagi bitimlar tuzish tamoyilidan foydalanish mavjud. Agar bitim biron-bir hujjatda qayd etilmagan bo'lsa, uni "jentelmenlik bitimi" deb atash qabul qilingan.

Shartnomalarning amal qilish doirasi yo unda to'g'ridan to'g'ri ko'rsatiladi yoki mana shu shartnomaning qarorlaridan kelib chiqadi. To'la huquqli mazmunga, unda qatnashish huquqiga ega tomonlar o'rtasida tuzilgan, qonuniy tartibda kuchga kirgan va xalqaro huquqqa binoan to'xtatilmagan (tugatilmagan) shartnoma huquqiy hisoblanadi.

Xalqaro shartnomalarni qayd etish BMT kotibiyatida amalga oshiriladi. BMTda qayd etilgan shartnomalar maxsus BMT axborotnomalarida nashr qilinadi. O'zbekistonning xalqaro shartnomalarini qonunga binoan BMT kotibiyati amalga oshiradi.

Muayyan bir mamlakatning oliy davlat organi tomonidan xalqaro shartnomaning tasdiqlanishi holati ratifikatsiya deyiladi.

Ikki tomonlama xalqaro shartnoma amal qilishini to'xtatish yoki ko'p tomonlama shartnomadan muayyan bir davlatning chiqishiga xalqaro shartnomani denonsatsiya qilish deyiladi. Bunday holatda ishtirokchi davlat shartnomada belgilangan tartibda va muddatda shartnomaning bekor qilinishi to'g'risida xabardor qilinishi lozim. Xalqaro huquq normalariga muvofiq, agar shartnomada denonsatsiya nazarda tutilmagan va ishtirokchilarning bunday imkoniyatga yo'l qo'yish niyati bo'lgani aniqlanmagan bo'lsa, shartnoma denonsatsiya qilinishi mumkin. Denonsatsiyaning odatdagi sharti shartnoma tomonlarini ishtirokchilardan birining uning amal qilishini to'xtatish yoki undan chiqish

mo`ljalidan avvaldan xabardor qilishdan iborat. Denonsatsiyaga aloqador umumiy printsiplarga 1969 yilda Venada imzolangan xalqaro shartnomalar huquqi to`g`risidagi konventsiyada ko`rsatilgan. Denonsatsiya tartibiga rioya etmaslik uni haqiqiy deb topish uchun imkoniyat beradi.

Xalqaro huquq nuqtai nazaridan yangi tashkil bo`lgan davlat yoki hukumatning davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tan olishiga xalqaro huquqiy tan olish deyiladi. Boshqacha aytganda, rasman tan olish, ya`ni de-fakto va de-yure asosida o`zaro munosabatlarda bo`lish. Norasmiy tan olish-rasmiy tan olinmagan davlatlar bilan o`zaro munosabatda bo`lish demakdir.

Xalqaro huquq sub`yekti bo`lish deganda, xalqaro huquq normalariga amal qilish orqali o`z majburiyatlarini bajarish nazarda tutiladi. Xalqaro huquq sub`yektlari faqat xalqaro munosabatlar qatnashchilari bo`ladilar. Xalqaro huquqiy munosabatlarda xalqaro huquq sub`yekti bo`lish xalqaro miqyosida o`zaro kelishuvlar, shartnomalar va boshqa hujjatlar asosida vujudga keladi.

**Xalqaro huquq sub`yektlari.** Huquq sub`yekti – huquq va majburiyatlar egasidir. Xalqaro huquqda, uning milliy huquqdan farqiga ko`ra, sub`yekti tushunchasi birmuncha o`zgacha izohlanadi. Bunda huquq sub`yektlarini huquqqa layoqatli, ya`ni qonunga ko`ra huquqqa ega bo`lishi mumkin bo`lganlar va faoliyatga layoqatli, ya`ni majburiyatlarga ega bo`lib, ularni bajara oladiganlarga ajratish mumkin emas. Xo`sh, nima uchun shunday? Birinchidan, xalqaro huquqda bunday ta`rif uning sub`yektlari orasidagi huquqiy tengsizlik: faqat huquqqa layoqatli bo`lganlar hamda huquqqa va faoliyatga layoqatli sub`yektlar mavjudligini e`tirof etishni bildiradi. Amaliyotda esa bunday bo`lishi mumkin emas, chunki xalqaro huquq o`z sub`yektlarining suveryen tengligiga asoslangan. Ikkinchidan, xalqaro huquqda faoliyati layoqatsiz bo`lish mumkin emas. Chunki, uning o`zi faqat faoliyatga layoqatli, ya`ni huquqning ushbu sohasi me`yorlarini ro`yobga chiqara oladigan sub`yektlar tomonidan yaratiladi. Biroq, eng asosiysi, xalqaro huquq sohasida nafaqat majburiyatga ega bo`lib, ularni bajara oluvchilar, balki o`zgalar bilan bitimlarda o`zi uchun majburiyatlar yarata olishga so`zsiz qodir bo`lganlar ham huquq sub`yekti hisoblanadi.

Xalqaro huquq sub'yektlarining 3 turi mavjud: 1) davlat (asosiysi)

2) xalqaro hukumatlar tashkilotlar

3) xalqlar

Davlat – suveryenitetga xos bo'lgan barcha huquqlarga ega, shuning uchun to'la hajmda huquq sub'yektidir.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar ham xalqaro huquq sub'yekti hisoblanib, davlatlar tomonidan yaratiladi. Boshqacha aytganda, davlatlar o'zlari ishtirok etayotgan xalqaro hukumatlararo tashkilotlar uchun birgalikda nizom-shartnoma ishlab chiqadilar. Nizomlarda har bir tashkilot vakolatining hajmi, xalqaro faoliyatga layoqatlilik hajmi ko'rsatiladi.

Xalqlar – uchinchi toifadagi sub'yektlar hisoblanadi. Har bir xalq xalqaro huquqqa ko'ra qator huquqlar va tabiiyki, majburiyatlarga ega. Xalqning xalqaro huquq sub'yekti ekanligi asosini uning o'zga xalqlar bilan tenglikka ega bo'lish va xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biri-o'z taqdirini o'zi belgilashdek ajralmas huquqi tashkil etadi. Har bir xalq, shubhasiz, mazkur tamoyil chegarasida, xalqaro huquq sub'yekti bo'ladi.

Hozirgi kunda shaxs-individning xalqaro huquq sub'yekti ekanligi haqidagi masala ko'pchilikni diqqatini o'ziga jalb etmoqda. Bu to'g'rida yagona fikr yo'q. Bitta narsa aniq, shaxs-individ xalqaro. Shartnoma tuzib, o'zi uchun majburiyatlar yarata olmaydi.

Xalqaro huquq manbalari. Milliy huquqda qonun qabul qiluvchi tomonidan qabul qilinadigan qonun huquqning asosiy manbai hisoblanadi.

Xalqaro huquqda qonun qabul qiluvchi va xalqaro huquq sub'yektlarini bajarishga majbur qiluvchi bo'lmaydi. Bunda sub'yektlar shartnomalar yaratish yo'li bilan o'zlarini mas'ul etadilar va huquq yaratadilar.

Xalqaro huquqning manbalariga quyidagilar kiradi:

1. Xalqaro shartnomalar
2. Xalqaro taomillar
3. Xalqaro sudlar va hakimliklarning, shuningdek, milliy sud va hakamliklarning xalqaro tusga ega bo'lgan ishlar yuzasidan chiqargan qarorlar

4. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning majburiy, ba`zan eng muhim tavsiya rezolyutsiyalari ( masalan, BMT Xavfsizlik Kengashining xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta`minlash bo`yicha rezolyutsiyasi, BMT Bosh Assambleyasining 1960 yilgi mustamlakachilikni tugatish to`g`risidagi deklaratsiyasi).
5. Atoqli olimlar va siyosatchilar, jahonda ushbu soha taniqli arboblarning fikrlari, qarashlari va doktrinalari (qo`shma manba).

Manbalar ikki toifaga bo`linadi:

- 1) Qat`iy (xalqaro shartnomalar)
- 2) Yumshoq (tavsiya, rezolyutsiya)

Xalqaro huquqiy normalarni buzishga qaratilgan harakat yoki harakatsizlikka xalqaro huquqbuzarlik deyiladi. Xalqaro huquqbuzarlikning sub`yektlari davlatlar va xalqaro tashkilotlar hisoblanadi. Bu huquqbuzarlikning o`ziga xosligi shundaki, u ko`proq o`z xalqaro majburiyatlarini buzishda namoyon bo`ladi. Xalqaro huquqbuzarlikning o`ziga xos shakli – xalqaro jinoyatlarni sodir etish bilan ta`riflanadi. Xalqaro huquqbuzarlikning ob`yektlari xalqaro huquqiy munosabatlarda e`tirof etilgan huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Bularga quyidagilar kiradi:

- umume`tirof etilgan xalqaro huquq printsiplarini buzish;
- xalqaro kelishuvlar va shartnomalar talablarini buzish;
- davlatlarning huquqiy erkinligini, qadr-qimmatini kamsitish va ularning mulkiy huquqlariga tajovuz qilish;
- xalqaro tashkilotlar huquqlarining buzilishiga olib kyelishga qaratilgan harakatlarni sodir etish;
- chet ellik kishilarning huquqlarini buzish;
- diplomatik vakolatxonalar daxlsizligini buzish.

Xalqaro huquq normalariga ko`ra, huquqlari buzilgan tomonlar davlatlar, xalqaro tashkilotlar huquqbuzar davlatlar tomonidan yetkazilgan moddiy va ma`naviy zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Xalqaro huquqiy javobgarlik – xalqaro huquq sub`yekti uchun xalqaro huquqiy majburiyatlarni buzgan taqdirda kelib chiqadigan yuridik oqibatlardir.

Xalqaro huquq sub'yektlari javobgarligi xalqaro qonunchilikni og'ishmay bajarish, tinchlikni saqlash va mustahkamlash uchun kurash, xalqaro hamkorlikni ta'minlash bilan bog'liqdir. Xalqaro huquqda davlatlarning javobgarligiga taalluqli normalar xalqaro huquqiy institutning o'ziga xos ko'rinishidir. Bu institut xalqaro huquq tarixi jarayonida jiddiy o'zgardi. Hozirgi xalqaro huquq agryessiya uchun javobgarlik, mustamlaka mamlakatlari va xalqlariga mustaqillik berishdan voz kechish uchun javobgarlik singari muhim institutlarni o'z ichiga oladi.

Davlatlarning javobgarligini yo'lga qo'yuvchi xalqaro huquq normalari orasida hozirgi paytda odat tarzida kelib chiqqan normalar ko'p. Ularni kadifikatsiyalash bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Davlatlar xalqaro huquqiy javobgarligining umumiy asosi xalqaro huquqiy jinoyatning sodir qilinishidir. Xalqaro huquqiy jinoyat davlatning harakati yoki harakatsizligidan iborat bo'lib, xalqaro huquq normalarida belgilangan majburiyatlarga zid harakatlarning oqibatidir.

Xalqaro huquq normalari buzilganda yetkazilgan zararni ikki asosiy turkumga bo'lish mumkin.

- 1) moddiy zarar (turli mulkiy zararlar);
- 2) oddiy zarar (davlat suverenitetini cheklashning xilma-xil shakllaridan boshlab, davlat sharafiga va nufuziga yetkaziladigan zarargacha).

Xalqaro munosabatlarda javobgarlikning ikki turi mavjud: a) siyosiy (nomoddiy). b) moddiy javobgarlikdir. Yetkazilgan zararining xususiyatlaridan kelib chiqib bu turlar farqlanadi.

Xalqaro huquq komissiyasi. U BMT Bosh Assambleyasining yordamchi muassasidir. BMTning 174(II) – sonli rezolyutsiyasi asosida tashkil etilgan bo'lib, 34 nafar xalqaro huquqshunosdan iborat. A'zolari 5 yil muddatga saylanadi. Uning asosiy vazifasi xalqaro huquqni ijobiy rivojlantirish va uni kadifikatsiyalashtirishdan iborat.

Xalqaro huquqda inson huquqlari va asosiy erkinliklar. Xalqaro huquq inson huquqlari inson shaxsiyatiga xos qadr-qimmatdan kelib chiqishini ko'zda tutadi. Ular uning erkin taraqqiy etishi uchun qulay huquqiy sharoit yaratishga

qaratilgan bo'lib, xalqaro huquq ustunligi va unga rioya qilgan holda milliy qonun tomonidan himoya qilinmog'i lozim.

Zamonaviy xalqaro huquqda inson huquqlari va asosiy erkinliklari bo'yicha umumiy tushdagi manbalar 4ta:

- 1) 1948 yilgi Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi;
- 2) 1966 yilgi Iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt.
- 3) 1966 yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning protokoli.
- 4) 1966 yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning protokoli

Inson huquqlari maxsus sohalariga oid 20dan ortiq xalqaro konventsiyalar qabul qilingan:

- 1949 yilgi Ish haqining muhofaza qilish to'g'risida
- 1951 yilgi Qochoqlar maqomi
- 1952 yilgi Onalikni muhofaza qilish to'g'risida
- 1961 yilgi Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar miqdorini kamaytirish to'g'risida
- 1948 yilgi Genotsid jinoyatining oldini olish to'g'risida
- 1965 yilgi Barcha shakldagi irqiy kamsitishlarni tugatish to'g'risida
- 1968 yilgi Harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlarga nisbatan jazolash muddati o'tganligi qoidasining qo'llamaslik to'g'risida
- 1989 yilgi Bola huquqlari konventsiyasi

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va diplomatiyasi.

“Mustaqillik va suverenitet, deb yozgan edi I.Karimov, - jaxon hamjamiyatiga kirib borishimizga, barcha davlatlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatishimizga imkoniyat yaratdi”.

O'zbekiston xalqaro huquqning barcha e'tirof etgan printsiplari va normalariga sodiqligini Konstitutsiya orqali butun dunyo hamjamiyatiga namoyish etdi. Bu mustaqil davlatga eng obro'li xalqaro tashkilotlarga teng huquqli a'zo

bo`lib kirish imkonini berdi. O`zbekistonning barcha diplomatik darajalarida e`tirof etilishi uchun yo`l ochdi.

O`zbekiston Respublikasining tashqi siyosati asosiy printsiplari Konstitutsiyaning 17-moddasida mustaxkamlandi. “Tashqi siyosat” tushunchasi davlatning xalqaro ishlarida tutgan umumiy yo`lini qamrab oladi. Tashqi siyosat davlatning boshqa davlatlar va xalqlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan o`zaro munosabatlari soxasidagi faoliyatining maqsadlari va vositalarini o`z ichiga oladi.

“O`zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to`g`risida”gi 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan Qonunda shunday deyiladi : 2-modda. O`zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta`minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, xamdo`stliklari va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ajralib chiqishi mumkin.

4-modda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, yevropada Xavfsizlik va Xamkorlik Tashkiloti hamda boshqa xalqaro tashkilotlar ishida faol ishtirok etish, Yevropa, Osiyo va jaxon xavfsizlik tuzilmalariga integratsiyalashuv O`zbekiston Respublikasi tegishli tuzilmalarining tashqi siyosiy faoliyatidagi eng muhim vazifadir.

6-modda. O`zbekiston Respublikasi “O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to`g`risida”gi Qonunga va O`zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasiga muvofiq harbiy siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi.

7-modda. O`zbekiston Respublikasi mintaqadagi hamda undan tashqaridagi mojarolarning oldini olish va ularni bartaraf etish maqsadida hukumatlararo va hukumatga qarashli bo`lmagan tuzilmalarning ishida faol qatnashadi.

O`zbekistonning xalqaro munosabatlarda faol ishtirokini ta`minlashda 1996 yilda qabul qilingan “Konsullik Nizomi”, “Diplomatik xodimlarga diplomatik darajalar va rutbalar berish to`g`risida”gi qonuning o`rni va roli beqiyos bo`ldi. O`zbekiston tashqi siyosatining asosiy maqsadi davlat suverenitetini himoya qilish, ijtimoiy yo`nalgan bozor iqtisodiyotini qaror toptirish uchun xalqaro sharoitlarni yaratish, tinchlik, xalqaro va mantiqaviy xavfsizlikni ta`minlash uchun barcha davlatlar bilan teng huquqli hamkorlikni yo`lga qo`yishdan iborat.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Xalqaro huquq tushunchasini izoxlab bering
2. Xalqaro huquq tamoyillarini aytib bering
3. Xalqaro huquq me`yorlariga nimalar kiradi?
4. Xalqaro huquq sub`yektlarini tushuntiring
5. Xalqaro huquq manbalariga nimalar kiradi?
6. Xalqaro huquq sohalarini ko`rsatib bering
7. Xalqaro huquqiy javobgarlik nima?
8. O`zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va diplomatiyasi
9. Xalqaro huquqiy munosabatlar tushunchasi
10. Xalqaro shartnomalar.

Adabiyotlar

- O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 2003 yil. 6-bet
- Inson huquqlari to`g`risida xalqaro bill. Toshkent. Adolat, 1992 yil
- Mejdunarodnyye Konventsii po tamojennomu delu. Sbornik mejdunarodnyx dokumentov. Tashkent. « Shark». 1995g.
- O`zbekiston Respublikasi Qonunchiligi asoslari. “Adolat”, 2000y. Toshkent. 642-646 betlar
- R.A.Tuzmuxamyedov., R.T.Xakimov. Xalqaro huquq asoslari. Toshkent. 1998y (O`quv qo`llanma)

Huquqiy atamalar izohi va tayanch tushunchalar

Ajrim – prosessual akt. Jinoyat, Fuqarolik yoki xo`jalik ishi bo`yicha, shuningdek, kassatsiya yoki nazorat bosqichida chiqariladigan, ishning mohiyatini

hal qilmaydigan, ya'ni hukm yoki qarorni o'zgarishsiz qoldirish, unga o'zgartirishlar kiritish, bekor qilish singarilar bo'yicha qaror.

Ayblanuvchi – qonunda belgilangan tartibda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinishi haqida qaror chiqarilgan shaxs. U sudda sudlanuvchi deb, hukm chiqarilgandan keyin esa, mahkum yoki oqlangan deb ataladi.

Ayblov – jinoyat prosessida vakolatli organlar va shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs aybdorligini isbotlashdan iborat faoliyati. Uning uch turi mavjud: davlat ayblovi, jinoyat ayblovi va xususiy ayblov.

Aybsizlik- prezumpsiyasi – jinoyat prosessi huquqida ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning aybi dalillar asosida to'liq isbotlanmaguncha uning aybsiz ekanligini e'tirof etish.

Alibi – ayblanuvchi yoki ayblanuvchi deb gumon qilingan shaxsning jinoyat sodir bo'lgan paytda boshqa joyda bo'lish holati.

Amnistiya – jinoyat sodir qilgan shaxslarni javobgarlikdan to'liq yoki qisman jazodan ozod qilish, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o'tab bo'lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash. U normativ xususiyatga ega, ya'ni amnistiya akti bilan belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

Apellyatsiya – bir qancha xorijiy mamlakatlar huquqida hali qonun kuchiga kirmagan sud hukmlari va qarorlari ustidan shikoyat qilish. Apellyatsiya sudi ishdagi mavjud isbotlarni taftish etib, yangi isbotlarni ko'rib chiqadi, hukmni tasdiqlaydi yoki yangi hukm chiqaradi.

Avf etish – jazodan ozod qilishning bir turi. O'zbekiston Konstitutsiyasiga ko'ra, bunday huquq O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga berilgan.

Axloq tuzatish koloniyalari – O'zbekiston Respublikasida axloq tuzatish muassasasining turlaridan biri. U jinoyat-ijroiya kodeksiga muvofiq voyaga yetgan sudlanganlarning ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tashlari uchun mo'ljallangan. Ular manzil-koloniyalarga, umumiy, qattiq, maxsus tartibli koloniyalarga bo'linadi.

Aqliy zaiflik – intellektidagi kamchilik. U ikki xil bo'ladi: tug'ma va orttirilgan.

Aqliy norasolik – shaxsning surunkali ruxiy hastaligi. Ruhiy faoliyatning vaqtincha buzilishi, aqliy zaiflashuv yoki biron-bir kasallik oqibatida o'z hatti-harakatlaridan o'ziga hisob berishga yoki o'z hatti-harakatlarini boshqarishga layoqatsizligi. Maxsus tibbiy ekspertizasi tomonidan aqli norasoligi aniqlangan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Bir taraflama bitim – FKning 102-moddasiga muvofiq, bitim tuzish uchun qonun hujjatlariga yoki taraflarning kelishuviga ko'ra, bir tarafning xohishi zarur va yetarli bo'lsa, bunday bitim bir taraflama bitim hisoblanadi. Bir taraflama bitim uni tuzgan shaxs uchun burchlarni keltirib chiqaradi.

Bir umrga ozodlikdan mahrum etish – jinoiy jazo turi. Faqat hayotga suiqasd qiluvchi o'ta og'ir jinoyat uchun belgilangan o'lim jazosiga muqobil chora sifatida nazarda tutiladi va sud so'nggi jazo chorasini qo'llamaslik mumkin deb hisoblangan hollarda belgilanadi. O'zbekistonda 2008 yilning 1 yanvaridan boshlab o'lim jazosining bekor qilinishi bilan jazo chorasi sifatida qo'llanishi nazarda tutilmoqda.

Bitim – fuqarolik huquqida fuqaro va yuridik shaxslarning fuqarolik huquqi va majburiyatlarini o'rnatish, o'zgartirish va tugatishga qaratilgan harakat.

Boshqaruv shakli – kompleks konstitutsiyaviy-huquqiy institut bo'lib, bunda hokimiyatning rasmiy manbai va amalga oshirilish shakli anglanadi. Boshqaruv shaklining asosiy, belgilovchi alomati davlat boshlig'ining huquqiy maqomidir. Hozirgi zamon davlatlaridagi boshqaruv shaklining ikki turi mavjud: respublika va monarxiya.

Bo'linadigan va bo'linmaydigan ashyo – bo'linadigan ashyo deganda bajaradigan vazifasini bo'lish mumkin bo'lgan narsalar, bo'linmaydigan ashyo deganda esa – shu tariqa bo'lina olmaydigan narsalar tushuniladi. Shunday qilib, don va ko'mir-bo'linadigan, televizor va avtomobil esa bo'linmaydigan ashyodir.

Vakolat – fuqarolik huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi shaxsga beriladigan faoliyat doirasi. Fuqarolik qonunlariga ko'ra, vakolat bir shaxs

tomonidan vakillikni amalga oshirish chog`ida beriladi va vakolat berilgan shaxsning huquq doiralari belgilab qo`yiladi.

Vasiylik – FKning 32-moddasiga muvofiq, vasiylik muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga to`liq layoqatli bo`lmagan, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi. Vasiylar o`z himoyalaridagi shaxslarning huquq va manfaatlarini har qanday shaxslar bilan munosabatlarda, jumladan, sudlarda ham maxsus vakolatsiz himoya qiladilar.

Vasiqa – O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik qonunchiligiga muvofiq, mol-mulkka egalik qilishni tasdiqlovchi dalolatnoma, hujjat.

Vasiyatnoma – qonunda belgilangan tartibda fuqaroning o`ziga tegishli mol-mulkni yoki mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etish xususidagi xohish-irodasi va bu istakni aks ettiruvchi hujjat. Vasiyatnoma uni tuzish vaqti va joyi ko`rsatilgan holda yozma tuzilgan bo`lishi, vasiyat qiluvchining o`z qo`li bilan imzolanishi va notarial tasdiqlanishi lozim.

**Vindikatsion da`vo** – mulkdorning o`zganing noqonuniy egalik qilishidan ashyoni talab qilib olish haqidagi yoki boshqacha aytganda, mulkiga egalik qilmayotgan mulkdorning egalik qilayotgan mulkdordan mol-mulkni qaytarish haqidagi da`vosi.

Voris – qonun bo`yicha yoki vasiyat orqali merosxo`r bo`lish yoki merosxo`r huquqiga ega bo`lish.

Voyaga yetganlik yoshi – qonunda belgilangan yosh bo`lib, fuqaro shu yoshga yetgach to`laligicha huquqiy layoqatli deb sanaladi. O`zbekiston Respublikasida 18 yosh voyaga yetganlik yoshi deb belgilangan.

Garov- 1) Fuqarolik huquqida majburiyatlar bajarilishini ta`minlashning asosiy usullaridan biri. 2) Jinoyatlarning oldini olish choralari. Garov sudning, prokurorning, tergovchining, surishtiruvchining chaqiruvi bo`yicha gumon qilinuvchining, ayblanuvchining kelishini ta`minlashda tashkilot yoki boshqa yuridik shaxs tomonidan yohud gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tomonidan sud depozitsiyasiga qo`ygan qimmatliklar yoki pullarda ifodalanadi.

Guvoh – biror-bir jinoyat yoki fuqarolik ishi bo'yisha o'tadigan biron-bir holatni o'z ko'zi bilan ko'rgan shaxs.

Gumon qilinuvchi – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-prosessual Kodeksining 47-moddasiga ko'ra-jinoyat sodir etishda ishtirok etganligini ko'rsatuvchi asoslar mavjud bo'lgan holda tergovga chaqirilgan yoki prokuror tomonidan qaror asosida gumon qilinuvchi sifatida tan olingan jismoniy shaxs.

Davlat nazorati – davlat hokimiyatini amalga oshirishning davlat organlari chiqaradigan qonunlarga va boshqa huquqiy hujjatlarga rioya etilishini ta'minlaydigan shakllaridan biri.

Dalolatchi – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 28-moddasida belgilangan ishtirokshilikning bir turi. Dalolatchilik o'zga shaxsni jinoyat sodir etishga undash yoki jinoiy faoliyatda qatnashishga qiziqtirishda ifodalanadi.

Da'vo – buzilgan yoki cheklangan huquqni yoki qonun tomondan muhofaza qilinadigan manfaatni sud (xo'jalik sudi) orqali himoya qilish vositasi. Da'voning ikki tomoni farqlanadi: moddiy-huquqiy va prosessual-huquqiy.

Da'vo muddati – fuqarolik huquqida shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddat. Fuqarolik Kodeksining 150-moddasiga muvofiq umumiy da'vo muddati 3 yil.

Dispozitsiya – huquq normasining huquq sub'yekti hatti-harakatidagi yuridik ahamiyatga ega mazmunni ochib beruvshi tarkibiy qismi.

Jabrlanuvshi – O'zbekiston Respublikasi JPKning 54-moddasiga ko'ra, yetarlicha dalillarga asoslangan hamda jinoyat oqibatida moddiy, ma'naviy, jismoniy zarar yetkazilgan shaxs. Jabrlanuvchi tariqasida ishga jalb qilish surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror qarori bilan amalga oshiriladi.

Jinoiy jazo – davlatning majburlash chorasi: jinoyat qilgan shaxslarga sud hukmi bilan qo'llaniladi.

Jazo – jinoyat qonunchiligiga asosan, jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir.

Jinoiy javobgarlik – yuridik javobgarlik turlaridan biri. Jinoyat sodir etishning huquqiy oqibati bo'lib, aybdorga nisbatan jazolash shaklidagi davlat majburllov chorasini qo'llashdan iborat.

Jinoyat – Jinoiy Kodeks bilan taqiqlangan, aybli, ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb hisoblanadi.

Jinoyat motivi – jinoiy qilmich sodir etishga ahd qildiruvchi anglab yetilgan tuyg'udir. Motiv doimo jinoyatdan oldin paydo bo'ladi va uning maqsadini aniqlaydi.

Jinoyat tarkibi- O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqining nazarda tutilgan, sodir qilingan ijtimoiy xavfli harakatni aniq jinoyat turi sifatida tavsiflaydigan ob'yektiv va sub'yektiv belgilar yig'indisi.

Jinoyat huquqi – ijtimoiy munosabatlarning muayyan tizimi uchun xavfli bo'lgan qilmishning jinoiyligini va jazolanishishni belgilovchi yuridik normalar yig'indisidan iborat huquq tarmog'i.

Jismoniy shaxs – 1) O'zbekiston fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar. 2) Fuqarolik huquqida jamoani tashkil etuvchi yuridik shaxsdan farqli o'laroq, fuqarolik huquqining sub'yekti bo'lgan alohida fuqaro(xorijlik fuqaro, fuqaroligi bo'lmagan shaxs).

Zakalat – majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullaridan biri FK bo'yicha shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnoma tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta'minlash uchun shartnoma yuzasidan ikkinchi tarafga to'laydigan pulidan beradigan pul summasi zakalat deb tushuniladi.

Zarar – fuqarolik huquqida bir shaxsning qonunga xilof harakati bilan ikkinchi bir shaxsga yetkazilgan pul shaklidagi ziyon.

Ijtimoiy xavflilik – jinoyatning ob'yektiv xususiyatlarini aks ettiruvshi belgi. Ijtimoiy xavflilik huquqiy himoya ob'yektlariga zarar yetkazuvchi yoki zarar yetkazishga real xavf tug'diruvchi qilmishlarni jinoyat toifasiga kiritish kerakliligidan iboratdir.

Intellektual mulk – ijodiy faoliyat va individuallashtirish vakolatlariga bo'lgan mutlaq huquqlar yig'indisini bildiruvchi tushuncha. U adabiy, badiiy va

ilmiy asarlarga, artistlarning ijro faoliyatiga , ovoz yozish, radio va televizion eshittirishlarga, ixtirolarga, sanoat namunalarga, tovar belgilariga, firma nomlariga bo`lgan huquqni qamrab oladi.

Intizomiy javobgarlik – yuridik javobgarlikning bir turi. Mehnat intizomini buzuvchiga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo`llashda namoyon bo`ladi. 1) hayfsan; 2)o`rtacha ish haqining 20% idan ortiq bo`lmagan miqdorda jarima; 3) mehnat shartnomasini bekor qilish.

Intizomiy qismlar – sudlangan harbiy xizmatchilar jazo o`tashi uchun mo`ljallangan maxsus harbiy qismlar (batalonlar, rotalar).

**Iste`mol buyumlari** – ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarda, maishiy yoki ishlab chiqarish jarayonida qo`llaniladigan buyumlar.

Ish vaqti – mehnat huquqida kalendar vaqtining bir qismi, bu vaqt mobaynida ishchi yoki xizmatchi o`ziga ko`rsatilgan joyda topshirilgan ishini yoki boshqa ish majburiyatlarini bajarishi kerak. Bir haftalik ish vaqti 40 soatdan oshmasligi lozim.

Ish haqidan ushlab qolish – O`zbekiston Respublikasi mehnat huquqiga asosan ma`muriyatning topshirig`i bo`yicha qonunda nazarda tutilgan hollardagina amalga oshiriladi, masalan: ish haqi hisobidan berilgan avans (bo`nak)ni qaytarish uchun; Hisob-kitobdagi xatolar oqibatida ortiqcha to`langan pulni qaytarish uchun; xodimning aybi bilan yetkazilgan zararni qoplash chog`ida. Har bir ish haqini to`lash vaqtida ushlab qolinadigan mablag`ning umumiy hajmi ish haqining 20% dan, qonunlarda maxsus nazarda tutilgan ayrim hollarda yoki bir necha ijroiya hujjatlar bo`yicha ushlab qolish chog`ida esa – ish haqining 50% dan oshmasligi kerak.

Ishdan chetlashtirish – oylik maoshini ushlab qolgan holda hodimni vaqtincha ishdan chetlashtirish. MKning 113-moddasiga muvofiq, xodimni ishdan chetlashtirishga, qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari yo`l qo`yilmaydi. Alqagolli ichimlikdan, narkotik yoki zaharli modda ta`siridan mastlik holatida ishga kelgan xodim shu kuni (smenada) ishga qo`yilmaydi

Kassatsiya instansiyasi – fuqarolik prosessual va jinoyat prosessual huquqlaridan birinchi instansiya sudining qarorlari, hukmlari ustidan kasatsion shikoyat yoki protest va ajrimlari hamda qonuniy kuchga kirmagan sud qarorlari ustidan xususiy shikoyatlar (protestlar) bo'yisha ishni ko'rib chiquvchi ikkinchi sud instansiyasi.

Kassatsiya instansiyasi sudi –qaror, hukm chiqargan sudga nisbatan bevosita yuqori turuvchi sud.

Kafillik – majburiyatlar bajarilishini ta'minlashning bir shakli. FKning 292-moddasiga asosan, kafillik shartnomasi bo'yicha kafil boshqa shaxs o'z majburiyatlarini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi. U kelgusida vujudga keladigan majburiyatni ta'minlash uchun ham tuzilishi mumkin.

Kontraktatsiya – mahsulot yetishtiruvchi bilan davlat yoki bosh xaridor o'rtasida tuziladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berish to'g'risidagi shartnoma.

Majburiyat –FKning 234-moddasiga binoan, fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

Mansabdor shaxslar – hokimiyat vakili funksiyasini doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha amalga oshiruvshi yohud davlat organlarida, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarida, davlat munisipal muassasalarida , O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarida tashkiliy, taqsimot, ma'muriy-xo'jalik funksiyalarini bajaruvchi shaxslar.

Mafiya – shantaj, zo'rlik va o'ldirishga asoslangan, yashirin holatda ish olib boradigan jinoiy guruh, birlashma.

Mehnat daftarchasi – O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi 81-moddasiga binoan, xodimning mehnat faoliyati to'g'risidagi asosiy hujjat. U

korxona, muassasa, tashkilotlarda 5 kundan ortiq ishlayotgan xodimlarning hammasiga yuritiladi.

Mehnat yoshi – inson mehnat qilish qobiliyatiga, mehnat qilish huquqiga ega bo'ladigan yosh. O'zbekiston Respublikasida mehnat yoshi erkaklar uchun 16-60 yosh, ayollar uchun 16-55 yosh qilib belgilangan.

Moddiy javobgarlik – mehnat shartnomasining bir tarafi (ish beruvchi yoki xodim) mehnat sohasidagi vazifalarini bajarishi munosabati bilan boshqa tarafga yetkazgan zararini FK va mehnat to'g'risidagi boshqa normativ hujjatlarda belgilangan qoidalarga muvofiq qoplaydi.

Mualliflik huquqi – muallifning fan, madaniyat, adabiyot, san'at sohasida yaratgan yangiliklarga berilgan huquqi.

Neustoyka –qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi neustoyka hisoblanadi.

Nikoh – erkak va ayol oila qurishining tarixan shakllangan va qonun bilan yoki din tomonidan mustahkamlangan shakli. O'zbekistonda nikohning dunyoviy-demokratik shakli-erkak va ayollarning teng huquqliligini e'tirof etishga asoslangan monogam nikoh o'rnatilgan.

Normativ huquqiy akt – vakolatli davlat organining belgilangan tartibda qabul qilingan yuridik hujjati. U umummajburiy xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga oladi.

Otalikni sud tartibida aniqlash – otalik faktini sud tartibida aniqlash tadbiri. O'zaro nikohda bo'lmagan ota-onalarning farzandi tug'ilganda va ota-onalarining birgalikdagi arizasi yoki otasining arizasi bo'lmaganda bolaning muayyan shaxsdan kelib chiqishi (otalik) ota-onalardan birining, bolaning vosiysi (homiysi) yoki bolani o'z qaramog'iga olgan shaxsning arizasiga ko'ra, shuningdek, voyaga yetgan bolaning o'zi yozgan arizasi bo'yicha sud tartibida aniqlanadi.

Regress da'vo – qarzdorning aybi bilan ushinch shaxsga to'langan pulni qaytarish to'g'risidagi qarshi talabnoma.

Sanksiya – qatʼiy chora va tadbir. Huquqda sanksiya toʻrt asosiy turga boʻlinadi: 1) jinoiy-huquqiy. 2) maʼmuriy-huquqiy. 3) ijtimoiy-huquqiy. 4) mulkiy

Sinov muddati – a) ishga qabul qilishda belgilanadi. Uning muddati 3 oydan oshmasligi kerak. b) sud tomonidan shartli hukm qilishda.

Subʼyektiv huquq – fuqaroviy tashkilotning oʻz manfaatlarini qondirish bilan bogʻliq boʻlgan maqsadiga erishish yoʻlida amalga oshirishi mumkin boʻlgan hatti harakatlari qonun orqali taʼminlangan chorasi. Uning dastlabki sharti-huquqiy layoqatlilik, yaʼni umumiy huquqqa ega boʻlish layoqati asosida yuzaga keladi.

Tabiiy huquq-davlat va huquq nazariyasida inson tabiatidan kelib chiquvchi va shu tufayli muayyan davlatning qonunlar orqali tan olishga yoki tan olmasligiga bogʻliq boʻlmagan prinsiplar, qoidalar, huquq va qadriyatlar majmuasini bildiruvchi tushuncha.

Umumiy huquq- XIII-XIV asrlarda Angliyada shakllangan huquqiy tizim. Uning asosiy manbai deb sud presedenti eʼtirof etiladi. Qonunlar ayrim sohadagi munosabatlarni tartibga soladi, lekin yagona tizimga keltirilmagan.

Umumiy mulk – fuqarolik qonunlariga binoan, ikki yoki undan ortiq shaxsning egaligida boʻlgan mol-mulk, ularga umumiy mulk asosida tegishli boʻladi. FKning 216-moddasiga binoan, mol-mulk mulkdorlardan har birining mulk huquqidagi ulushi aniqlab qoʻyilgan holda umumiy mulk boʻlishi mumkin.

Unitar korxona – oʻziga biriktirib qoʻyilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot .

Fuqarolik jamiyati – konstitutsiyaviy huquq nazariyasida ijtimoiy hayotning huquq va demokratiyaga asoslangan zaruriy va oqilona usuli; insonga uning iqtisodiy va siyosiy borligʻining shakllarini erkin tanlash huquqi kafolatlanadigan, inson huquqlari qaror topadigan, mafkuraviy plyuralizm taʼminlanadigan ijtimoiy tuzum. U jamiyatga xizmat qiluvchi davlatni nazorat qiladi.

Fuqaroning muomala layoqati – fuqaroning oʻz harakati bilan fuqarolik huquqlarini olish va amalga oshirish, oʻzi uchun fuqarolik majburiyatlarini yaratish va ularni bajarish qobiliyati. U toʻla hajmida shaxsning balogʻat yoshiga, yaʼni 18 yoshga toʻlishi bilan yuzaga keladi.

Shartnoma – fuqarolik huquqida ikki yoki undan ortiq shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki to'xtatish to'g'risidagi kelishuvi, bitimning turi. Uning sinonimi – kontrakt.

Yuridik akt – muayyan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi, yuridik holatni yaratuvchi va ijtimoiy munosabatlarni boshqarishga qaratilgan rasmiy yozma hujjat.

Huquqbuzarlik – jamiyatda o'rnatilgan va qonun asosida belgilangan tartib yoki umuman ijtimoiy yashash qoidalarini buzish.

Huquqiy layoqat – fuqarolarning mavjud huquq va burchlarga ega bo'lish layoqati.

Huquqiy normalar – davlat tomonidan qonun bilan belgilangan va barcha uchun bajarilishi majbur hisoblangan axloqiy qoidalar.

M U N D A R I J A:

Kirish	3
1-Mavzu. Davlatning kelib chiqishi, mohiyati, belgilari, shakllari.....	4
2-Mavzu. Huquqning paydo bo'lishi, mohiyati, belgilari, tizimi va manbalari.....	13
3-Mavzu. Ma'muriy huquq asoslari.....	21.
4-Mavzu. Fuqarolik huquqi asoslari.....	32
5-Mavzu. Iste'molchilar huquqini himoyalash asoslari.....	46
6-Mavzu. Mehnat huquqi.....	52.
7-Mavzu. Oila huquqi asoslari.....	62
8-Mavzu. Ekologiya huquqi asoslari.....	74
9-Mavzu. Jinoyat huquqi asoslari.....	82
Huquqiy atamalar izohi va tayanch tushunchalar.....	91